


A.X. Turdialiyev

**DENOV SHEVASINI
AREAL O'RGANISH
VA TIL KORPUSIGA
JOYLASHTIRISH**

DENOV SHEVASINI AREAL O'RGANISH VA TIL KORPUSIGA JOYLASHTIRISH



Anvarbek Turdialiyev

**BOOKMANY
PRINT**



**DENOV SHEVASINI AREAL
O'RGANISH VA TIL KORPUSIGA
JOYLASHTIRISH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI**

Turdialiyev Anvarbek Xusinovich

**DENOV SHEVASINI AREAL
O‘RGANISH VA TIL KORPUSIGA
JOYLASHTIRISH**

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 811.511.133’282(575.4)

KBK: 81.2(50‘z)

M 19

Turdialiyev Anvarbek Xusinovch.

Denov shevasini areal o‘rganish va til korpusiga joylashtirish [Matn]: monografiya / A.X. Turdialiyev. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 138 b.

Monografiya o‘zbek shevalarini o‘rganishning yangi bosqichi, ya’ni areal lingvistik jihatdan ilk bor o‘rganilayotgan Denov shevalariga bag‘ishlanadi. Denov arealida bir-biriga o‘zaro ta’sir etib turuvchi uchta etnik guruh tillari va shevalari mavjud. Garchi Denov shevasi mustaqil (alohida) dialektologik tadqiqotga tortilmagan bo‘lsa-da, bir qator olimlar e’tiborida bo‘lgan, ularning materiallaridan boshqa ishlarda foydalanilgan. Hudud areal lingvistik aspektda o‘rganilib, “kichik dialektal zona” tarzida asoslandi. Bundan tashqari sheva ma’lumotlari asosida “O‘zbek shevalari korpusi”ning ilk namunasi yaratildi hamda ilmiy-nazariy asoslandi. Monografiya o‘zbek shevashunosligi, areal lingvistika, korpusshunoslik sohalari bilan qiziquvchi barcha filologlarga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:

Samixon Ashirboyev – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

Taqrizchilar:

M.Raxmatov – dotsent, filologiya fanlari doktori;

Z.Xidraliyeva – dotsent, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa fan doktori, PhD.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Ilmiy-texnik kengashi majlisida 2025 -yil ____ muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (sonli bayonnoma).

ISBN 978-9910-06-895-9

© **Turdialiyev A.X., 2025.**

© **“Bookmany print” nashriyoti, 2025.**

Kirish

Jahon tilshunosligida shevalarni o'rganishga e'tibor kuchaydi. To'g'ri, o'zbek tilshunosligida shevalarni o'rganish masalasi uzoq tarixni bosib o'tgan bo'lsa-da, keyingi 50 yil ichida bu yo'nalishdagi ishlar ancha sustlashdi, lekin shevashunosligimizning bir tarmog'i bo'lgan lingvistik geografiya bo'yicha qator ishlar paydo bo'ldi. Ayniqsa, o'zbek shevalarining areal tadqiqotlari amalga oshirilganligi va bu sohaning darsliklari yaratilganligini alohida ta'kidlash mumkin.

Dunyo tilshunosligida areal lingvistikaning rivojlanishiga bo'lgan e'tibor kundan kunga ortmoqda. Bu borada internet sahifalarida qizg'in ishlar amalga oshirilayotganligi xabarlarini yuzaga chiqmoqda. Bu jarayon muayyan darajada O'zbekiston Respublikasida ham kechmoqda. Buni o'zbek tilshunosligida o'zbek tili massivining dialektal zona va azonalarga ajratilganligi, shevalarni kartalashtirish ishining ham davom etayotganligida ko'rish mumkin. Bu ishlar yirik til massivida amalga oshirildi, lekin uni aslida kichik zonalardan boshlash maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shu ma'noda ushbu ishda Denov areali tanlandi, buning boisi shundaki, bu arealda bir-biriga o'zaro ta'sir etib turuvchi uchta etnik guruh tillari va shevalari mavjud. Garchi Denov shevasi mustaqil (alohida) dialektologik tadqiqotga tortilmagan bo'lsa-da, bir qator olimlar e'tiborida bo'lgan, ularning materiallaridan boshqa ishlarda foydalanilgan. Bu zonani biz kichik dialektal zona tarzida asosladik.

O'zbek dialektologiyasi hozirgi davrda dialektografiya bosqichini bosib o'tdi va bu borada chuqur ilmiy tadqiqotlar yuzaga chiqdi. Ta'kidlash joizki, shevalar milliy tilimizning asosi va adabiy tilimizning manbasi hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bu fanga e'tibor keyingi yillarda susaygan va o'z tadqiqotchilarining ham kamayishiga sabab bo'lgan edi. Keyingi davrdagi tilga bo'lgan e'tiborning ijobiy tomonga o'zgarishi shevalarni o'rganilishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Denov areali shevalarini ham yangi qarashlarda o'rganishga asos bo'ladi. Denov kichik arealida qarluq, qipchoq lahjasi vakillari va tojiklar istiqomat qiladi va, so'zsiz, ular kundalik turmushda kontaktda bo'ladilar hamda bu jarayonda ularning shevalari o'zaro ta'sirga uchraydi. Dissertatsiyada Denov qarluq va qipchoq shevalarining shunday sharoitdagi xususiyatlari, ya'ni bu shevalarning fonetik, morfologik xususiyatlari va tojik tilining qaysi jihatlardan ta'siri masalasi o'rganilishi zarur edi.

Surxondaryo o'zbek shevalari XX asr boshlarida rus va o'zbek dialektologlari tomonidan o'rganila boshlangan. Jumladan, Y.D.Polivanov, G'.O.Yunus, A.K.Borovkov, G.F.Blagova, X.D.Doniyorov, A.Ishayev,

Q.Muhammadjonov, A.Mamatov, M.Nosirov, A.Mamatqulov, X.Jo‘rayev, X.Alimurodov, D.Abdurahmonov¹ Denov qarluq guruh shevalarining fonetikasi, morfologiyasi haqida to‘xtalib, sheva leksikasidan namuna keltiradi. S.Rahimov Denov shevalarini ko‘proq ž-lovchi sheva deb uni ž-lovchi shevalarning ikkinchi guruhi tarkibiga kiritadi, hududda yashovchi tojiklar tili, ularning etnik tarkibi haqida to‘xtalmaydi, qarluq guruh sheva vakillari mavjudligi haqida tushuntirishlar beradi, ammo ikki tilli shevalar haqida fikr bildirmaydi, aksincha, hududni ikki tilli shevalar qatoriga qo‘shmaydi². K.Shoniyozov VI asr o‘rtalarida Sharqiy Turkiston, Farg‘ona va Toxaristonning ayrim hududlarida ham qarluqlar yashaganligi, ularning avlodlari hozirgi Samarqand, Buxoro, Surxondaryo viloyatining shimoli, Tojikiston Respublikasi, Afg‘onistonning shimolida yashashi haqida ma‘lumotlar keltiradi. Olimning ta‘kidlashicha, hozirgi kungacha yetib kelgan qarluqlarning tili “j-lovchi dialekt³”, ya‘ni Farg‘ona va Toshkent shevasiga to‘g‘ri keladi⁴.

Denov shevasi arealogik va kontaktologik rejada ilk bor o‘rganiladi, arealdagi qarluq, qipchoq shevalarining joylashish o‘rinlari, aholi tarkibi hamda ularning o‘zaro munosabatlari aniqlangan, shuningdek, bu ikki o‘zbek shevasining tojik tili bilan munosabatidagi o‘ziga xosliklar misollar asosida dalillangan bo‘lib, Denov qarluq, qipchoq lahjasi shevalarining unlilar tizimi, fonetik qonun va jarayonlar, egalik, kelishik, ko‘plik va fe‘l shakllarining morfologik xususiyatlari adabiy til bilan qiyoslangan holda ochib berilgan.

¹ Поливанов Е. Д. Образцы не иранизованных (сингармонистических) говоров узбекского языка. Говор города Туркестана // Известия АН, 1929. – № 7. – С. 518; Yunus G‘.O. Ozbek lahçalarini tasnifda bir taçriba. – Taşkent: Ozdavnashr, 1935. – B. 21; Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1962. – Б. 77; Благова Г.Ф. (Москва), Данияров Х.Д. (Самарканд) Говоры «тюрок» Узбекистана в их отношениях к языку староузбекской литературы // Вопросы языкознания. – Москва: Наука, 1966. – № 6. – С. 93; Носиров М. Сурхондарё шевалари бўйича айрим кузатишлар (диалектологик экспедиция материаллари асосида) // Ўзбек тили ва адабиёти. 1979. – № 5. – Б. 67; Маматқулов А. Шеробод районида “дж” ловчи шеванинг унлилар системаси ҳақида // Илмий асарлар. – Тошкент: ТДПИ, 1959. – № 12. – Б. 157; Жураев Х. Фонетико-морфологические и лексические особенности узбекских говоров, носящих этническое название “Тюрк-Калтатай” (по материалам Самаркандской, Джизакской и Сырдарьинской областей УзССР): Филол. фан. дис. автореф. – Ашхабат. 1975. – Б. 11; Алимуродов Х. Морфология узбекских кипчакских говоров низовья Сурхандарьи (имя и глагол). Дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1982. – С. 22-24; Абдурахмонов Д. Қорлуқлар ва уларнинг тили // Ўзбек тили ва адабиёти, 1987. – № 3. – Б. 31.

² Раҳимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари (Фонетика, Лексика). – Тошкент: Фан, 1985. – Б.13.

³ Шониёзов К. Қарлуқ қабиласи ва унинг тили ҳақида айрим мулоҳазалар // Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари, 4 китоб. – Тошкент: Фан, 1962. – Б. 481.

⁴ Шониёзов К. Қарлуқ давлати ва қарлуқлар. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 90.

O‘zbek dialektologiyasiga Surxondaryo bir dialektal zona sifatida belgilangan bo‘lib, bu uning kuchsiz fokus nuqtasiga ega ekanligi bilan izohlangani aniqlanib, Denov shevasining nisbatan murakkabroq tarkibi uni kichik dialektal zona sifatida ajratish imkonini berishi isbotlanib, bu tushuncha ilmga ilk bor kiritilgani asoslanganligi hamda Denov kichik dialektal zonasidagi sheva faktlarini korpusga joylashtirish bo‘yicha lingvistik va ekstralingvistik teglash, meta ma’lumotlarni shakllantirish, transkripsiyadagi sheva matnlarini *Unicodda* o‘qitish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

I BOB. DENOV QARLUQLARI SHEVALARINING XUSUSIYATLARI

1.1. Denov areali shevalarining o'rganilishi

Surxondaryo o'zbek shevalari XX asr boshlarida rus va o'zbek dialektologlari tomonidan o'rganila boshlangan. Keyingi yillarda Surxondaryo viloyat shevalarini o'rgangan tilshunos olimlar A.Mamatqulov, X.Alimurodov, S.Rahimov, A.Ishayev, M.Nosirov, G.Blagova, X.Doniyorov, D.Abdurahmonovlar tomonidan va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy-nazariy xulosalariga tayanib, Surxondaryo shevalarining, shu jumladan, Denov tuman shevasining mavjud tasniflardagi o'rni to'g'risida tahlillar olib boriladi.

O'zbek shevalarini o'rganishda XX asr boshlarida keng ko'lamli ishlar olib borildi. Jumladan, Y.D.Polivanov o'zbek shevalarini tasniflashda Surxondaryo viloyati shevalarini uchinchi dialekt qipchoq lahjasining 5-tip *janubiy o'zbek ž-lovchi* shevalari tipiga kiritadi. Y.D.Polivanov singarmonizmni saqlagan va saqlamaganligiga qarab eronlashmagan, ya'ni singarmonizm xususiyatini saqlagan qipchoq, sof o'zbek shevalariga kiritgan⁵. Tadqiqot jarayonida Surxondaryo vohasida qipchoq lahjasiga kiruvchi sheva vakillari bilan birga qarluq lahjasiga kiruvchi sheva vakillari ham istiqomat qilishi ma'lum bo'ldi.

Ma'lumki, G'.O.Yunus tasnifiga ko'ra o'zbek shevalari uch lahjaga ajratilgan: 1) *o'zbek-qipchoq lahjasi*; 2) *turk-barlos lahjasi*; 3) *Xiva-Urganch lahjasi*. O'zbek-qipchoq lahjasiga O'zbekistonning Ohangaron vodiysi, Mirzacho'l, Samarqand, Zarafshon, Buxoro atroflarida, Surxondaryoda yashovchi o'zbeklarni kiritadi hamda shu hududda yashovchi urug'larni sanab, shevalaridan namunalar keltiradi. Surxondaryo viloyati shevasini ham o'zbek-qipchoq lahjasiga kiritadi va qator fonetik xususiyatlarini qayd etadi:

й>дж : йер-джер, йол-джол;

қ>ғ: ақ-ағ, кулақ-кулағъ;

г//ғ>й: тегди-тийди, сьғдь-сьйдь, йьғьн-джьйьн⁶.

G'.O.Yunus turk-barlos lahjasiga to'xtalib, Denov, Sariosiyo tumanlari, Dalvarzintepa atrofida yashovchi aholi, Boysun tumani va uning

⁵ Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1962. – Б. 73.

⁶ Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1962. – Б. 74.

atrofidagi shaharlarda arab, afg'on, tojiklar yashashi, Tojikiston Respublikasi Qaratag' tumanida turk-barlos urug'lari yashashi haqida ma'lumot beradi va hududda yashovchi urug', qabilalarning shevasini turk-barlos lahjasiga kirishini ta'kidlaydi⁷.

A.K.Borovkov o'zbek shevalarini tasnif qilishda ikki xil variantni taklif qilgan. *Birinchi variantiga* o'zbek shevalarida uchraydigan fonetik xususiyatlarni hisobga olib *ā-lashish* va *a-lashishga* ko'ra ikki katta guruhga bo'ladi. *a-lovchi* guruh shevalariga singlarmonizmni saqlagan shevalarni kiritib, bu guruh shevasida uchraydigan fonetik xususiyatlarga ko'ra *j-lovchi*, va *ž-lovchi* shevalarga ajratadi. *j-lovchi* sheva vakillari Janubiy Qozog'istondagi o'zbek shevalari hamda Janubiy Xorazm shevalari kiritilgan, *ž-lovchi* shevaga Shimoliy Xorazm, *Surxondaryo* va Samarqand viloyatidagi qishloq shevalari kiritilgan. A.K. Borovkov taklif qilgan *ikkinchi variantida* o'zbek shevalari orasidagi munosabat va tarixiy-lingvistik xususiyatlar hisobga olingan. A.K.Borovkov tasniflagan *Shayboniy-o'zbek yoki ž-lovchilar dialektiga* Samarqand, Buxoro, Surxondaryo viloyatlari, Ohangaron vodiysi, Shimoliy Xorazm hamda Farg'ona vodiysidagi qipchoq va qoraqalpoq shevalarini kiritadi.

A.K.Borovkovning ma'lumot berishicha, XVI asrda ko'chmanchi o'zbek urug'lari xitoy, qipchoq, saroy, nayman, mang'it, ming, yuz, qirq va boshqa qipchoq shevasi yoki *ž-lovchi* o'zbeklar O'zbekistonning turli hududlariga, shu jumladan, Surxondaryoga ko'chib kelib joylashgan⁸.

Y.D. Polivanov va A.K.Borovkovlar o'zbek shevalari tasnifida Surxondaryo o'zbek shevalarini ham umumiy o'zbek shevalari qatorida tasnifga kiritadi va tahlil etadi. Ammo keltirilgan faktlar hududning faqat qipchoq lahjasiga kirishi haqida ma'lumot beradi. Hududda yashovchi qarluq urug'lari, tojik tili va boshqa kam sonli millat vakillari hamda ularning tili haqida ma'lumotlar berilmagan, ularning shevalari tahlilga tortilmagan.

V.V.Reshetov o'z tasnifida Surxondaryo o'zbek shevalarini hudud jihatidan shimoliy-g'arbiy guruhga, etnik belgisiga ko'ra qipchoq, til xususiyatlariga ko'ra *a-lovchi* guruhdagi *ž-lashgan* shevalar orasida deb hisoblaydi.

Shuni qayd etish mumkinki, V.V.Reshetovning tasnifida *j-lovchi* shevalar, ya'ni Denov tuman shevasi haqida alohida to'xtalmagan⁹.

⁷ Yunus G'.O. Ozbek lahçalarini tasnifida bir taçriba. – Taşkent: Ozdavnaşr. 1935. – B. 21.

⁸ Боровков А.К. Вопросы классификации узбекских народных говоров // Известия АН УзССР, – Ташкент, 1953. – № 5. – С. 71.; Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1962. – Б. 78.

⁹ Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1962. – Б. 80.

G.F.Blagova va X.D.Doniyorov “Говоры “тюрков” узбекистана в их отношениях к языку староузбекской литературы” nomli maqolasida Surxondaryo viloyati Denov (Qiziljar qishlog‘i), Sariosiyo (Toxchiyon qishlog‘i) tumanlarida yashovchi *turk-barlos, kaltatoy, turk, musobozori* urug‘lari shevasining eski o‘zbek adabiy tiliga ta’siri haqida to‘xtalib, hudud shevasining unililari soni 6ta (э, ъ, у, ö, ә, џ) ekanligi, orqa qator o va old qator ö farqlanmasligini ta’kidlaydi. Agar orqa qator o unlisi saqlansa, unililar soni 7ta bo‘ladi, – deb yozadi¹⁰.

O‘zbekistonning turli hududlariga dialektologik ekspeditsiyalar uyushtirib, tadqiq etilmagan shevalarni o‘rgangan delegatsiya a‘zolari Surxondaryo viloyatidagi Sariosiyo, Denov, Qumqo‘rg‘on, Sho‘rchi, Boysun tumanlarining bir qancha qishloqlarida bo‘lib, sheva xususiyatlari bilan tanishganlar hamda hudud shevalari qarluq-chigil-uyg‘ur va qipchoq lahjasiga mansubligi, ularning har biri o‘z leksik, grammatik, fonetik xususiyatlariga ega ekanligini ta’kidlaganlar¹¹.

Olib borilgan kuzatishlar natijasida ekspeditsiya a‘zolari, qipchoq shevasi vakillari qo‘ng‘irot, juz (yuz), do‘rmon, kenagas, qatag‘on, nayman, laqay¹² urug‘lariga mansub bo‘lib, leksik, morfologik, fonetik xususiyatlari bilan boshqa qipchoq shevalari bilan birlashishi, ayrim jihatlari bilan farqlanishini hamda qipchoq lahjasi unililari umumiy o‘zbek qipchoq lahjasi unililariga mos ekanligini ma’lum qiladi: и, ы, у, ү, е (э), о, Ө, а, ә, џ¹³.

Qarluq lahjasiga mansub shevalarda unililar son jihatdan Samarqand-Buxoro tip shevalari bilan mosligi (u (ь), y (ү), e, o (ө), ә (а), џ) kuzatiladi. Qarluq tip shevalar lingvistik xususiyatlariga ko‘ra Samarqand-Buxoro shevalari bilan birlashsa-da, o‘zaro ichki farqli tomonlari ham mavjudligi qayd etilgan. M.Nosirov, asosan, Sariosiyo, Sho‘rchi (hozirgi Oltinsoy hududi), Qumqo‘rg‘on tumanlarida joylashgan qishloq nomlarini qayd etib, Surxondaryo shevalari haqida ba’zi mulohazalarni, jumladan, Qarluq lahjasida uchraydigan ayrim qipchoq unsurlarini keltiradi:

a) sheva **j**-lovchi bo‘lsa-da, sporadik ravishda **ž**-lashish hodisasi ham uchraydi (asosan keksalar nutqida);

¹⁰ Благова Г. Ф. (Москва), Данияров Х. Д. (Самарканд). Говоры «тюрков» Узбекистана в их отношениях к языку староузбекской литературы // Вопросы языкознания, – Москва: Наука, 1966. – № 6, – С. 93.

¹¹ Носиров М. Сурхондарё шевалари бўйича айрим кузатишлар (диалектологик экспедиция материаллари асосида) // Ўзбек тили ва адабиёти, 1979. – № 5. – Б. 67-69.

¹² Qarang: Йўлдошев Т. Тожикистондаги ўзбек шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1986. – Б. 8.

¹³ Lotin alifbosidagi o‘zbek transkripsiyasida quyidagi transkripsion belgilarga to‘g‘ri keladi: i, i, u, ü, e, o, ö, a, ä, ä.

b) soʻz oʻrtasida **ƒ>в** hodisasi тувра ~ toʻgʻri, тувди ~ tugʻdi, тэв ~ togʻ;

v) soʻz oxirida **қ** tovushining tushishi сәри ~ sariq, қәтти ~ qattiq, сәрисү сиртигә боләди;

g) oʻgʻil soʻzi ул shaklida qoʻllanadi. Keltirilgan maʼlumotlar hozirgi kunda ham Qorluq¹⁴, Qoʻybesht¹⁵, Choʻntosh, Qizilfargʻona qishloqlarida bu fonetik oʻzgarish yaqqol koʻzga tashlanadi.

Diftonglashish hodisasi turkiy tillarning qipchoq guruhi uchun eng xarakterli belgilardan biri ekanligini taʼkidlab, misollar keltiradi: йенди ~ *endi*, йески ~ *eski*, йенә ~ *ena*, воғри ~ *oʻgʻri*, возим ~ *oʻzim*.

Diftonglashishning hudud qarluq tip shevalarida ham qator misollar keltiradi: ^вот ~ *oʻt*, ^вэн ~ *oʻn*, ^йезиб ~ *ezib*, ^вонтә ~ *oʻnta*, ^вомбештә ~ *oʻn beshta*, ^ворағ ~ *oʻroq*, ^йешиғ ~ *eshik*, ^йешиғди ач ~ *eshikni och*, тамди ^йешиғи ~ *tomning eshigi*.

Shu bilan birga, qarluq lahjasidagi shevalarda oʻrin-payt kelishigi **-da** oʻrnida joʻnalish kelishigi **-ga** (fonetik variantlari bilan) shakli qoʻllanadi;

feʼllarda oʻtgan zamon **-di** affiksi *l* bilan tugagan feʼl oʻzaklariga qoʻshilganda toʻliq assimilyatsiyaga uchrab *болли* ~ *boʻldi*, *қилли* ~ *qildi* shaklida qoʻllanib, Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo shevalari bilan birlashadi¹⁶. M.Nosirov keltirib oʻtgan Denov, Sariosiyo, Shoʻrchi tuman qipchoq lahjasi vakillari nutqida saqlanib qolgan *-(i)b edi* (*келиб әди*) formasidagi *edi* toʻliqsiz feʼli Denov tuman Choʻntosh, Qoraxon qishlogʻida yashovchi qarluq lahjasi vakillari boʻlgan baʼzi qariyalar nutqida ham uchraydi. Denov shahar shevasida esa bu shakl **-adigan edi** (keladigan edi, qiladigan edi) koʻrinishida qoʻllanib *edi* toʻliqsiz feʼlidagi **e** tovushiga urgʻu beriladi. Odam oladigan edi ~ *ādām ālādigān eʻdi*.

Qipchoq lahjasi shevalarida hozirgi zamon formasini yasovchi **-йатыр** **-жатыр** affiksi bilan birga **-йәнти** formasi ham qoʻllanadi. Bu adabiy til va shahar tip sheva vakillarining taʼsiridir. Hozirgi-kelasi zamon feʼli soʻroq formasining qoʻllanishi boʻyicha ham ayrim qarluq shevalarida xarakterli farq kuzatildi. **-mi** soʻroq yuklamasi qoʻllanishida izchillik buzilgan (*билмәймисән?*) *Сен ʻозинг билмәймисән* (*sen ʻozin bilmäjmisän*)?¹⁷. Muallif keltirgan soʻroq **-mi** yuklamasi haqidagi maʼlumotlar hozirgi kunda

¹⁴ Qorluq qishlogʻi hozirgi kunda Oltinsoy tumani tarkibiga kiritilgan.

https://uz.wikipedia.org/wiki/Ol-soy_tumani

¹⁵ Qoʻybesht Denov tumanida joylashgan katta qishloq hozirda kichik mahallalarga boʻlingan.

¹⁶ Носиров М. Сурхондарё шевалари бўйича айрим кузатишлар (диалектологик экспедиция материаллари асосида) // Ўзбек тили ва адабиёти, 1979. – № 5. – Б. 67.

¹⁷ Носиров М. Сурхондарё шевалари бўйича айрим кузатишлар (диалектологик экспедиция материаллари асосида) // Ўзбек тили ва адабиёти, 1979. – № 5. – Б. 69.

faqat yoshi kattalar nutqida saqlangan. Hozirgi zamon shaklini yasovchi - *jäpti* shakli yondosh qarluq shevalar ta'sirida, shuningdek, adabiy til ta'sirida yoshlar va yoshi ulug' ziyolilar nutqida o'rnatilib qolgan.

Hudud shevalari adabiy til va *ǰ-lovchi* shevalardan leksik jihatdan ham farq qiladi:

qarluq, barlos, kaltatoylarda: *бөлә – bo'la* opa-singilning bolasi;

juzlarda: *бөлә – bo'la* opa-singilning, aka-ukaning bolasi¹⁸;

qo'ng'irotlarda: *бөлә – bo'la* opa-singilning bolasi;

qarluq, barlos, kaltatoylarda: *āvä*(O'shor), *ävä*(Oybarak) – otaning aka-ukasi;

qo'ng'irotda, juz, do'rmon, laqaylarda: *ämäki* – otaning aka-ukasi;

qarluqlarda: *pāri – porī*, qipchoq: *гөнг – go'ng*;

Gazarak va Denov shevalarida *итирдим ~ itirdim* (yo'qotdim), *отмурча — мөрчә ~ tuyu chumoli, уджан, уджан тойь ~ nikoh to'y*¹⁹. Hozirgi kunda ham O'shor, Oybarak, Cho'ntosh, Mehnatobod qishloqlarida bu so'zlar faol ishlatiladi.

A.Mamatqulov Surxondaryo shevalari haqida quyidagicha ma'lumot beradi: Surxondaryo viloyatining tumanlari ko'zdan kechirilganda unda *ǰ-lovchi* shevalarga nisbatan *j-lovchi* shevalarning ayniqsa, Termiz, Boysun, Denov, Sariosiyo, Uzun tumanlarida ko'pchilikni tashkil etishi, Sherobod tumanidagi *ǰ-lovchi* shevada esa *ā*-lashishning ko'plab mavjudligi aniqlandi. Shuningdek, Sherobod tumanida uchta sheva vakillarining mavjudligi, ularning bir-biri bilan o'zaro munosabatda bo'lishi haqida ma'lumot bergan²⁰.

X.Jo'rayev nomzodlik dissertatsiyasida Denovda yashovchi turk-kaltatoy urug'lar shevasi haqida to'xtalib shevada unlilar soni 7ta (**ь,у,о (ө), а, ә, э ь**) deb ko'rsatadi²¹. Tadqiqotchi ko'plik qo'shimchasining **-лә** (*бәчәлә*), **-ә** (*бъзә*), **-нә** (*кельнә, бәрдьйнәрмь*) variantlari qo'llanishi haqida ma'lumot beradi²².

¹⁸ Otaning aka-ukasining bolalarini *bo'la* deb murojat qilish hozirda yoshlar nutqida deyarli uchramaydi, aka yoki amaki deb murojaat qilinadi.

¹⁹ Носиров М. Сурхондарё шевалари бўйича айрим кузатишлар (диалектологик экспедиция материаллари асосида) // Ўзбек тили ва адабиёти, 1979. – № 5. – Б. 69.

²⁰ Маматқулов А. Шеробод районида “дж” ловчи шеванинг унлилар системаси ҳақида // Илмий асарлар. – Тошкент: ТДПИ, 1959. – № 12. – Б. 157.

²¹ Жураев Х. Фонетико-морфологические и лексические особенности узбекских говоров, носящих этническое название “Тюрк-Калтатай” (по материалам Самаркандской, Джизакской и Сырдарьинской областей УзССР): Филол.фан. номз ... дис. автореф. – Ашхабат, 1975. – С. 2.

²² Жураев Х. Фонетико-морфологические и лексические особенности узбекских говоров, носящих этническое название “Тюрк-Калтатай” (по материалам Самаркандской, Джизакской и Сырдарьинской областей УзССР): Филол.фан.ном. ... дис. автореф. – Ашхабат, 1975. – С. 11.

S.Rahimov Surxondaryo shevalarini o‘rganish asnosida shevaning ko‘p asrlik tarixi, moddiy va madaniy hayotini aks ettirgan til faktlariga asoslanib hamda tarixiy-tavsifiy, lingvogeografik joylashuvlarini tahlil qilib uch guruhga ajratadi:

1. *ʒ* — lovchi o‘zbek shevalari (qipchoq lahjasiga xos shevalar);
2. *j* - lovchi o‘zbek shevalari (qorluq lahjasiga xos shevalar);
3. Ikki tilda so‘zlashuvchi shevalar²³.

Bu tasnif, xususan, Denov shevalariga ham xos bo‘lib, Denov tumanida qarluq, qipchoq lahjasi vakillari bilan birgalikda tojik tilli aholi ham qadimdan yashab keladi.

Birinchi guruh *ʒ*-lovchi shevalar o‘zining til xususiyatlariga ko‘ra barcha territoriyada bir xil emas. Qipchoq lahjasi ikki guruhga ajratiladi:

Birinchi guruh hudud jihatdan viloyatning janubiy-g‘arbiy va shimoliy-g‘arbiy tomonida: Boysun tumanidagi Rabot, Yomchi, Pitov, Kofrun, Bandixon, Istara, To‘da, Xo‘jabulg‘on, Munchoq, Tillakamar, Chilonzor, Kalamozor, G‘o‘rjak, Xo‘jaulkan, Dashtig‘oz, Pulhokim, Pudina, Sariqamish, Tengimush, Xomkon, Padang, Besherkak; Jarqo‘rg‘on tumanidagi Minor, Oqtepa, Ismoiltepa, Qizilmozor, Cho‘pon, Quyun, Boymoqli, Chinobod; Qumqo‘rg‘on tumanidagi Halaki, Azlarsoy, Elboyan, Yantoqli, Achamoyli, Qarsakli, Xo‘jamulki, Zarkamar, Lalmikor, Yangiyer, Bo‘ston, Guliston, Qumqo‘rg‘on, Sayqon, Taypan, Paxtakor, Ulus; Angor tumanidagi Tallimoron, Taqiya, Gilambop, Angor; Sherobod tumanidagi Qulliqsho, G‘urjak, Xo‘jaqiya, Chuqurko‘l, Talashqon, Yaxtiyo‘l, G‘o‘rin, Achomayli, Loyliq, G‘ambo‘r, To‘g‘iz, Oqqurg‘on, Bobotepa; Termiz tumanidagi Dehqon, Ozod, Yangiariq; Gagarin (Muzrabot) tumanidagi Beshqo‘ton kabi qishloq va aholi yashash manzillarida yashaydi. Bu guruhdagi shevalarda singarmonizm hodisasi (palatal yoki tanglay garmoniyasi) kuchli. So‘z va so‘z formalarining o‘zak negiziga qarab affikslarning qattiq-yumshoqligi o‘zgaradi. Masalan: *мынажаққа* ~ bu yoqqa, *барғанақан* ~ borgan ekan, *атамга* ~ otamga, *иэнәмгә* - onamga, *жўртәккә* ~ hazilga, *айтипнаққан* ~ aytibmikan, *кәгәммә* ~ kelganmi. Shevada *y*, *ү* lab unlilari o‘rnida *ы*, *и* lablanmagan unlilarni qo‘llash xarakterlidir. Masalan: *былтыр* ~ bultur, *быламиқ* ~ bulamiq, *шивиртки* \\\ *шивирги* ~ supurgi, *шыбақ* ~ suvoq, *ыйаққа* ~ u yoqqa, *быйаққа* ~ bu yoqqa kabi. Bu xususiyati bilan Yuqori Qashqadaryodagi 1-guruh qipchoq shevalariga birmuncha yaqinroq.

²³ Раҳимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари (Фонетика, Лексика). – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 13.

Qipchoq lahjasiga xos 2-guruh sheva vakillari viloyatning shimoliy-sharqiy qismida Sariosiyo tumanining Chimildiq, Boybo‘ri, Bakati, Konikon, Fayzovo, Oqostona, Qo‘rg‘ona, Bobotog‘, Malik, Oqmachit, Tolto‘g‘ay, Xursan, Galamulla, Qumpaykal, Jarobod, Qo‘rg‘oncha; Denov tumanidagi O‘zgarish, Oqtom, Yangiqishloq, Baxt, Shamoli, Eshako‘ldi, Zartepa, Tegirmonboshi, Chuqurqishloq, Bugajil, Saksontepa, Qarsagon, Chimovul, Boyovul, Obodon, Do‘rmon, Chorxona, Xushchekka, Qoraxon, Qizilsuv, G‘alaba, Hayrobod, Dahana, Zardaql, Xursan, Qizilsuv, Frunze; Sho‘rchi tumanidagi Ipoq, Jobi, Mo‘minqul, Qarsagon, Obshir, Kakan, Mirshodi, Dalvarzin, Obodon, Jindibuloq, Katmon, Qizilgul kabi qishloqlarida yashaydi. Bu guruh shevalarda (tanglay ohangdorligi) singarmonizm saqlangan bo‘lsa-da, ayrim o‘rinlarda buzilishi kuzatiladi: so‘z boshida **ж** o‘rnida ko‘pincha **й** ishlatilish seziladi: *жезза||йезна* ~ pochcha, *жол||йол* ~ yo‘l, *жалақ||йалақ* ~ yaloq, *жүзүм||йүзим* ~ uzum, *жип||йип* ~ ip singari; adabiy tilda **ж** bilan aytiladigan so‘zlar shevada *жун* ~ *yung* tarzida talaffuz etilishini uchratish mumkin; *эмоқ* to‘liqsiz fe‘lidan yasalgan komponentlarga singarmonizm ta‘sir etmaydi: *бэр экән* ~ bor ekan, *йэг экән* ~ yo‘q ekan, *бэрвудик* ~ borib edik, *бэрэймиш* ~ borar emish, *келэймиш* ~ kelar emish; qaratqich va tushum kelishigi hamda o‘rin-payt va jo‘nalish kelishiklari farqlanmasdan qo‘llanish holatlari uchraydi. Ushbu guruh shevalarida akademik V.V.Reshetov qayd etgan 9-10 (**и, ы, у, ү, э, о, ө, а, ә, ɔ**²⁴) unli fonema mavjudligi ta‘kidlangan. Kontrast juft unliining ma‘no farqlashi va boshqa ma‘lumotlar berilgan. **ǰ**-lovchi shevaning morfologik va leksik o‘ziga xosliklariga to‘xtalib o‘tilgan²⁵.

Hududning qarluq lahjasiga xos **j**-lovchi o‘zbek sheva vakillari viloyatning shimoliy-sharqiy tomonida, asosan, Sariosiyo tumanidagi Dashnobod, Gazarak, Xonim, Shoshqishloq, Turkqishloq, Vardisoy, Chang‘aloq qishlog‘i va Uzun posyolkasida (hozirgi Uzun tumani); Denov shahar markazi, Denov tumanidagi Vaxshivor, Ilonsoy, Mirishkor, Xo‘jasoat, Yurchi, Hazarbog‘; Boysun tumanining shimoliy qismida Kentala, Machay va janubiy-g‘arbiy tomondagi Xatak, Xo‘janqo, Laylagon; viloyatning janubiy tumanlarida Sherobod tumanining g‘arbiy qismida Maydon, Qorabog‘, janubiy-g‘arbiy tomonida Xo‘jchi, Navbog‘, Chig‘atoy; Termiz shahar markazi va uning atrofidagi Manguzar, Salovat; Qumqo‘rg‘on tumanidagi Jaloyir; Sho‘rchi tumanidagi Qorluq kabi qishloqlarda yashaydi. Bu shevada, ya‘ni viloyatning janubiy qismida

²⁴ Lotin alifbosidagi transkripsiyada quyidagi belgilar bilan ifodalanadi: i, ĭ, ü, u, o, ö, a, ä, ā, e.

²⁵ Раҳимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари (Фонетика, Лексика). – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 15.

yashaydigan aholi shevasida unlilar son jihatdan Quyi Qashqadaryo viloyat shevalari (6-7 unlili) bilan bir xil. Viloyatning shimoliy qismidagi qarluq lahjasi shevalari lingvistik belgilariga ko‘ra Samarqand-Buxoro shevalariga mushtarak va ayrim farqli belgilarga ham ega. Bu sheva unlilari **u (ʉ), y, (ʏ), ə (e), o (o), a (ə), ɔ**²⁶.

Ikki tilda so‘zlashuvchi shevalar Surxondaryoning shimoli va shimoli-g‘arbiy qismida, asosan, Sariosiyo, Toqchiyon, Buyrapo‘sh, Poshxo‘rt, Zarabog‘, Ariqusti, Poygaboshi; Boysun shahar markazida joylashgan aholi yashash manzillarida aniqlangan. Ushbu sheva vakillari “ikki tilda” ham (tojik va o‘zbek tillarida) ikki tilni aralashtirgan holda gaplashadilar, ularning talaffuzi tojik tiliga yaqindir: **u (ʉ), ə (e), y, ʏ, a, ɔ**. Bu sheva o‘ziga xos fonetik, leksik va morfologik xususiyatlari bilan atrof sheva vakillaridan farq qiladi²⁷. S.Rahimov tadqiqoti hudud shevasining o‘ziga xos dialektal xususiyatlarini atroflicha o‘rgangan ilk dialektologik tadqiqot hisoblanadi. Izlanishlar jarayonida S.Rahimov Dahana qishlog‘i shevasini **ʒ**-lovchi shevalar qatoriga yanglish kiritilganligiga amin bo‘ldik, sababi bu hududda **ʒ**-lovchilar emas, balki tojik tilli aholi va kam sonli kaltatoy, barlos hamda musobozori urug‘lari istiqomat qilishi aniqlandi. Bundan tashqari muallif ta’kidlagan **j** -lovchi shevalar hududiga Xo‘jasoat, Hazarbog‘, Yurchi qishloqlarini ham sanab o‘tadi. Bu qishloqlarda, asosan, qo‘ng‘irot va juz (yuz)lar yashashini hisobga olsak, bu hududlar ham yanglish keltirilgan. Hozirgi kunda Hazarbog‘ va Yurchi qishloqlarida tojik tilli aholi va barlos, kaltatoy urug‘ vakillari yashaydi. Qishloqda yashovchi aholi vakillari mustaqillik yillarining boshida ko‘chib kelgan.

Janubiy Surxondaryodagi qipchoq shevalari morfologiyasini o‘rgangan X.Alimurodov hudud shevasida ko‘plikni ifodalovchi *-lar* qo‘shimchasining quyidagi variantlarini bergan: *-лэр, -нэр, -эр, (-ақ, -аэ) возынэр шуйурдэн терберинэр* ~ o‘zlaring shu yerdan teraveringlar; *возынэр воқынэр* ~ o‘zlaring o‘qinglar; *бийыл йэгинэрдинг гуры бомады* ~ bu yil ekinlarning barakasi bo‘lmadi; *сизақ барынгызақ* ~ sizlar boringizlar; *боббэннэргэ айт* ~ bobonglarga ayt²⁸. X.Alimurodovning keltirgan *-ақ, -ау* qo‘shimchalari haqida prof. S.Ashirboyev quyidagicha mulohaza bildirgan. Til tarixida ko‘plikning **-t, -z, -q//k** affikslari bilan ifodalangan shakllari mavjud bo‘lgan. Ularning qoldiqlari, ya’ni **-q**

²⁶ Раҳимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари (Фонетика, Лексика). – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 20.

²⁷ Раҳимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари (Фонетика, Лексика). – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 24.

²⁸ Алимуродов Х. Морфология узбекских кипчакских говоров низовья Сурхандарьи (имя и глагола): Дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1982. – С. 22-24.

affiksining **-aq** varianti Surxondaryoning Jarqo‘rg‘on, Termiz, Sherobod tumanlarida yashovchi qo‘ng‘irotlar shevalarining ayrim so‘zlarida saqlanib qolmoqda. Ular, asosan, olmosh va fe‘l shakllarida uchraydi: Sizlar borib keldingizlarmi ~ *sīzaq barīp kedīñīzaqmī?* O‘zingizlar ~ *voziñīzaq*. Bu affiks faqat orqa qator variantli bo‘lib, ko‘plik ma’nosini eslatib tursa-da, ushbu o‘rinlarda mavjud ko‘plikni ta’kidlashga xizmat qilgan²⁹. Denov shevalarini o‘rganish davomida bu shaklni uchratmadik.

Surxondaryo viloyati shevalari haqida Do‘stmurod Abdurahmonov “Qorluqlar va ularning tili” nomli maqolasida qarluq shevasining muhim xususiyatlarini bayon qilib, shevalarda fonemalar soni **бта (ə, e, ə, ь, θ (o), y)** ekanligi haqida ma’lumot bergan. So‘zning birinchi va ikkinchi bo‘g‘inida **ə-ə** modelida tarqalgan deb *səmən* ~ somon, *jəmən* ~ yomon, *bərot* ~ borot, *əvlədməz* ~ avlodimiz, *qəlləyde* ~ qallig‘di, *məzər* ~ mozori kabi misollarni keltiradi. Bu tovushlarning so‘z bo‘g‘inlarda shu tarzda tarqalishi Parkent, Piskent shevalarida, Jizzax, G‘arbiy Samarqand (Samarqand, Urgut, Kattaqo‘rg‘on, Yangiqo‘rg‘on, Paxtakor, Payshanba, Qarnob) shevalarida, Buxoro, Qarshi, Beshkent, Shahrisabz, Kitob shevalarida, Surxondaryo **j(й)**-lovchi (qorluq) shevalarida, Tojikistondagi o‘zbek shevalari, Afg‘onistondagi **j(й)**-lovchi shevalarda qayd etilganligini ko‘rsatadi. Maqola muallifi **j(й)**-lovchi shevaning morfologiyasi haqida ham ma’lumot beradi³⁰.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, S.Rahimov Surxondaryo shevalarini o‘rganish asosini yaratib, hududda yashovchi sheva vakillari haqida asosli ma’lumotlarni bergan. Biz o‘rganayotgan Denov tuman shevalari ana shu tadqiqotning bir bo‘lagi bo‘lib xizmat qiladi. Denov shevasiga S.Rahimov tasnifidagi barcha shevalar kiradi. Shu bois ham Denov shevalari areal jihatdan biroz murakkab dialektal zona hisoblanadi. Tumanda qarluq, kaltatoy, barlos, musabozori, turk, kichik kaltatoy, jaloyir, no‘g‘ay, juz (yuz), qo‘ng‘irot, nayman, do‘rman, kal, pirsayz, chelaki, ochamayli, kenagas, merket, beshtentak, sherbachcha, xo‘ja, toqchi, aymog‘ va tojik tilli (tojik tilining ham 2 xil shevasi farqlanadi³¹) aholi yashaydi va ularning o‘zaro bir-biriga ta’siri bor. Denov tumani hududida tojik tilli aholi istiqomat qiladigan Dahana, Sina, Ko‘kabuloq qishloqlari ularga qo‘shni yashaydigan qarluq lahjasi vakillari istiqomat qiladigan

²⁹ Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 48.

³⁰ Абдурахмонов Д. Қорлуқлар ва уларнинг тили // Ўзбек тили ва адабиёти, 1987. – № 3. – Б. 31.

³¹ Kuyovsi va Sina qishloq aholisi tojik tilli bo‘lib, ko‘chib kelgan hududiga qarab shevasi ham farqlanadi.

Oybarak, O‘shor, aralash yashaydigan Pojur, Sohibkor qishloqlariga ta‘siri yuqori ekanligi aniqlandi. Qo‘ybesh, Cho‘ntosh, Qoraxon, Qizilfarg‘ona, Yurchi, Hazarbog‘ qishloqlarida yashovchi oz sonli qipchoq lahjasi vakillari esa yondosh qarluq lahjasi ta‘siriga uchragan. Ayrim hududlarda ikki tillilik vujudga kelgan, bu ta‘sirni Denov shahar shevasiga taalluqli deb bo‘lmaydi. Denov shahar shevasiga adabiy tilning ta‘siri hamda iqtisodiy muhim nuqta bo‘lganligi bois, shahar shevasi qishloq shevalaridan farq qiladi. Hududda qarluq shevasi tojik tili va qipchoq shevasiga nisbatan dominantlik qiladi. Biz Denov areali qarluq shevalarini Samarqand-Buxoro guruhiga kiritishni ma‘qul topdik.

Denov qarluqlari shevasining xarakterli xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi.

Fonetik xususiyatlari: unlilar soni 6-7tani tashkil qiladi.

Orqa qator **a** unlisi Oybarak, Cho‘ntosh, Qoraxon qishloq shevalarida **q, γ, x** undoshlari bilan keladi. Masalan: sandiq ~ *sandiy*, qo‘ng‘ir ~ *talyir*, qatiq ~ *qatiy*, xarduri ~ *xarduri*, chiroq ~ *čiray*;

ā unlisi tojik tili ta‘siri yuqori bo‘lgan Pojir, Sina, Dahana, Mehnatobod qishloqlarida boshqa shahar shevalaridan farqli ravishda **o** unlisiga moyil talaffuz qilinadi: mo‘ylov ~ *mojlov*, tovoq ~ *tavoy*, bozor ~ *bāzor*;

ikkinchi bo‘g‘inda **i** tovushi **u** ga o‘tadi: o‘tin ~ *otun*, ko‘rdingmi ~ *kordunmi* bunday o‘zgarish ham tojik tili ta‘siri yuqori bo‘lgan qishloqlarda uchraydi;

j, h undoshlaridan oldin adabiy tildagi **u** unlisi **o** ga o‘tadi: uyqu ~ *ojqi*, suhbat ~ *sohbät*³²;

l undoshi bilan tugagan so‘zlarga **d** tovushi bilan tugagan qo‘shimcha qo‘shilganda progressiv assimilatsiya yuz beradi: qildi ~ *qilli*, qoldi ~ *qālli*, bo‘ldi ~ *bolli*, aldab ~ *älläp*;

so‘z oxirida **q** ~ **γ** ga, **γ** ~ **v** ga almashadi sandiq ~ *sandiy*, tog‘ ~ *tāv*, uloq ~ *ilāy*;

so‘z oxirida **k** ~ **j** almashinishi yuz beradi: terak ~ *teräj*, inak ~ *inäj*, kerak ~ *keräj*;

Cho‘ntosh, Qizilfarg‘ona, Qoraxon, Oqlar, Qiziljar qishloqlarida diftong-lashish kuzatiladi: ikki ~ *jeke*, ellik ~ *jelli(j)*, endi ~ *jenni*.

Morfologik xususiyatlari:

Ko‘plik qo‘shimchasining *-lär, -lä, -älä -ä, -nä* variantlari qo‘llanadi: bolalar ~ *bäčälä*, bordinglarmi ~ *bärdijnärmi*, bizlar ~ *bizä*, kimlar ~ *kimlär*, qudalar ~ *qidälär*;

³² Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 88.

-älä qo‘shimchasi qarindoshlik terminlariga qo‘shilib hurmat ma‘nosini beradi, jamlik ma‘nosi sezilmaydi. *Dädäñälä ujugämi(lä)?, mämänälä keldilämi?, ukänälä qergä ketti(lä)?*

Kelishiklar soni 4-5ta bo‘lib tushum kelishigi ko‘rsatkichi **-ni** qaratqich kelishigi o‘rnida ham qo‘llanadi.

O‘rin-payt kelishigi ko‘rsatkichi **-dä** ning o‘rnida jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi **-gä** faol qo‘llanadi: uyda ~ *ujgä*, kitobda ~ *kitäpgä*, balandda ~ *bälängä*.

Hozirgi zamon davom fe‘li **-äp** qo‘shimchasi bilan kelyapman ~ *keläppän* (*kelämmän* shakli ham bor), boryapti ~ *bäräpti* shaklida qo‘llanadi;

O‘tgan zamon hikoya fe‘lida **-ar/är** qo‘shimchasi tarkibidagi **r ~ j** ga o‘zgaradi kelar edi ~ *keläjdi*, qilar ekan ~ *qilajkän*. Bo‘lishsizlik shaklini ifodalovchi **-mä**s qo‘shimchasidagi **s** o‘rnida **r** tovushi qo‘llanadi: bormas ekan ~ *bärmärkän*, qilmas ekan ~ *qimarkän*, aytmas edi ~ *äjtmärdi* (*O‘shor, Sohibkor*). Qadimgi **-mär** shaklining qo‘llanishi Janubiy Qozog‘iston, Mankent, Sayram, Janubiy Tojikistondagi o‘zbek-qarluq hamda Toshkent viloyatidagi ba‘zi o‘zbek shevalarida ham kuzatiladi³³. Masalan: bormas ekan ~ *bärmärkän*, kelmas ekan ~ *kelmärvuz*. Bu shakl Denov qarluq guruh shevasida I shaxsda to‘liqsiz fe‘llar bilan qo‘llanadi, to‘g‘ridan to‘g‘ri **-män** shaxs-son qo‘shimchasini qabul qilmaydi: *bärmärmän* ko‘rinishida qo‘llanmaydi. Shaxs-son qo‘shimchasi qabul qilganda **-mäj** shakliga o‘zgaradi.

Leksik xususiyatlari: ävä ~ otaning aka-ukasi (*O‘shor, Cho‘ntosh, Sohibkor qishlog‘i O‘shor ko‘cha*), *ävä* (*Oybarak, Qizilfarg‘ona, Sohibkor qishlog‘i Oybarak ko‘cha*), arg‘amchi ~ *aryamči//čilvir//älqač* (o‘tin yoki o‘tlarni eshakka ortish, arqon), masxara ~ *häžm*, deraza ~ *tirzä, äjnä*, qo‘lqop ~ *qolžilāp*, paypoq ~ *žilāp* (naski), sigir ~ *inäj(k)/mol*, ho‘kiz ~ *živänä*, sopol turba ~ *bulul*³⁴, echkini bolasi ~ *čivič, tuvučä*, yanchib olingan toza bug‘doy ~ *mäj*, bug‘doy, zig‘ir yanchish jarayoni ~ *gälägāv*, arava ~ *čiyana* (lalmi yerdan bug‘doy tashish uchun foydalaniladi), vaqt ~ *pillä/pällä* (*u pillä ädäm kämidi*), ayron ~ *čälāp*, achchiq-chuchuk (salat) ~ *šäkärāp*, chaqqon ~ *äbžir*, ezma ~ *mižiy* qo‘ng‘ir ~ *talyir*, daryo ~ *däjrä*, qurtovoq ~ *qurtävāq*³⁵, rayhon ~ *nāzvig*, tor yo‘l, jarlik ~ *serkita*, yomg‘ir ~ *hävä*,

³³ Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 181.

³⁴ XIII-XIV asrlarga taalluqli sopol quvur.

³⁵ Ovqat turi: chakki qatiqni qaynoq suvda chalobday suyuq qilib ichiga patir, gashnich, nozvig (rayhon), sariyog‘ qo‘shib tayyorlanadi.

oʻrgimchak ~ *tārtānāj(k)*, qatiq uyitish uchun ishlatadigan qoʻshimcha ~ *āxliq*, yaxshi bola ~ *tuzij bālā*, burchagi ~ *qiryāyi*, siqilma ~ *mudyām bomā*.

1.2. Qarluq shevalarining tovushlar tizimi

Surxon vohasi etnik tarkibini tashkil qiluvchi oʻtroq aholi miloddan avvalgi IV-V asrlardagi Xolchayon va Dalvarzintepa hududlarida istiqomat qilganliklari aniqlangan³⁶. Miloddan avvalgi II-I asrlarda bu hududda baqtriyaliklar, sugʻdiyalar yashagan, dehqonchilik va chorvachilik bilan shugʻullangan. Kushonlar davrida Rim tarixchisi Yustin (mil.avv. II-III asr), Pompey Troglarning (mil.avv. I asr) maʼlumotiga koʻra, bu hududda assiylar (assianlar), passianlar, toharlar, sakaroukalar, eftalitlar (IV-VI asrlarda) yashaganlar³⁷. VI-VIII asrlarda surxon vohasi hududiga qarluq, xalach, chigil qabilalari kelib oʻrnashgan. Tohariston qarluq yabgʻulari qoʻlida boʻlgan³⁸. VIII asrning oxiridan X asr oxirigacha boʻlgan davr ichida Ile daryosidan Sirdaryogacha va hozirgi Chimkent shahridan Sharqiy Turkistondagi Torim daryosigacha boʻlgan oʻlkada yashagan barcha qabilalar qarluqlar hukmronligi ostida boʻlgan. Shu 150 yil ichida qarluqlar tarkibida boʻlgan qabilalarning tilida katta oʻzgarishlar boʻlgan. Qarluqlar tili bu qabila va qabila birlashmalarining yaqinlashuvi ortidan shu hududda yashovchi xalqlar uchun umumiy bir til boʻlib qolgan. Bunda qarluqlar va ularga qardosh chigillarning roli ham katta boʻlib, boshqa turkiy qabilalarning dialektlarini birlashtirgan³⁹. IX-X asrda Janubiy Chagʻoniyonga (hozirgi Denov va Qumqoʻrgʻon) koʻchib kelgan arablar mahalliy tojik va turkiy qabilalarga singib ketgan, keyingi davrda ularning tili ham joylashgan hududiga qarab oʻzbek shevalari yoki tojik tiliga almashgan. X-XII asrlarda argʻin koʻchmanchi turkiy qabilalari kelib oʻtroqlashgan⁴⁰. Surxondaryo viloyatining Sariosiyo, Denov, Qumqoʻrgʻon, Shoʻrchi, Uzun, Oltinsoy, Jarqoʻrgʻon, Boysun, Sherobod va Termiz shahrida qarluq, arab va tojik tilli aholi vakillari hozir ham istiqomat qilishi kuzatish va tekshirish jarayonida aniqlandi.

Denov tumanining tarixiga toʻxtaladigan boʻlsak, Denov tarixan yirik savdo va hunarmandchilik qishlogʻi oʻrnida barpo etilgan shahar boʻlib,

³⁶ Пугаченкова Г.А. Халчаян (к проблеме художественной культуры Северной Бактрии). – Ташкент: Фан, 1966. – С. 117.

³⁷ Пугаченкова А., Ртвеладзе Э.В. Северная Бактрия – Тохаристан // Очерки истории и культуры. – Тошкент: Фан, 1990. – С. 15.

³⁸ Шониёзов К. Қарлуқлар давлати ва қарлуқлар. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 34.

³⁹ Шониёзов К. Қарлуқлар давлати ва қарлуқлар. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 101.

⁴⁰ Шониёзов К. Қарлуқлар давлати ва қарлуқлар. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 101.

yozma manbalarda XIV asr oxirlaridan “Dehi nav – yangi qishloq” mazmunida tilga olingan. Mahmud ibn Vali (XVII asr) ning yozishicha, “Dehinav ajoyib bozori, katta masjidi va xonaqosi bo‘lgan mustahkam qal’a shahar” degan ma’noni anglatgan⁴¹. Denovning qadimgi nomi Chag‘oniyon bo‘lib hozirgi Denov tumani o‘rnida bo‘lgan. Arxeologik topilmalarga ko‘ra, Chag‘oniyon shahri hozirgi Denov shahridan 6 km janubi-sharqda joylashgan Budroch manzilgohi o‘rniga to‘g‘ri keladi (shuningdek boshqa nomi Budrochtepa⁴²). Denovning hozirgi o‘rnida miloddan avvalgi ikki ming yilliklar oxirlarida aholi manzilgohlari bo‘lgan. Ilk va o‘rta asrlarda ham shahar hududidagi ushbu manzilda aholi nisbatan gavjum yashagan. Mo‘g‘ullar istilosidan keyin XV-XVI asrlarda Chag‘oniyon-Bedrach shahri mavqei pasayib ketgach, temuriylar davriga kelib yana Dehinav asosiy markazlardan biriga aylangan. Arxeologik topilmalar Denov qal’asi XV asrga oidligini, hamda uning mustahkam qo‘rg‘on bo‘lganligini tasdiqlaydi. Denov qal’asi murakkab me’moriy obida bo‘lib, chor atrofida xandaqlar joylashgan. Qal’aning diametri 110 metrni tashkil etgan va qalin devor bilan o‘ralgan. Denov XVII-XVIII asrlarda Buxoro Xonligi tarkibidagi alohida beklik bo‘lib, karvon savdosi markazlaridan biri bo‘lgan. Shaharda hunarmandchilikning yuzdan ziyod turi, asosan, ko‘n-charm tayyorlash, etikdo‘zlik, to‘quvchilik, zardo‘zlik, qandolatchilik, o‘yinchoqsozlik va shunga o‘xshash bir necha turlari rivojlangan. Hozirgi kunda viloyat aholisining ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojini qondiradigan, savdo aloqalari va qulay infratuzilmaga ega shahar hisoblanadi. Denov tumanida 98ta mahalla mavjud bo‘lib aholisi soni 424386 nafarni tashkil qiladi⁴³, shundan 153203 nafari 18 yoshgacha bo‘lgan yoshlarni tashkil qiladi. Tumanda 101ta maktab, shundan 93ta o‘zbek maktablari, 11ta o‘zbek-tojik maktablari, 1ta o‘zbek-rus maktabi. Hududda 308ta bog‘cha bor. Aholisi tarkibini asosan o‘zbeklar 75% (310386 nafar), tojiklar 20% (85-90000 nafar), turkman, qozoq, rus, koreys, belorus va boshqa millat vakillari 5% ni tashkil qiladi. Denov tumani janubdan Oltinsoy va Sho‘rchi tumanlari, shimoldan Uzun va Sariosiyo tumanlari bilan chegaradosh hisoblanadi. Sharqda Bobotog‘, G‘arbdan Boysuntog‘ tizmalari bilan o‘ralgan.

Biz Denov shevalarini o‘rganishda S.Rahimov tasnifini asos qilib oldik, Denov j-lovchi o‘zbek shevasi vakillari Denov shahar, Denov tumanining Cho‘ntosh, Qoraxon, O‘shor, Oybarak, Sohibkor, Yangiobod, Sanoatchilik, Nurli Manzil, Z.M.Bobur, Bahoriston, Ibn Sino, Bog‘inav,

⁴¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Denov>

⁴² <https://uz.wikipedia.org/wiki/Budrochtepa>

⁴³ <https://diyor24.uz/34692//>; https://t.me/surxonstat_uz

Guliston, Quyoshli Yurt, Istiqbol, Mehr-oqibat, Qizilfarg‘ona, Oqlar, O‘zbekiston, Yurchi qishloqlarida istiqomat qilishadi. Denov shevasining tovushlar tizimi haqida to‘xtalsak. Tovushlar tizimini yoritishda Dialektolog Sh.Shoabdurahmonov, S.Rahimov, A.Mamatqulovlar yo‘nalishidan bordik.

Denov qarluq shevalarida unlilar soni 6-7ta: *a, ä, ā, i, u, o, e*.

a fonemasi – orqa qator, quyi-keng, lablanmagan unli. Qarluq shevalarida umumturkiy **a** va shahar shevalariga xos **ā** unlilarining baravar mavjudligi Farg‘ona vodiysi qarluq shevalarida ularning qo‘llanishi haqida adabiyotlarda ma‘lumotlar bor va bu shevalarda fonemaning ko‘pincha *q, x, g* undoshlaridan so‘ng qo‘llanilishiga e‘tibor berilgan⁴⁴. Bu fonema asosan Qo‘ybesh, Cho‘ntosh, Qizilfarg‘ona, Oybarak, Qoraxon qishloq shevalarida qo‘llanadi va shuning uchun ham bu shevalar 7 unlili hisoblanadi.

so‘z boshida: *u yoq ~ aq//ay, adog‘i (oxiri) ~ adāyi, achchiq ~ aččiy;*

so‘z o‘rtasida: *yuqori ~ jaqāri, daraxt ~ darax, bu yer ~ bay, shu yer ~ šay, To‘lg‘onoy ~ Tolyanaj, tomoq ~ tamāy, qozon ~ qazān, orqalab ~ arqalap, dastali piyola (bokal) ~ haqqul, qo‘ng‘ir ~ talvir;*

so‘z oxirida: *bu yoqqa ~ baqa, u yoqqa ~ aqa, shu yoqqa ~ šaqa, arava ~ čiyana, g‘avza ~ yavza (o‘roq o‘rganda qo‘l bilan ushlangan bug‘doy to‘dasi), g‘ara ~ yara (bog‘lash uchun to‘plangan bug‘doy);*

Tovush mosliklari:

a ~ e mosligi: *boraber ~ bārevvor//bārejvor, qo‘yaber ~ qojevor, qilaber ~ qilevor, olaber ~ ālevor.*

ä fonemasi – old qator, quyi keng, lablanmagan unli. Shevada **ä** fonemasi barcha bo‘g‘inlarda keladi. Bu unli barcha o‘zbek shevalarida uchraydi. **j**-lovchi o‘zbek shevalaridan Toshkent (*kāttä, ākälärigä*), Namangan (*äxäläsi, ägär*), Marg‘ilon shevalarida – *käsäl, kāttä, mämläkät, sävzi (Xorazm. gäšir); Qorabuloq. šärgä, čäjnäk, kaksälärimiz, dārräv kabi.* S.Ibrohimov A.Borovkov va V.Reshetovlar bu unlini rus tilidagi **a-ə** unlilari oralig‘idagi tovush deb ta‘riflagan fikrlarini keltiradi⁴⁵. **ä** bilan tugagan ochiq bo‘g‘inli fe‘l o‘zak va negizlariga *lab-tish v* qo‘shib ot yasaganda **ä** unlilari **ā** ga o‘zgaradi: *qiyna ~ qijnāv, sayla ~ säjlāv, o‘yla ~ ojlāv* kabi. Ba‘zi so‘zlarda **ä ~ e** mosligi yuz beradi *yanga ~ jeñä, masjid ~ mečit.*

so‘z boshida: *aka ~ äkä, ayt ~ äjt, art (tozala) ~ ärt; avlod ~ ävläd,*

so‘z o‘rtasida: *dam ~ däm, kal ~ käl, badan ~ bädän, kesak ~ kesäk//käsäk, kemtik ~ kämtik, chekkadan ~ čäkkädän;*

⁴⁴ Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1962. – Б. 126.

⁴⁵ Иброҳимов С. Ўзбек тилининг Андижон шеvasи. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 37.

soʻz oxirida: makkajoʻxori ~ *mäkkä*, yakka ~ *jäkkä*, oʻzlariga ~ *ozlärigä*, yigirma ~ *igirmä*, menga ~ *mänä*.

e fonemasi – old qator, oʻrta-keng, lablanmagan unli. Barcha oʻzbek shevalarida qoʻllanadi.

soʻz boshida: ehtimol ~ *ejtimäl*, echki ~ *ečki*, elak ~ *eläk//eläj*, eslab ~ *esläb(p)*, ikki ~ *ekki*, eski ~ *eski*, ehtiyot ~ *ejtijät*, eplab ~ *evläp*;

soʻz oʻrtasida: *belkurak* ~ *bel* (lapatka), tepki ~ *teпки* (*kasallik turi*), tegirmon ~ *tejirmän*.

Choʻntosh, Oybarik va Qizilfargʻona qishloq shevalarida kishilik olmoshlari va ayrim soʻzlarda *e* ~ *ä* mosligi kuzatiladi: men ~ *män*, sen ~ *sän*, kemtik ~ *kämtik*, kemirish ~ *kämiriš*, menga ~ *mänä*, senga ~ *sänä*, chekkadan yur ~ *čäkkädän jur*, chekish ~ *čäkiš*, *velosiped* ~ *väläspid*;

e ~ *ä* mosligi: *egat* ~ *ägät*, *bor ekan* ~ *bäräkän*;

e ~ *i* mosligi: *devona* ~ *divänä*, *devor* ~ *diväl // di(u)vär*, *pechenye* ~ *pičinä*, *eshak* ~ *išäk*, *paket* ~ *päkit*, *tegirmon* ~ *tijirmän*;

edi, emas toʻliqsiz feʻllarida *e* tovushi tushib qoladi: bormas edi ~ *bärmärđi*, kelmas edi ~ *kelmäđi*, kelgan emas ~ *kelgänmäs*, boʻlgan emas ~ *bolgänmas* bu xususiyati bilan Toshkent-Namangan shevalariga oʻxshab ketadi⁴⁶.

i fonemasi – old qator, yuqori-tor, lablanmagan unli. Barcha shahar shevalarida bor, Denov qarluq shevalarida soʻzning istalgan boʻgʻinida kela oladi. Fonema tarixiy shakllanish jarayonida *i* va *ï* unlilarining konvergensiya natijasida shakllangan: *tiš*, *dil*, *silä*, *ginä*, *kinnä*⁴⁷.

soʻz boshida: *ilonsoy* ~ *ilänsäj*, *ilgari* ~ *ilgäri*, *isiriq* ~ *ispän* (*isiriq*), *yiqli* ~ *iqilli*, *yilqi* ~ *ilqi*, *yigirma* ~ *igirmä*, *yiqlib qolgan* ~ *iqilip qägän*, *issiq* ~ *issiy*;

soʻz oʻrtasida: oʻtiribman ~ *otirimmän*, doʻkonchi ~ *mudir*, bir vaqt ~ *bir čiqät*, bilan ~ *minän*, jahliga ~ *žiyigä* (*Oʻshor*), ertaroq ~ *ertäči* (*Sohibkor*);

soʻz oxirida: boʻldi ~ *bolli*, qildi ~ *qilli*, kelyapti ~ *keläpti*, choʻyanchi ~ *čojänči*, tavoq ~ *läli*, Rabot Ali ~ *rävätäli*;

Tovush mosligi:

i ~ *u* mosligi: *dimoq* ~ *dumäy* (*Oʻshor*), *chirik* ~ *čurik*⁴⁸, *xotin* ~ *xätun* (*Pojir*).

⁴⁶ Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 66.

⁴⁷ Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1962. – Б. 100.

⁴⁸ Iqon shevasida bu soʻz *čü:rik* shaklida uchraydi. Qarang: Xidraliyeva Z. Oʻzbek tilining Iqon shevasi: Filol.fan. boʻyicha falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent, 2023. – B. 14.

ā fonemasi – orqa qator, quyi-keng, qisman lablangan unli, shahar va shahar tipidagi shevalarda keng uchraydi. Qipchoq guruh shevalarining adabiy til, tojik tili va qarluq tip shevalar ta'siri bor hududlarida ko'proq kuzatiladi. O'rganilayotgan hudud shevasining Oybarak, Qizil Farg'ona, Cho'yanchi, Cho'ntosh, Qoraxon qishloqlarida bu unli kam qo'llanadi. So'zning barcha bo'g'inlarida qo'llanadi. Bu unlining o'zbek tilida paydo bo'lishini Y.D.Polivanov tashqi, ya'ni eroniy tillar ta'siriga bog'laydi⁴⁹. S.Rahimov tadqiqot ishida A.K.Borovkov va V.V.Reshetovlarning *ā* fonemasi haqidagi fikrlarini keltirib o'tadi, jumladan, A.K.Borovkov o'zbek tilida *ā* ning taraqqiyoti uchun tilning ichki taraqqiyot qonunlariga muvofiq sharoit mavjudligini qayd etib, har qanday holda *ā* unlisining taraqqiyoti lablab *v* hamda o'zbek tilining Toshkent shevasi uchun xarakterli bo'lgan chuqur til orqa *q, γ* tovushlarining ta'siri bilan bog'laydi; V.V.Reshetov esa umumturkiy orqa qator *a* ning o'rnida *ā* fonemasining paydo bo'lishi shartli ravishda uning pozitsiyasiga bog'liq, ehtimol faktorning ishtiroki ham bo'lsa kerak deydi⁵⁰.

A.Rustamov *ā* fonemasi haqida eski o'zbek manbalarida XV asr adabiy tilida tojik tilidan o'zlashgan so'zlar tufayli ba'zi turkiy so'zlarda *a* ning *ā* ga siljishini ko'ramiz, degan fikrni aytadi⁵¹. S.Rahimov *j*-lovchi shevalarda va ikki tilda so'zlashuvchi shevalarda *ā* unlisi so'zning barcha bo'g'inlarida kela olishini quyidagi misollar bilan izohlaydi: *ЙЛ. СЭМЭН, ИК. Т. САМЭН; ЙЛ. ЭМЭН, ИК.Т. АМЭН*⁵².

so'z boshida: *ot ~ āt, omoch ~ āmāch (O'shor), opa ~ āpā, amaki ~ āva (āvā), og'il-otash ~ āyil-ātāš (O'shor), yiqilib ~ ādālip (Sohibkor);*

so'z o'rtasida: *tomon ~ tāmān, yomon ~ jāmān, oson ~ āsān, osmon ~ āsmān, xayolimga ~ xijālimgā;*

so'z oxirida: *holva ~ hālvā, daryo ~ dājrā, peshvo ~ pešvā;*

ā ~ ä, a mosligi: *qorin ~ qarīn, novot ~ nāvāt, holva ~ hālvā (O'shor), chopon ~ čāpān, odam ~ ādām (Qo'ybesh), bola ~ bālā (Cho'ntosh), yantoq ~ jantaq (Qoraxon);*

tarkibida *ā* mavjud bo'lgan oxiri ochiq bo'g'in bilan tugagan so'zlarga affiks qo'shib fe'l yasalganda *ā* unlisi *a* yoki *ä* ga o'zgaradi: *son ~ sänü, ong ~ äñlä, yosh ~ jäšä* kabi.

⁴⁹ Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 33.

⁵⁰ Раҳимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари (Фонетика, Лексика). – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 30.

⁵¹ Рустамов А. XV аср ўзбек адабий тилининг вокализми // Ўзбек тили ва адабиёти, 1963. – № 6. – Б. 67.

⁵² Раҳимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари (Фонетика, Лексика). – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 37.

o fonemasi. Orqa qator, oʻrta-keng, lablangan unlini ifodalaydi. Barcha oʻzbek shevalari talaffuzida bor. S.Rahimov, shahar shevalarida **o** unlisining shahar tipidagi shevalar uchun xos boʻlgan indefferent **oʻ** unlisiga oʻxshashi, moyilligini qayd etadi. **o** unlisining kontrast jufti yoʻq, chunki **o** ning til oldi **y** ga tomon siljishi **o>ÿ>ÿ** ga olib kelgan. Surxondaryo **j**-lovchilar shevalarida **o** ning kontrast jufti **o** mustaqil fonema boʻlmay, balki pozitsion variantdir: *öläqäläj Muji: dinžān, möhriņni bās, köjdirmä, köldä*⁵³.

soʻz boshida: oʻt ~ *ot*, oʻrdak ~ *ordäj*, oʻrik ~ *orig(j)*, oʻchoq ~ *oĉāy*, oʻroq ~ *orāy*, oʻrtoq ~ *ortāy*, oʻtlab ~ *ollāb*, uylantiraman ~ *ojlāntirāmān*;

soʻz oʻrtasida: koʻz ~ *koz*, qoʻngʻirot ~ *qonyirāt*, boʻlgan ~ *bogān*, choʻpon ~ *ĉopān*;

soʻz oxirida: obroʻ ~ *ābro*, roʻpara ~ *ropāro*, voy boʻ ~ *vājbo*;

Tovush mosliklari:

o ~ **u** mosligi: koʻz ~ *kuz*, yoʻq ~ *juq*, oʻlik ~ *ulik* (*Oybarak*).

u fonemasi – orqa qator, yuqori-tor, lablangan unli. **j**-lovchi shevalarda barcha boʻgʻinlarda kela oladi. uch ~ *uĉ*, uzoq ~ *uzāy*, buyruq ~ *bujriy* // *bujruy*, sandiq ~ *sāndu*;

soʻz boshida: uch ~ *uĉ*, uzoq ~ *uzāy*, oʻgʻil ~ *oġil* // *ul* (*Qoraxon*), uzum ~ *uzim*, umid ~ *umit*, oʻtin ~ *utin* (*Oybarak*);

soʻz oʻrtasida: Qulqogʻ ~ *Qulqāy*, tusoq ~ *tus^zāy*, echki bolasi ~ *tuviĉä*, ulush ~ *uluš*, buyruq ~ *bujriy* // *bujruy*, Kofirun⁵⁴ ~ *Kāpirun*, Pasturxon⁵⁵ ~ *Pasturxān*, *duldur* ~ *duldur*;

soʻz oxirida: uyqu ~ *ujqu* // *ujqi*, ushbu ~ *ušbu*, qaygʻu ~ *qajyu*, tuygʻu ~ *tujyu*;

Tovush mosliklari:

u ~ **a** mosligi: yuqori ~ *jaqqāri*;

u ~ **i** mosligi: ulush ~ *uliš*, buyruq ~ *bujriy*, uyqu ~ *ujqi*, maʼlum ~ *mālim*, bultur ~ *biltir*, tuyoq ~ *tijāq*, gugurt ~ *gugirt(gu:rt)*, tuxum ~ *tuxim*, yulduz ~ *juldiz*, qunduz ~ *qundiz*, tuproq ~ *tirpāy/tiprāy*, buloq ~ *bi(u)lāy*, chumchuq ~ *ĉumĉiy*, bugʻu ~ *buġi*;

u ~ **o** mosligi: tuproq ~ *toprāy*, dutor ~ *dotār*, dushman ~ *došmān*.

Denov qarluq shevalarida undoshlar tizimi adabiy tildan deyarli farq qilmaydi. Shevalardagi sof turkiy soʻzlarda **b, d, g, h, j, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, z, γ, š, ĉ, ž, η** undoshlari mavjud. Oʻzbek shevalarida boʻlganidek, oʻrganilayotgan hudud shevasida ham bu undosh fonemalari ikki pogʻonada

⁵³ Раҳимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари (Фонетика, Лексика). – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 37.

⁵⁴ Sariosiyo tumanidagi qishloq nomi.

⁵⁵ Sariosiyo tumanidagi qishloq nomi.

qo‘llanadi, ya‘ni palatal va vel(y)ar. Bunda old qator unlilar qurshovida undoshlar palatal (yumshoq), orqa qator unlilar qurshovida vel(y)ar (qattiq) tus oladi⁵⁶. Masalan: *tep* so‘zida old qator **e** tovushining ta‘sirida palatal tovushga o‘tadi, *tāp* so‘zida esa bu qurshov orqa qator **ā** tovushining ta‘sirida velyar xususiyatga ega bo‘ladi. Lab-lab **f** undoshi yoshlar nutqida o‘zlashgan so‘zlarda va ba‘zi undovlarda uchraydi, bo‘g‘iz tovushi **h** Denov qarluq shevalarida bir muncha mustaqil tovush hisoblanib o‘rganilayotgan hudud shevasida talaffuzda bor.

b undoshi. Lab-lab, portlovchi, jarangli tovush bo‘lib so‘z boshida, o‘rtasida, oxirida (birinchi, ikkinchi bo‘g‘inda kela oladi). Bu tovush so‘z oxirida jarangsiz **p** tovushidan farqlanmaydi⁵⁷.

So‘zning (boshida ham bor) oxirida **p** talaffuz qilinadi: bichmoq ~ *pichmāq*, bitkazib ~ *pitkāzib*, kitob ~ *kitāp*, olib ~ *āp*, qilib ~ *qip*, kelib ~ *kep*, sotib ~ *sātip//sātip*, qaynab ~ *qajnap*, bitkazib ~ *bitkārip*, tugatib ~ *tugātip*.

b ~ **v** mosligi: lab ~ *lāv*, qurbonlik ~ *qurvānlik*, belbāy ~ *belvoy*, usti bosh ~ *usti vāš*, ichib oldi ~ *ičvāldi*, yozib oldi ~ *jāzvāldi*, yeb oldi ~ *jevāldi*, qilgan edi ~ *qiluvdi*, otib yubordi ~ *ātvārdi*, tebrat ~ *tervāt (metateza)*, mo‘ylov ~ *mojlāv*.

b ~ **m** mosligi; buni ~ *muni*, bilan ~ *minān*, bunday ~ *mindāj//mindoj (Qizilfarg‘ona)*, laqab ~ *laqam*, bunda ~ *mundā*, shanba ~ *šāmi*, buyum ~ *mujim*.

b ~ **p** mosligi: ko‘p balo, bir qancha ~ *koppālā*, olib bor ~ *āppār*, qilib ber *qiber* ~ *qip ber*.

Ba‘zi so‘zlarda **b** tovushi tushib qoladi: do‘mbira ~ *domirā*, olib bordi ~ *ālibārdi* < *ābārdi*, olib berdi ~ *āliberdi* < *āberdi*.

Ko‘rsatish olmoshi **bu** olmoshi kelishiklar bilan qo‘llanganda **b** ~ **m** tarzida fonetik o‘zgarishga uchraydi: bunga ~ *muṅā*, bunday ~ *mundāj*.

p undoshi. Lab-lab, portlovchi, jarangsiz tovush bo‘lib, so‘zning istalgan bo‘g‘inida kela oladi. Masalan: pul ~ *pil*, pisand ~ *pisān*, pista ~ *pistā*, sep ~ *sep*, xashak ~ *pičān*, ozroq ~ *piči*, pashsha ~ *pāššā*, paxta ~ *paxta*.

p ~ **v** mosligi. So‘z o‘rtasi va oxirida unlilardan oldin **v** tovushiga almashadi: *tep* ~ *tev*, chop ~ *čov*;

p ~ **b** mosligi. Ba‘zan ikki, uch bo‘g‘inli so‘zlarning o‘rtasida **b** tovushiga almashadi: kepak ~ *kebäg*, ko‘pak ~ *kobäg*, tepa ~ *tebā//töbā*, ko‘p ~ *kob*, topildi ~ *täbildi*.

⁵⁶ Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 34.

⁵⁷ Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент: Фан, 1962. – Б. 94.

f undoshi. Lab-lab, jarangsiz undosh. Bu undosh ba'zi undovlarda uchraydi: *tuf, suf, puf, pufej*.

O'zlashgan so'zlarda **f** ~ **p** mosligi yuzaga keladi: faqir ~ *paqir*, farishta ~ *pārištā*, fil ~ *pil*, Fotima ~ *Pātmā*, fahm ~ *pā:m*, oftob ~ *āptāp*, fazilat ~ *pāzilāt*, fason ~ *pāsān*, falokat ~ *pālākāt*, aft ~ *āpt*, xafta ~ *xapta//āptā* (*hāptā*), kasofat ~ *kāsāpāt*, fursat ~ *pursāt*, fotiha ~ *pātixa*. Bu hodisa o'zbek tilida **f** undoshining yo'qligi bilan ham izohlanadi.

v undoshi. Sirg'aluvchi, lab-lab frikativ va lab-tish tovushlar oralig'idagi bir tovush⁵⁸. So'zning barcha bo'g'inlarida kela oladi: echki bolasi ~ *čivič*, *tuvi(u)čā*, erkak ot (yaylovda yurgani) ~ *mu(i)rāxir*, tevarak ~ *tevārāk*, avlod ~ *āvlād*, g'alvir ~ *yalvir*, tarvuz ~ *tārviz*, birov ~ *birāv*, vahm ~ *vājim*, borib ~ *bāriv*, qilib ~ *qiv*, Vaxshivor ~ *vaxšivār*, suv ~ *suv*, xabar ~ *xavar*, *vay vay* ~ *vāj vāj*, *voh voh* ~ *vāh vāh*. Sof o'zbekcha so'zlarda so'z boshida kam ishlatiladi. So'z boshida unlilardan oldin diftonglashuv ro'y beradi: (^von, ^vottiz).

O'zlashgan so'zlarda uchraydi: vagon ~ *vāgān*, vagzal ~ *vāgzāl*, olov ~ *ālāv* (*ālāv*, *ot*).

So'z oxirida keladi: belbog' ~ *belbāv*, oltov ~ *āltāv*, yettov ~ *jetāv*, beshov ~ *bešāv*.

Denov qarluq guruh shevasida **b** tovushi bilan almashinadi: narvon ~ *nārbon*, darvoz ~ *dārboz//dārvāz*, darvoza ~ *dārbozā//dārvāzā*, qovushdi ~ *qabišti*.

d undoshi. Til oldi, portlovchi jarangli tovush. So'zning istalgan bo'g'inida keladi:

so'z boshida: do'st ~ *dos*, daryo ~ *dājrā*, Denāv ~ *Denāv*, devor ~ *devāl*, daraxt ~ *darax*, dahliz ~ *dāhliz*, dasturxon ~ *dāsixān // dastirxān*, damba ~ *dāmmā*;

so'z o'rtasida: quduq ~ *quduy*, bedana ~ *bedānā*, poda ~ *pādā*, mehmondo'st ~ *mejmāndos*, yulduz ~ *juldiz*, Konibodom ~ *Kānibādām*, Debodom ~ *Debādām*⁵⁹;

so'z oxirida o'zlashgan so'zlarda jarangsizlashib, **d** ~ **t** mosligi yuzaga keladi: shogird ~ *šāgirt*, dard ~ *dārt*, xursand ~ *xursant*, dod ~ *dāt*, dud ~ *dut*, obod ~ *āv(b)āt // ābāt*, ozod ~ *āzāt*, mard ~ *mārt*.

Ba'zan o'zlashgan so'zlarda qator kelgan undoshlar bilan kelsa tushib qoladi: baland ~ *bālān*, qasd ~ *qas*, qasdma-qasd ~ *qasma-qas*.

⁵⁸ Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 88.

⁵⁹ Sariosiyo tumanida joylashgan qishloq nomi.

t undoshi. Til oldi, portlovchi, jarangsiz undosh tovush, soʻzning barcha oʻrinlarida kela oladi.

soʻz boshida: til ~ *til*, taraf ~ *tārāp*, tish ~ *tiš*, tirik ~ *tirij* // *tirig*, tayoq ~ *tājāy*, tariq ~ *tāriy*, tirnoq ~ *tirnāy*, tom ~ *tām*, tol ~ *tāl*, topishmoq ~ *tāpišmāy*, tentak ~ *tentāj*, tanga ~ *tāṅā*, tana ~ *tānā*. Soʻz boshida ayrim oʻrinlarda **t** // **d** mosligi qayd qilinadi. Maʼlumki, bu hodisani adabiyotlarda oʻgʻuz lahjasining elementlari deb keltiriladi: tutun ~ *dutun*, tovush ~ *dāviš* (*dāvišini šiyarmā*, *dāvišini bāričā baqirdi*⁶⁰);

soʻz oʻrtasida: qattiq ~ *qattiy*, ketdi ~ *ketti*, kissa ~ *kistā*, chatoq ~ *čatāy*, artist ~ *ārtis*, daftar ~ *dāptār*, chelak ~ *sātil*, ketmon ~ *ketmān*, belkurak ~ *lāpātkā*.

soʻz oxirida: ot ~ *āt*, adabiyot ~ *ādābijāt*, yigit ~ *jigit*, kut ~ *kut*, bit ~ *bit*.

ayrim oʻzlashgan va bir boʻgʻinli soʻzlarning oxirida tushib qoladi: past ~ *pās*, sust ~ *sus*, daraxt ~ *darax*, goʻsht ~ *goš*, doʻst ~ *dos*, gʻisht ~ *yiš*, toʻrt ~ *tor*.

s undoshi. Til oldi, sirgʻaluvchi, jarangsiz undosh tovush boʻlib barcha boʻgʻinlarda kela oladi.

soʻz boshida: seshanba ~ *sešāmbā*, soʻz ~ *soz*, satil ~ *sātil*, sovuq ~ *sāvuq*, siniq ~ *siniq*, sust ~ *sus*, somon ~ *sāmān*, sabr ~ *sābr*, sochmoq ~ *sāčmāq*;

soʻz oʻrtasida: issiq ~ *issiy*, isiriq ~ *isiriy*, is ~ *is*, boʻgʻirsoq ~ *boʻyirsāy*, oʻsib ~ *osip*, xususiyat ~ *xususijāt*, xislat ~ *hislāt*,

soʻz oxirida: ajralmas ~ *āžrālmās*, indamas ~ *indāmās*, biznes ~ *biznes*, gips ~ *gips*, gradus ~ *grāds*, guldiros ~ *guldirās*, gilos ~ *gilās*, arzimas ~ *ārzimās*, uvvos ~ *uvvās*, atlas ~ *ātlās*, musallas ~ *musāllās*, havas ~ *xavas*, kenagas ~ *kenāgās*, qafas ~ *qapas*, lohas ~ *lāhās*, silos ~ *silus*, termos ~ *terms*, patnos ~ *pātns* || *pātniz*, yoʻlbars ~ *jolvārs*, galvars ~ *gālvārs*, palos ~ *pālās*;

s // **č**, **s** // **š**, **s** // **z** mosliklari qayd qilinadi: sichqon ~ *čičqān*, supurgi ~ *šipirgi*, gilos ~ *gilāz*, patnos ~ *pātniz* (*Oʻshor*).

z undoshi. Til oldi, sirgʻaluvchi, jarangli undosh, adabiy tilda soʻzning barcha boʻgʻinida uchraydi. Shevalarda soʻz oxirida kelganda baʼzi

⁶⁰ Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. — Тошкент: Фан, 1962. — Б. 99.

soʻzlarda “yarim jarangli” “z^s”⁶¹ ga yulduz ~ yuldiz^s, xoʻroz ~ xorāz^s, sakkiz ~ sakkiz^s, oʻttiz ~ ottiz^s, toʻqqiz ~ toqqiz^s (*Oʻshor, Sohibkor*) oʻtadi⁶².

soʻz boshida: zovur ~ zāvur, zoʻr ~ zor, zor ~ zār, zoriqqan ~ zāriqqan, ziynat ~ zijnāt, zar ~ zār, zaxmat ~ zaxmat, ziyo ~ zijā, zot ~ zāt, zolim ~ zālim, zurriyot ~ zurrijāt, zardop ~ zārdāp;

soʻz oʻrtasida: qizil ~ qizil, tizza ~ tizzā, deraza ~ tirza||derzā, uzoq ~ uzāy, azob ~ azāb, ozgina ~ āzginā, aziz ~ āziz, qizamiq ~ qizamiy, qiziriq ~ qiziriy, koʻza ~ kozā, uzum ~ uzim, zagʻizgʻon ~ zayizyān, lozim ~ lāzim;

soʻz oxirida: biz ~ biz, siz ~ siz, qiz ~ qiz, kunduz ~ kundiz, gʻoz ~ yāz, hoʻkiz ~ hokiz, yuz ~ juz, tuz ~ tuz, ovoz ~ āvāz, namoz ~ nāmāz.

z ~ j mosligi: soʻzladi ~ sojlādi||sollādi.

z ~ s mosligi soʻz oxirida va oʻrtasida s ga yaqin talaffuz qilinadi: oʻttiz soʻm ~ otis som, yuz soʻm ~ jus som, koʻztikon ~ kostikān, qariz ~ qariz||qars, koʻzcha ~ kosčā, kigizchi ~ kigisči, kelasiz ~ kelāsis.

m undoshi. Lab-lab, jarangli, portlovchi, burun tovushi. Soʻzning barcha boʻgʻinlarida kela oladi. Shevalardagi **m** adabiy tildagi shu tovush bilan oʻzining talaffuz va eshitilishi bilan farqlanmaydi⁶³.

soʻz boshida: men ~ men||mān, masalan ~ māsālān, maysa ~ mājsā, mayda ~ mājdā, moshina ~ māšinā//māšinā, malham ~ malxam, muomala ~ māmilā, masalan ~ māsālān, mardikor ~ mardikār, mayna ~ mājnā, musicha ~ musičā, mayiz ~ mājiz, mijgʻov ~ mižyāv;

soʻz oʻrtasida: ombor ~ āmmār, osmon ~ āsmān, ildam ~ illām, imorat ~ imārāt, muomala ~ māmilā, tarmashgan ~ tarmāškān, tomorqa ~ tāmārqa, samandar ~ sāmāndār, suzma ~ suzmā, ezma ~ ezmā.

soʻz oxirida: malham ~ malxam, muloyim ~ milājim, Maryam ~ mārjām, mahkam ~ māhkām, taʻzim ~ tāzim, toʻzim ~ tozim, hakim ~ hākim.

m ~ b mosligi: buncha ~ munčā, bunga ~ muṅā, bilan ~ minān, bunday ~ mundāj, bunaqa ~ munaqa, boʻyin ~ mojin.

m ~ n mosligi: timdala ~ tintālā, mulzam ~ mulzān.

m ~ v mosligi: hunarmand ~ hunārvān.

⁶¹ Z va S orasidagi tovushni ifodalaydi.

⁶² Шоабдурахмонов III. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. — Тошкент: Фан, 1962. — Б. 102.

⁶³ Қудратов Т. Ўзбек тилининг оралик шевалари (Шахрисабз, Яккабоғ, Чироқчи ва Қамаш районларидаги шевалари материаллари асосида): Филол. фан. номз... дис. — Тошкент, 1968. — Б. 60.

n undoshi. Til oldi, jarangli, portlovchi, burun, sonor tovush bo‘lib so‘zlarning boshi, o‘rtasi va oxirida kela oladi.

so‘z boshida: non ~ *nān*, nasiba ~ *nāsibā*, nigina ~ *niginā*, Namangan ~ *nāmāngān*, nayman ~ *nājmān*, najot ~ *nāžāt*, nasiba ~ *nāsibā*, naqt ~ *naxt*;

so‘z o‘rtasida: anor ~ *ānār*, shuningdek ~ *šunijdek*, shunday ~ *šundāj*, Sanjar ~ *sānžār*, undosh ~ *undāš*, igna ~ *ijnā*, g‘uncha ~ *γunča*, siniq ~ *siniq*;

so‘z oxirida: Namangan ~ *nāmāngān*, nayman ~ *nājmān*, qovun ~ *qāvun//qavun*, mazmun ~ *māzmun*, sovun ~ *sāvun//sävun*, bilag‘on ~ *bilayān*, dehqon ~ *dehqān*, sichqon ~ *sičqān*, imtihon ~ *imti:ān*, inson ~ *insān*, xo‘jayin ~ *xožajin*, tugun ~ *tugin*.

Bundan tashqari, zonadagi qarluq, shuningdek, qipchoq shevalarida ham tushum-qaratqich kelishiklarini qo‘llashda affiksali **n** assimilatsiyasi jarangli undoshlardan keyin **d**, jarangsiz undoshlardan keyin **t** talaffuz qilinadi: bizni ~ *bizdi*, tolni ~ *tāldi*, tokni ~ *tākti*, mixni ~ *mixti*. Sh. Shoabdurahmonov bu ko‘rinish Farg‘ona shevalarida ham mavjudligi haqida ma‘lumot beradi⁶⁴. **b**, **m** tovushlari bilan kelganda shu tovushlar ta‘sirida **m** ga almashadi: shanba ~ *šāmmi*, o‘n bir ~ *om bir*, to‘qson besh so‘mni ~ *toxsam beš sommi*, yonbosh ~ *jāmbāš*; **n** tovushi o‘zakda va affiksda **q**, **g‘**, **k**, **g** tovushlari bilan kelganda *η(ng)* ga o‘tish kuzatiladi: senga ~ *seᅇgä*, to‘nka ~ *toᅇkä*, qo‘ng‘iz ~ *qoᅇiz*, chanqadim ~ *čāᅇqadim*.

l undoshi. Til oldi, sirg‘aluvchi, jarangli, sonor, yon tovush. So‘zning barcha bo‘g‘inlarida qo‘llana oladi. Ayrim o‘rinlarda bir bo‘g‘inli so‘zlar va **m**, **s**, **g** undoshlari bilan kelganda **l** talaffuz qilinmaydi: ol ~ *ā:*, qol ~ *qā:*, sol ~ *sā:*, qil ~ *qi:*, bo‘l ~ *bo:*, olsa ~ *osä:*, bo‘lsa ~ *bosä:*, qolgan ~ *qāgan*, qolma ~ *qāmā*, bo‘lma ~ *bomā*, bo‘lsin ~ *bosin*, solsin ~ *sāsin*, qilsin ~ *qisin*; shevada **m**, **s**, **g**, tovushlaridan oldin **l** ning tushib qolishi, keyingi tovushning assimiliyatsiyaga uchrashi natijasida vujudga kelgan: kelmaydigan ~ *kemmajdigān*, bo‘lmaydigan ~ *bommājdigān*, qilmaydigan ~ *qimmajdigān*, solmaydigan ~ *sāmājdigān*.

So‘z asoslarida ham tovush almashini kuzatiladi: aldab ~ *älläp*, mamlakat ~ *māmnäkät* (*O‘shor*), ko‘ngling ~ *koᅇniᅇ||kojniᅇ*, jig‘ildon ~ *žiyirdān* (*Yurchi*, *Oybarak*), manglay ~ *māᅇnāj*.

so‘z boshida: lalmi ~ *läłmi*, lolaqizg‘aldoq ~ *lälaqizyaldāq*, lola ~ *lälä*, lochin ~ *läčīn*, lali ~ *läli*, lo‘ttiboz ~ *lottibāz*, lashkar ~ *läškār*, loy ~ *läj*, lab ~ *läv*, lotin ~ *lätin*, laqay ~ *laqaj*, laycha ~ *läjčä*, lazer ~ *läzir*, labz ~ *lävz*, lozim ~ *läzim*;

⁶⁴ Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент: Фан, 1962. – Б. 103.

soʻz oʻrtasida: boʻlak ~ *boläk*, quloq ~ *qulāq*, buloq ~ *bulāy*, olmaxon ~ *ālmaxān*, dala ~ *dälä*, chayla ~ *čäjlä*, salla ~ *sällä*, kalla ~ *källä*, bolalar ~ *bällä*, qaldirgʻoch ~ *qalliryāč*, kalish ~ *käliš*, toʻlqin ~ *tolqin*, kamalak ~ *kämäläj*;

soʻz oxirida: mukammal ~ *mukämmäl*, kamol ~ *kämäl*, misqol ~ *misqāl*, soqol ~ *saqāl*, kal ~ *käl*, ahvol ~ *āhvāl*, sopol ~ *sāpāl*, qoʻpol ~ *qopāl*, halol ~ *hālāl*, misol ~ *misāl*, asal ~ *äsäl*;

l ~ *n* mosligi: bilan ~ *minan*, lekin ~ *nekin*, koʻylak ~ *kojnäk*;

l ~ *r* mosligi: kirchimolroq (kirga moyilroq) ~ *kirčimārrāq*, bemalolroq ~ *bemälārrāq*.

r undoshi til oldi, jarangli, sirgʻaluvchi, sonor, titroq undosh tovush. Soʻz boshi, oʻrtasi, oxirida keladi. Koʻplik qoʻshimchasi tarkibidagi **r** va bir boʻgʻinli soʻzlarda tushish holati uchraydi: bizlar ~ *bizlä*, keldilar ~ *keldilä*, bolalar ~ *bällä*||*bälälä*; bor ~ *bā*; ber ~ *be*;

soʻz boshida: rais ~ *räjis*, raqam ~ *raqam*, rassom ~ *rässām*, rahmat ~ *rāhmāt*, rozi ~ *rāzi*, rubob ~ *ribāb*, Rustam ~ *ristām*, Rahimbek ~ *räjimbek*, rahbar ~ *rāhbār*, rahm ~ *rāhm/rājim*, rasm ~ *rāsm*, rahmatli ~ *rāhmätli*, rajab ~ *rāžāb*, randa ~ *rändä*, ravza ~ *rävzä*, raiyat ~ *rāj(i)jät*;

soʻz oʻrtasida: goʻng (pori) ~ *pāri*, qori ~ *qāri*, karam ~ *kārām*, shoʻrva ~ *šorvä*, qari ~ *qarri*, kampir ~ *kämpir*, tirnoq ~ *tinnāq*, tirsak ~ *tirsäk*, deraza ~ *derāzä/tirzä*, qirov ~ *qirāv*, safarbar ~ *sāpārbār*, sangardak ~ *sāñärdäk*;

soʻz oxirida: langar ~ *lāñār*, kibr ~ *kibr*, sabr ~ *sābr*, qabr ~ *qabr*, sanobar ~ *sānābār*, askar ~ *āskār*, seminar ~ *seminār*, sehrgar ~ *sehrgār*, birodar ~ *birādār*, samandar ~ *sāmändār*, qalandar ~ *qalandar*, tulpor ~ *tulpār*, chopar ~ *čāpār*, xumpar ~ *xumpar*, dardisar ~ *dār(d)isār*, ovsar ~ *āvsār*, kavsar ~ *kāvsār*;

r ~ *j* mosligi: surkalma ~ *sujkälmä*, kirgiz ~ *kijgiz*.

Ayrim soʻzlarda **r** tovushi tushib qoladi. dasturxon ~ *dastixān//däsixān*, darcha ~ *dä:čä*, borgandim ~ *bā:gāndim*.

j (**y**) undoshi. Til oʻrta, sirgʻaluvchi, jarangli undosh tovush boʻlib soʻz boshi, oʻrtasi oxirida keladi.

Baʼzi unililardan keyin **j** tovushi ortadi: obroʻ ~ *ābroj//ābroj*, rais ~ *räjis*, igna ~ *ijnä*; ayrim oʻrinlarda tushish ham kuzatiladi: yilqi ~ *ilqi*, yil ~ *il*, yuttirdi ~ *uttirdi*, yiqildi ~ *iqilli*, qiyshiq ~ *qiššiq*.

Arab va fors tilidan o‘zlashgan so‘zlarda bir **j** tovushi orttiriladi: doim ~ *dājim*, zaif ~ *zājip*⁶⁵, xoin ~ *xājin*, moil ~ *mājil*, nolai fig‘on ~ *nālāji piyān*, oyinai jahon ~ *ājinaji žāhān*⁶⁵;

so‘z boshida: yajmal ~ *jāžmāl* (*issiq nonning mag‘zi va sariq moy(yog‘) qo‘shib tayyorlangan ovqat turi*), yangi ~ *jāni*, yanga ~ *jānā*, yaxshi ~ *jaxši*, yomon ~ *jāmān*, yomg‘ir ~ *jāymir*, yo‘lchi ~ *jolči//julči*, yakshanba ~ *jākšānbi\\bāzār*, yuz ~ *jus(z)*, yigirish ~ *jigiriš*, yugur ~ *jugir*, yo‘nichqa ~ *joničqa (bedä)*, yoshlik ~ *jāšlig*;

so‘z o‘rtasida: pishirib (pishitib) ~ *ejlāb*, qanday qilsin ~ *qajsin//qajtsin*, o‘ynadi ~ *ojnādi*, o‘ynash ~ *ojnāš*, mayda ~ *mājdā*, jiyda ~ *žijdā*, kiyim ~ *kijim*, ko‘ylak ~ *kojnāk*, sigir ~ *sijir*, shoir ~ *šājir*;

so‘z oxirida: og‘iz sutidan qilingan ovqat ~ *g(k)ilägāj*, qo‘y ~ *qoj*, soy ~ *sāj*, loy ~ *lāj*, boy ~ *bāj*, toy ~ *tāj*, manglay ~ *māñlāj*, tanglay ~ *tāñlāj*, aylanay ~ *ājñālāj*, g‘ilay ~ *ylaj*, karnay ~ *kārñāj*, munday ~ *munñāj*, shunday ~ *šunnāj*, qirg‘iy ~ *qiryij*, bug‘doy ~ *biddāj//buydaj*, rayhon ~ *nāzvig//nāzvij*;

j ~ **g** mosligi: keyin ~ *kegin*, tegirmon ~ *tejirmān*, tugma ~ *tujmā*, tegma ~ *tejmā*, tegsa ~ *tijšā*, egni ~ *ejni (ustidagi kiyimi)*;

j ~ **d** mosligi: yostiқ ~ *dāstiq*⁶⁶, yumala ~ *dumälä*;

k undoshi. Sayoz til orqa, jarangsiz, portlovchi tovush. Shevada so‘zlarning barcha bo‘g‘inlarida keladi.

so‘z boshida: g‘avza ~ *kāptār dum*⁶⁷ (*O‘shor*), kitob ~ *kitāp*, kosa ~ *kāsā*, ko‘p ~ *kop*, kiyik ~ *kijik*, kichik ~ *kičig^k*, ko‘z ~ *koz*, kuchuk ~ *kučig*, kuch ~ *kuč*, kabutar ~ *kāptār//kāftār*, ko‘rsichqon ~ *korsičqān*, ko‘rshapalak ~ *koršāpālāk*, ko‘rpa ~ *korpā*, kiprik ~ *kirpik//kiprij*, ko‘knori ~ *koxnāri*, ko‘hna ~ *kojnā*, ketmon ~ *ketmān*;

so‘z o‘rtasida: chakkalik (urug‘ nomi) ~ *čākkālik*, sakra ~ *sākrā*, ikki ~ *ekki*, uka ~ *ukā*, maktab ~ *māktāp*, ekadi ~ *ekādi*, so‘kinmoq ~ *sokinmāq*, Toshkent ~ *tāšken*, o‘ksik ~ *oksik*, tikmoq ~ *tikmāq*, tikladi ~ *tiklādi*, ho‘kiz ~ *hokiz*, ko‘klam ~ *koklām*;

so‘z oxirida: ikki yoshli qo‘chqor ~ *šišāk*, bilak ~ *bilāk*, tilak ~ *tilāk*, tok ~ *tāk*, jo‘yak ~ *žojāk*, kaklik ~ *kājlik*;

k ~ **j** mosligi: etik ~ *etij*, elak ~ *elāj*, terak ~ *terāj*, eshik ~ *eshij*, tekkan ~ *tejgān*, yaxshilik ~ *jaxšilij*, ichak ~ *ičāj*, (*qo‘shimcha qo‘shilganda*

⁶⁵ Иброҳимов С. Ўзбек тилининг Андижон шеvasи. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 79.

⁶⁶ “Ху уйинг куйгур, Култой яна келаяпти. Шул бир гапни билаяпти”, – деб тўксон бошли уйдан чиқиб, кунчиқар тарафга тиздан кўрпача, белдан **достуқ** тайёрлайверди. “Алпомиш” достони. Хушбоқ Мардонакул ўғли варианты. Ёзиб олувчи: Тоштемир Турдиев. – Тошкент: Ёзувчи, 1998. –Б. 199.

⁶⁷ Bug‘doy o‘rayotganda (siqimlab ushlanganda) qo‘lga ushlangan o‘rilgan bug‘doy poyasi.

aniqroq eshitiladi: eshikdan kirib ~ eshijdän kirip), ellik ~ ellij, tilak bilan ~ tiläj minän;

k ~ g mosligi unli bilan boshlangan qo‘shimchalar qo‘shilishi orqali yuz beradi: bilak ~ bilägi, tilak ~ tilägi, bo‘lak ~ bolägi, hashak ~ xašagi, mushuk ~ mushugi, pishak ~ pišägi (o‘zbek adabiy tilida ham bu o‘zgarish mavjud⁶⁸).

k undoshining jaranglashishi Toshkent, Namangan va ba’zi **j-lovchi** shevalarda spontan holatda uchraydi. Nam. suyak ~ *sujäg*, oynak ~ *äjnäg*, toshkentlik ~ *tāškällig*; shu pozitsiyada *k ~ g* mosligi tarixiy jihatdan qarluq dialektining xarakterli fonetik xususiyatlaridan biri deb qaraladi⁶⁹.

So‘z o‘rtasida yetaklab yuradi ~ *etäläp jurädi* kabi so‘zlarda sporadik holda tushib qolishi ham uchraydi.

g undoshi. Sayoz til orqa, jarangli, portlovchi undosh tovush bo‘lib so‘z boshida va so‘z oxirida faol qo‘llanadi. So‘z oxirida esa, asosan, o‘zlashgan so‘zlar va terminlarda uchraydi.

so‘z boshida: *gul ~ gul, gap ~ gäp, gilos ~ geläs, go‘sh ~ goš, gaza ~ gäzä, govmish ~ gävmiš, garang ~ gārān, gurgut ~ gorgit//gugirt, go‘ng ~ gon, gadoy ~ gädāj, gashnich ~ gäjnič//gäšnič, gazeta ~ gäzit;*

so‘z o‘rtasida: *yugurmoq ~ jugurmāq, o‘zga ~ ozgä, yugurgan ~ jugurgän, egar ~ egär, egat ~ ägät//egät, tirkäk ~ tirkäk, begona ~ begänä, teginmoq ~ teginmāq, tergamoq ~ tergämāy, ergash ~ e(i)rgäš, agranom ~ ägränām, bo‘lgan ~ bolgän, bugun ~ bugun, tugun ~ tugin;*

so‘z oxirida: *Chahag⁷⁰ ~ čähäg, barg ~ bärg, eg ~ eg, teg ~ teg, pedagog ~ pedägäg, urolog ~ urālg, juvonmarg ~ žuvänmär(g), dramaturg ~ drämäturg, dialog ~ dijäläg;*

g ~ j mosligi: *tegma ~ tejmä, egni ~ ejni, tagiga ~ täjigä, sigir ~ sijir* (ba’zi o‘rinlarda **g** tovushi tushib qolib cho‘ziqlik hosil qiladi: *igna ~ i:nä* bu so‘zning *ijnä* talaffuzi ham mavjud bo‘lib shevada ikkalasi ham parallel qo‘llanadi) bundan tashqari egalik qo‘shimchasi **-i** qo‘shilganda ham *g > j* ga o‘tishi kuzatiladi *tag ~ täji*.

ŋ undoshi. Til orqa, portlovchi, jarangli, burun tovushi. So‘z o‘rtasi va oxirida keladi. O‘zbek adabiy tildagi kabi ikki unli tovush orasida keladigan **ŋg** tovushlari birikmasi ko‘plab uchraydi: *yanggi ~ jāŋgi, ranggi ~ rāŋgi,*

⁶⁸ Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўрта ва oliy maktab, 1962. – Б. 165.

⁶⁹ Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўрта ва oliy maktab, 1962. – Б. 165.

⁷⁰ O‘shor qishlog‘idagi joy nomi.

otanggiz ~ *ātāngiz*, tanga ~ *tāngä*⁷¹. Ayrim o‘rinlarda ž-lovchi shevalar singari n ~ ŋ almashinishi kuzatiladi: sen kelding ~ *seŋ keldiŋ*;

so‘z o‘rtasida: keldingmi ~ *keldiŋmi*, dengiz ~ *deŋiz*, so‘ngsiz ~ *soŋsiz*, ko‘nglim ~ *koŋlim*;

so‘z oxirida: keng ~ *keŋ*, so‘ng ~ *soŋ*, bo‘ling ~ *boŋ*, qiling ~ *qiŋ*;

ŋ ~ j mosligi: keldingmi ~ *keldijmi*, oldingmi ~ *āldijmi*, o‘zingiz ~ *ozijiz*, singlim ~ *sijnim*, yo‘lingiz ~ *jolijiz*, keltiringlar ~ *keltirijlä*, yelkangiz ~ *jelkäjiz*, noningni ~ *nānijni*.

q undoshi. Bu tovush chuqur til orqa, portlovchi, jarangsiz undoshdir. So‘zning istalgan bo‘g‘inida keladi. So‘z oxirida undosh bilan tugagan so‘zlarda unli bilan boshlanuvchi affiks qo‘shilganda **q** tovushi **γ** ga o‘tadi: quloq+im ~ *qulāyim*, o‘rtoq+im ~ *ortāyim*, tovuq+i ~ *tāviyi*;

so‘z boshida: qo‘l ~ *qol*, qovun ~ *qāvin*, qalb ~ *qalb*, qasd ~ *qas*, qarindosh ~ *qarindāš*, qo‘riqchi ~ *qoriqčī*, qorovil ~ *qarāvil*, quda ~ *quda(qidā)*, qayiq ~ *qajiy*, qo‘shni ~ *qošni*, quduq ~ *quduq*, qulliq ~ *qulliy*, qasam ~ *qasam*, qamish ~ *qamiš*, qo‘y ~ *qoj*;

so‘z o‘rtasida: orqa ~ *ārqa//ārqa*, xonaqo ~ *xānaqā*, qulqog‘ ~ *qulqāy*, oqsil ~ *āqsil*, salqin ~ *salqin*, aql ~ *aql*, buqa ~ *buqa*, yaqin ~ *jaqin*, salqin ~ *salqin*, Qo‘qon ~ *qoqān*, boqqan ~ *bāqqan*, favqulot ~ *p(f)avqulāt*, fuqaro ~ *fuqarā*, faqir ~ *fāqir*;

so‘z oxirida asosan **γ** ga o‘tadi: oshiq ~ *āšiy*, qoshiq ~ *qāšiy*, qo‘shiq ~ *qošiy*, bosiq ~ *bāsiy*, quloq ~ *qulāy*, soliq ~ *sāliy*, sandiq ~ *sandiy*, baliq ~ *baliy*, qaymoq ~ *qajmāy*, qoziq ~ *qāziy*, qulliq ~ *qulliy*, qo‘rqoq ~ *qorqāy*, boshmoq ~ *bāšmāy*, barmoq ~ *barmāy*;

q ~ **x** mosligi: to‘qson ~ *toxsan*, maqsad ~ *maxsat*, chiqdi ~ *čixti*, vaqt ~ *vax*, qo‘rqmasdan ~ *qo(r)xmastān*, saqlayman ~ *saxlajmān*.

x undoshi. U jarangsiz, sirg‘aluvchi, chuqur til orqa undosh tovushdir. Barcha bo‘g‘inlarda keladi. Hazarbog‘ 1-bo‘lim, Ixtiyor, Amir Temur, Guliston kabi hududlarda yashovchi qarluq sheva vakillari **x** tovushini bo‘g‘iz undoshi **h** bilan farqlay olmaslik holati mavjud: xush ~ *huš*, hamma ~ *xamma*, xabar ~ *hābār* singari.

so‘z boshida: xizmat ~ *xizmat*, xola ~ *xāla*, xayr ~ *xajir*, xarajat ~ *x(h)ārāžāt (xarž)*, xalq ~ *xalq*, xabar ~ *xabar//xavar*, xiyonat ~ *hijānāt*, xomtalash ~ *xāmtalāš*, xirillamoq ~ *xirillamāq*, xo‘jayin ~ *xožajin*;

so‘z o‘rtasida: paxol ~ *paxāl*, paxta ~ *paxta*, ixtiyor ~ *ixtijār*, baxt ~ *baxt*, yaxshi ~ *jaxši*, taxt ~ *taxt*, taxtä ~ *taxtä*, soxta ~ *sāxta*, o‘xshagan ~

⁷¹ Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1962. – Б. 168.

oxšagän, Vaxshivor ~ vaxšivār, daxl ~ daxl, zaxar ~ zaxar, to‘xtagan ~ toxtagän, xontaxta ~ xāntaxta;

so‘z oxirida: *mazax ~ mazax, do‘zax ~ dozax, malax ~ malax, zax ~ zax, yax ~ jax, mix ~ mix, six ~ six, narx ~ narx, charx ~ čarx, surx ~ surx*⁷².

γ (g‘) undoshi. Chuqur til orqa, jarangli, sirg‘aluvchi undoshdir. Shevada adabiy til singari barcha bo‘g‘inlarda kela oladi, ayrim so‘zlardagina $\gamma > j$, $\gamma > v$ ga o‘tishi kuzatiladi: *bog‘ladi ~ bājlādi, ag‘dar ~ āvdār;*

so‘z boshida: *g‘alla ~ yalla, g‘alvir ~ yalvir, g‘irrom ~ yirrām, g‘altak ~ yaltag(j), g‘oz ~ yāz, g‘or ~ yār, g‘o‘r ~ yor, g‘arib ~ yarip, g‘ash ~ yaš, g‘ayir ~ yajir, g‘izzillab ~ yizzillab.*

so‘z o‘rtasida: *yolg‘iz ~ jālyiz, qirg‘ovil ~ qiryāvil, o‘g‘irlik ~ oyirlik, og‘iz ~ āyiz, og‘il ~ āyil, o‘g‘ri ~ oyri, og‘ir ~ āyir, qaynog‘a ~ qajnāya, og‘a ~ āya, tug‘adi ~ tuyadi, qo‘zg‘almoq ~ qozyal māy, tog‘ora ~ tāyara;*

so‘z oxirida: *tog‘ ~ tāy, bog‘ ~ bāy, sog‘ ~ sāy, qog‘ ~ qāy, qutlug‘ ~ qutluγ, ulug‘ ~ uluγ, qilig‘ ~ qiliy, shilliq ~ šilliy, cho‘g‘ ~ čoy, chig‘ ~ čiy, sariyog‘ ~ sarijāy, jag‘ ~ žay, bug‘ ~ buy, murg‘ ~ murγ, chorbog‘ ~ čārbāy, qallig‘ ~ qalliy;*

$\gamma \sim q$ mosligi: *sig‘ga(u)ncha ~ siqqa(u)nčä (ko‘nglingga sig‘gancha ol ~ koñliñä siqqančä āl).*

h undoshi. Sirg‘aluvchi jarangsiz bo‘g‘iz undoshi. Bu tovush o‘zbek shevalariga arab va fors tillaridan o‘zlashgan tovush hisoblanadi. Denov **j**-lovchi shevalarida faol tovush hisoblanadi – *hamma, ha, ham, havo, hoji, aholi, ho‘kiz, hozi, haqimiz, muhtoj, himoya, ho, hamsaya, haykal, hazarbog‘, hovuz* hamda undov so‘zlarda ko‘proq qo‘llanadi: *oh, uh, eh, voh, ah* kabi so‘zlarda uchraydi. Denov qarluq shevalarida **h** undoshi mustaqil fonema sifatida shakllangan Farg‘ona, Qo‘qon, Marg‘ilon shevalari guruhiga kiritsak bo‘ladi⁷³. *Hām* so‘zidagi **h** tovushi ayrim o‘rinlarda tushishi, ayrim o‘rinlarda esa **j** tovushiga o‘tishi kuzatiladi. So‘z o‘rtasida **h** tovushining tushib qolishi o‘zidan oldingi tovushning cho‘ziq talaffuz qilinishiga olib keladi: *shaharda ~ šā:ārdä, massi ~ mā:ssi;*

so‘z boshida: *humo ~ humā, humoyun ~ humājn, hushtak ~ huštāk, hazil ~ häzil, husayni ~ husājni, husn ~ husn, hurmat ~ hurmät, hulkar ~ hulkār;*

⁷² Qizil rang

⁷³ Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1962. – Б. 175.

soʻz oʻrtasida: ehtiyot ~ *ehtijāt*, ehson ~ *ehsān*, mehmon ~ *mehmān*, shahar ~ *šāhār*, mehnat ~ *mejnāt*, marhamat ~ *mārhamāt*, rahmat ~ *rāhmāt*, rahm ~ *rāhm*;

soʻz oxirida: solih ~ *sālih*, qarorgoh ~ *qarārgāh*, shoh ~ *šāh*, podshoh ~ *pāššāh*, sayilgoh ~ *sājilgāh*, sihatgoh ~ *sihātgāh*, begunoh ~ *begunāh*, ogoh ~ *āgāh*, guvoh ~ *guvāh*, maddoh ~ *māddāh*, iloh ~ *ilāh*.

š undoshi. Til oldi, jarangsiz sirgʻaluvchi undosh boʻlib, soʻzning barcha boʻgʻinlarida keladi.

soʻz boshida: shaxmat ~ *šaxmat*, shashlik ~ *šāšlik*, shox ~ *šāx*, shu yer ~ *šer*, shahar ~ *šāhār*, sharbat ~ *šārbāt*, sharf ~ *šārp*, shirkat ~ *širkāt*, shirvinich ~ *širvinič*, shinni ~ *šinni*, shanba ~ *šāmbā*, shudgor ~ *šudgār*, shunday ~ *šundāj*;

soʻz oʻrtasida: goʻsht ~ *goš*, dushman ~ *dušmān*, dasht ~ *dāšt*, boʻlishmoq ~ *bolišmāq*, joylashgan ~ *žājlāšgān*, shisha ~ *šišā*, boshqa ~ *bāšqa*, kurushka ~ *kuruškā*, salomlashish ~ *sālāmlāšiš*, yostiq ~ *bāšliq*;

soʻz oxirida: besh ~ *beš*, ish ~ *iš*, ergash ~ *ergāš*, tosh ~ *tāš*, qosh ~ *qāš*, undash ~ *undāš*, qilish ~ *qiliš*, bilish ~ *biliš*, shilish ~ *šiliš*, chalish ~ *čāliš*, ekish ~ *ekiš*, toʻkish ~ *tokiš*, bolish ~ *bāliš*;

Tushum kelishigi qoʻshilganda progressiv assimilatsiya roʻy beradi: ishni ~ *išši*, bilishni ~ *bilišši*, qolishni ~ *qālišši*;

š ~ j mosligi: tashlagan ~ *tājlāgān*, tashla ~ *tājlā*;

č undoshi. Til oldi, jarangsiz, qorishiq undosh boʻlib, turli pozitsiyalarda kela oladi.

soʻz boshida: chukri ~ *čukri*, chinni ~ *činni*, chin ~ *čin*, chiroyli ~ *čirājli*, chashma ~ *čāšmā*, sarimsoq ~ *čisnāk*, shiypon ~ *čājlā*, changal ~ *čāngāl*, choʻchqa ~ *čočqa*, chalob ~ *čālāp*, chirindi ~ *čirindi*, chigirtka ~ *čigirtkā*;

soʻz oʻrtasida: koʻmichak⁷⁴ ~ *komičāk* (*gomičāk*), sirpanchiq ~ *sirpānčiq*, sochiq ~ *sāčāy*, bachok ~ *bāčāk*, bacha ~ *bāčā*, echki ~ *ečki*, belanchak ~ *belānčāk*, nechta ~ *neččā*, nechchi ~ *nečči*, gʻuncha ~ *yunča*, bachkana ~ *bāčkānā*;

soʻz oxirida: chukri ~ *rāvāč*, koʻmach ~ *komāč*, uch ~ *uč*, qoch ~ *qāč*, soch ~ *sāč*, kech ~ *keč*, koʻtargich ~ *kotārgič*, choʻmich ~ *čomič*, qirgʻich ~ *qiryič*, toʻngʻich ~ *tonyič*, gashnich ~ *gāšnič*, jirkanch ~ *žirkānč*, yirtqich ~ *jir(t)qič*.

ž undoshi. Til oldi, portlovchi, jarangli undosh boʻlib shevada faol qoʻllanadi.

ž ~ j mosligi kuzatilib majlis ~ *mājlis* soʻzi talaffuz qilinadi.

⁷⁴ Koʻzdagi yara, govmižžā, tejskän//terskän, komičāk, gomičāk, nināči.

so‘z boshida: joylashmoq ~ *žājlāšmāq*, jivona (*ho ‘kiz*) ~ *živānā*, jigar ~ *žigār*, jiyan ~ *žijān*, jon ~ *žān*, joynamoz ~ *žājnāmāz*, juma ~ *žumā*, jo‘gi ~ *žogi*, jirinsoy ~ *žirinsāj*, jayra ~ *žājrā*, jizzaki ~ *žizzāki*, jovuz ~ *žāvuz* (*uzum navi*);

so‘z o‘rtasida: kelajak ~ *kelāžāk*, birja ~ *birža*, qiziljar ~ *qizilžār*, tojik ~ *tājik*, tamojni ~ *tāmožni*, tolimarjon ~ *tālimāržān*;

so‘z oxirida: toj ~ *tāž*, boj ~ *bāž*, gultoj ~ *gultāž*, ilinj ~ *ilinž*, mehroj ~ *mehrāž*, falaj ~ *fālāž*, mantaj ~ *māntāž*, garaj ~ *gārāž*, shantaj ~ *šāntāž*, masaj ~ *māsāž*, noiloj ~ *nāilāž*, xiroj ~ *xirāj*, ranj ~ *rānž*.

Fonetik jarayonlar⁷⁵: Denov qarluq shevasida ham boshqa turkiy tillarda bo‘lgani kabi tovush o‘zgarish xususiyatlari mavjud. Talaffuzda nutq organlarining faoliyatini yengillashtirish, og‘zaki nutqni ixchamlashtirishga bo‘lgan intilish tovushlarning har xil kombinator-pozitsion o‘zgarishlarini yuzaga keltiradi. Bu xususiyat barcha o‘zbek shevalarida bor, ammo shevalarda tarqalishi har xil. Mazkur shevalarda ham og‘zaki nutq protsessida yuzaga keladigan assimilatsiya, dissimilatsiya, eliziya, metateza, spirantizatsiya kabi hodisalar borki, ular tarqalish xususiyatiga ko‘ra Denov qarluq shevasining ichida ham turli xil ko‘rinishga ega.

Assimilatsiya. Denov qarluqlari shevasida to‘liq va to‘liqsiz assimilatsiya hodisasi mavjudligi quyidagi tovushlarda kuzatiladi, qonuniyatlarni Sh.Shoabdurahmonov usulida yoritishga harakat qilindi.

To‘liq (progressiv) assimilatsiya:

ld >ll: aldadi ~ *ällādi*, oldiga ~ *ālligā*, keldi ~ *kelli*, bo‘ldi ~ *bolli*, qildi ~ *qilli*;

ln >ll: qo‘lni ~ *qolli*, tolni ~ *tālli*, yo‘lni ~ *jolli*, Jalolni ~ *Žālālli*;

mb >mm: kambag‘al ~ *kammayal*;

td >tt: ketdi ~ *ketti*, totdi ~ *tātti*, otdan ~ *āttān*, sutday ~ *suttāj*, yo‘qotdim ~ *yoqāttim*;

pm >pp: boryapmiz ~ *bārāppiz*, kelyapmiz ~ *kelāppiz*, ketyapman ~ *ketjāppān*, boryapman ~ *bārjāppān*, qilyapmiz ~ *qiljāppiz*, ishlayapmiz ~ *išlājāppiz*, yozibman ~ *jāzippān*, to‘pmas ~ *tōppās*;

Assimilatsiya Denov qarluqlari shevasi faqat asosda emas, balki qo‘shimchalar qo‘shilganda ham kuzatiladi. Masalan: **n tovushi:** bilan boshlanadigan affiks o‘zaklarga qo‘shilganda assimilatsiyaga uchraydi.

⁷⁵ Qarang: Махмуд Кошғарий. Девону луғатит турк. I. том. – Тошкент: Фан, 1961 – Б. 22; Махмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. – Тошкент: Ижод, 2006. – Б. 77; Миртожиев М. Ўзбек тили фонетикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 286; Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zME, 2013. – B. 123.

nd>nn: nondan ~ *nānnān*, mendan ~ *mennān*, sendan ~ *sennān*, undan ~ *unnān*, Boysundan ~ *bājsinnān*;

rn>rr: temirni ~ *temirri*, kampirni ~ *kämpirri*, shiferni usti ~ *šipirri usti*;

mn > mm: akamni ~ *äkämmi*, tomni ~ *tāmmi*, xolamni ~ *xālammi*, salomni yeb yuborgan ~ *sälāmmi jevārgān*, uzumni ~ *uzimmi*;

tn>tt: otni ~ *ātti*, itni ~ *itti*, Nematni ~ *Nemātti*, biletni ~ *biletti*;

zn>zz: ko‘zni ~ *kozzi*, tuzni ~ *tuzzi*, bizni ~ *bizzi*, qizni ~ *qizzi*, narsamizni ~ *nārsāmizzi*;

sn>ss: misni ~ *missi*, majlisni ~ *māž(j)lissi*;

kn>kk: tokni ~ *tākki*, nokni ~ *nākki*, elakni ~ *elākki*;

pn//bn > pp: gapni ~ *gāppi*, qopni ~ *qāppi*, kitobni ~ *kitāppi*;

čn>čč: yog‘ochni ~ *jāyāčči*, cho‘michni ~ *čomicči*, omochni ~ *ā(ā)māčči*;

šn >šš: ishni ~ *išši*, toshni ~ *tāšši*, boshni ~ *bāšši*;

To‘liqsiz (progressiv) assimilatsiya:

šg>šk: kelishgan ~ *keliškān*, tushgan ~ *tuškān*;

sg>sk: kesgan ~ *keskān*, o‘sgan ~ *oskān*;

To‘liq (regressiv) assimilatsiya

rl>ll: yerlarda ~ *jellā:dā*, borlar ~ *bāllā*, qimirlash ~ *qimillaš*, bozorlik ~ *bāzāllik*;

dž >žž: badjahl ~ *bāžžāhl*, budjet ~ *bužžet*;

dč>čč: dardchil ~ *dārččil*, tanqidchi ~ *tanqičči*;

nl>ll: tanladi ~ *tāllādi*, bir tiyinlik ~ *birtillik*, to‘rt kunlik ~ *torkullik*, xotinlar ~ *xātillā*, yaqinlashdi ~ *jaqillašti*, xotinlikka olsinlar ~ *xātillikka āsillā*, kelganlar ~ *kegāllār*, kelsinlar ~ *kesillār*;

tl>ll: hatladi ~ *hāllādi*, qatlama ~ *qallama*, rahmatli ~ *rāhmālli*;

rl>ll: to‘g‘irla ~ *toyilla*;

rn>nn: tirnoq ~ *tinnā:γ*, karnay ~ *kānnāj*, surnay ~ *sunnāj*, turna ~ *tunnā*, qorni ~ *qanni||qānni*; burnim ~ *bunnim*, o‘rnida ~ *onnida*, o‘rnashdi ~ *onnāšti*, bir narsa ~ *binnāsā*, bir nima ~ *binnimā*;

nm>mm: aylanma ~ *ājlāmmā*, ko‘nma ~ *kommā*, ishonma ~ *išāmmā*;

zs>ss: yuzsiz ~ *jussiz*, yuz so‘m ~ *jussom*, ko‘zsiz ~ *kossiz*;

jn>jj: oyni ~ *ājji*, choyni ~ *čājji*, joyni ~ *žājji*, to‘yni ~ *tojji*, omon yor ~ *āmājjār*;

To‘liqsiz (regressiv) assimilatsiya

bs<ps: kelibsän ~ *kepsän*, chiqibsän ~ *čiqipsän*, qilibsän ~ *qilipsän*;

Dissimilatsiya. Denov qarluq shevalarida dissimilatsiyaning quyidagi ko‘rinishlari uchraydi:

čd<št: ko‘chdi ~ *košti*, o‘chdi ~ *ošti*, qochdi ~ *qāšti*, uchdi ~ *ušti*, uchta ~ *uštä*;

r>l: karidor ~ *kälidār//kälidāl*, brigadir ~ *burgädil*, abjir ~ *äbžil*;

sk<sg: keskir ~ *kesgir*, teskari ~ *tesgäri*;

qč<xč: kelmoqchi ~ *kemāxči*, taqmoqchi ~ *taxmāxči*, quloqchin ~ *qulāxčīn*, boqmoqchi ~ *bāxmāxči*;

qt<xt: vaqt ~ *vaxt*, qirqtir ~ *qirxtir//qixtir*;

qs<xs: yo‘qsan ~ *joxsan*, to‘qson ~ *toxsan*, chiqsa ~ *čixsa*, qo‘rqsa ~ *qoxsa*;

Metateza:

jr<rj: sayrob ~ *särjāb*, faryod ~ *päjrāt*, zurriyot ~ *zījrāt*, daryo ~ *däjrä*;

yr<ry: to‘g‘ri ~ *toryi*, to‘g‘ra ~ *torya*;

pr<rp: tuproq ~ *turpāq//tirpāy*, supra ~ *surpā*, kiprik ~ *kirpik*;

xš<šx: Badaxshon ~ *badašxān*, o‘xshaydi ~ *ošxajdi*;

br<rb: tebrat ~ *terbāt*, sarvi ~ *sävri*;

lv<vl: holva ~ *hāvlä*;

ym<my: yomg‘ir ~ *jāymir*;

n<l: aylana ~ *ājnlä*;

r<t: gugurt ~ *gurgut*.

Jaranglashish (Spontan o‘zgarish). suyak ~ *sujäg*, bilak ~ *biläg*, sariq ~ *sariy*, o‘rdak ~ *ordäg*, o‘simlik ~ *osimlig*, o‘rgimchak ~ *orgimčäg*, o‘rdak ~ *kurak* ~ *kuräg*, tovush ~ *dāvuš*, tutun ~ *dutin*.

Spirantizatsiya. yubordi ~ *juvārđi*, yeb yubordi ~ *jevārđi*.

Eliziya. bo‘lsang ~ *bosāñ*, qilsang ~ *qisañ*, olsang ~ *āsāñ*.

1.3. Qarluq shevalarining morfologik xususiyatlari

Egalik. Denov qarluq shevalarida egalik qo‘shimchalari adabiy tildan deyarli farq qilmaydi.

Shunga ko‘ra, qipchoq va o‘g‘uz lahjalaridagidek “qattiq va yumshoq” variantli egalik qo‘shimchalari ishlatilmaydi. Biroq ba’zi qarluq shevalari egalik shakllarining xilma-xilligi, murakkabligi, o‘ziga xos lablangan variantlarining bo‘lishi, qadimiy egalik shakllarining saqlanishi bilan qipchoq va o‘g‘uz lahjasidan keskin farq qiladi. Bu farqlar Toshkent, Namangan **-yūyuz**, **-(v)нə** shevalarida yaqqol ko‘zga tashlanadi⁷⁶. O‘zbek shevalarida bo‘lgani kabi⁷⁷ Denov qarluq guruh shevalarida ham I shaxs birlikdagi egalik qo‘shimchasi **-m** fonetik o‘zgarishga uchramaydi. Boshqa

⁷⁶ Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 18.

⁷⁷ Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 19.

egalik qo‘shimchalari asosga qo‘shimcha qo‘shilganda, ma’lum bir fonetik qonuniyatlar ta’sirida o‘zgarishga uchraydi va o‘zining parallel qo‘llanuvchi fonetik variantlari bilan qo‘llanadi. Egalik qo‘shimchalarining xilma-xil variantlarda uchrashi ko‘pincha shevalardagi so‘zning qanday tovush bilan tugashiga bog‘liq. Adabiy tildagi **q** undoshi bilan tugagan so‘zlar shevada egalik qo‘shimchasi qo‘shilgandan keyin **γ, v** tuzoq ~ *tuzāyi*, buzoq ~ *buzāvi* shaklida talaffuz qilinadi. Bunday fonetik o‘zgarish *k ~ j, k ~ g, k ~ v* holatida ham uchraydi. Adabiy tildagi *-(i)η, -ηiz* egalik ko‘rsatkichlari qarluq shevalarida *-(i)j, -giz, -(i)jiz, -iz* ko‘rinishda uchraydi: *tilingni ~ tilijni*, *bolangni ~ bālājni*, *qo‘lingni ~ qolijni*. Egalik qo‘shimchalarining bu shaklda o‘zgarishi Toshkent (*siringni aytma ~ sirijni ājtmā*), Andijon (*o‘zingni o‘g‘lingmi ~ ozijni oyljmi*), Qarshi, Farg‘ona (*qo‘yingni ~ qojijni*, *bolangni ~ bālājni*) qarluq shevalarida ham uchraydi⁷⁸. Qarshi, Tojikiston (qarluq) shevalaridagi *-(u)vuz*, Mirishkor shevasidagi *-(ü)vüz*, Qarshi, Qorako‘l shevasidagi *-(i)vuz, -(i)viz* shaklidagi egalik ko‘rsatkichlari Denov qarluq shevalarida uchramaydi.

Kelishiklar: O‘zbek shevalarida kelishiklar soni turli xilda uchrashi ma’lum. Bunga sabab qaratqich-tushum va o‘rin-payt-jo‘nalish kelishiklari farqlanmas-ligidir. Denov qarluq shevalarida ham buning turlichaligini ko‘rishimiz mumkin. Bu shevada ham bosh kelishik maxsus belgiga ega emas. Qarluq va ayrim o‘g‘uz shevalarida qaratqich kelishigi bilan tushum kelishigi bir xil **-ni** ko‘rsatkichga ega bo‘lib, formal jihatdan farqlanmaydi. Shunga asoslanib V.V.Reshetov 1951-yilda Toshkent, Farg‘ona tipidagi shevalarda yagona qaratqich-tushum kelishigi mavjud deb ko‘rsatgan⁷⁹. Qaratqich-tushum kelishigini bitta ko‘rsatkich bilan ifodalanishi haqida Y.G‘ulomov, N.Gafurova, B.Jo‘rayev, I.Farmonov, O.Sharipov, S.Tulyakov, M.Nasirov, S.Ibrohimov, F.Abdullayev, A.Shermatov, T.Qudratov, M.Shoinoyatova, M.Mirzayev kabi olimlar o‘z fikrlarini bildirishadi⁸⁰. Denov shevasida kelishiklar Qarshi, Samarqand-Buxoro shahar shevalari singari qaratqich-tushum **-ni, -niη** va jo‘nalish-o‘rin-payt kelishiklari **-ga, -da** bir ko‘rsatkichga ega.

Shevaning fonetik qonunlariga (yon tovushlar va so‘zning o‘zak yoki negizida old, orqa qator unlilar va chuqur til orqa undoshlarining kelishi, so‘zlarning qaysi undosh tovush bilan tugashi va boshqalar) muvofiq kelishik qo‘shimchalari turli shakllarda (talaffuz etiladi) qo‘llanadi, ayrim o‘rinlarda esa nutq jarayonida ba’zi kelishik qo‘shimchalari tushib qoladi.

⁷⁸ Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 23.

⁷⁹ Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 35.

⁸⁰ Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 35.

Denov shahrida yashovchi aholi qishloqlardan ko‘chib kelgan o‘zbek va tojik tilli aholi bo‘lib, so‘zlashish tili o‘zbek tili. Bu shevada kelishiklar soni 5ta bo‘lib, qaratqich va tushum kelishigi ko‘rsatkichi **-ni** qo‘shimchasi bilan ifodalanadi. O‘shor, Oybarak, Cho‘ntosh, Sohibkor, Oloviddin, Ilonsoy, Qizil Farg‘ona qishloqlari 4 kelishikli sheva hisoblanadi. Bu qishloq shevalarida o‘rin-payt kelishigi va jo‘nalish kelishigi bitta **-gü**, tushum va qaratqich kelishigi **-ni** qo‘shimchasi orqali ifodalanadi. Qoraxon, Yurchi, Hazarbog‘1-bo‘lim, shahar atrofidagi qishloqlarda kelishiklar soni 5tani tashkil qiladi. Bu shevalarda tushum va qaratqich kelishigi **-ni** qo‘shimchasi bilan ifodalanadi.

Qaratqich-tushum kelishigi. -ni, -di, -ti, -i variantlari unli va undosh tovushlarning tugashiga qarab o‘zgarishi kuzatildi: *tokni yuldi — tākdi julli ~ tākki julli*. Ko‘pchilik shahar shevalari singari Denov shevasida ham tushum kelishigi belgisiz qo‘llanadi: qo‘yni sotadi ~ *qoj sātādi*, paxtani terdim ~ *paxta terdim*.

Qaratqich va tushum kelishigi qo‘shimchasi unlilardan va **j** undoshidan keyin asosan **-ni** tarzida aytiladi. o‘zingni ~ *ozijni*, akangni ~ *ākājni*, unlilardan keyin ham **-ni** shakli qo‘llanadi: yarani ~ *järāni*, bovalani ~ *bāvālāni*. Shahar markazida yashovchilar va hudud aholisining o‘qimishli qatlami imkon qadar **-ni** ishlatishga harakat qiladi. Ba’zan ularning nutqida jaranglilardan keyin **-di**, jarangsizlardan keyin **-ti** itni **-itti**, otni ~ *ātti* tarzida talaffuz qilinadi. Shahardan uzoqda yashovchi sheva vakillari nutqida jaranglilardan so‘ng **-di, -zi** shakllari, jarangsizlardan so‘ng **-ti** shaklida talaffuz qilinadi. Bundan tashqari tolni ~ *tālli*, akamni ~ *ākāmi* so‘zlarida **-li** va **-i** varianti uchraydi. O‘shor, Oybarak shevalarida sonorlardan keyin faol ravishda **-di** ishlatiladi, ayrim o‘rinlarda esa har ikkala (qaratqich va tushum) kelishik **-i** shakli orqali ifodalanadi: bizning uy — *bizi uj*, tilimni tishladim ~ *tilimi tiš(l)ādim*, sizni so‘radi ~ *sizi sorādi* kabi bir va birdan ortiq bo‘g‘inlarda egalik affikslardan keyin qo‘shiladi. Qaratqich va tushum kelishigining bunday qo‘llanishi o‘zbek tilining Andijon shevasida ham uchraydi⁸¹. Qorluq guruh shevalarida qaratqich va tushum kelishigining **-iη**, (-ънғ: Буххэрә:нғ чөлъ ~ Вухоронинг чо‘ли; кәтталәрънғ қәмәв қойдъ ~ *kattalarini qamab qo‘ydi*) shaklini qo‘llanishi va **-di, -ti** variantining ustunligi haqida D.Abdurahmonov o‘zining “Qorluqlar va ularning tili” maqolasida ma’lumot beradi.

O‘rin-payt kelishigi. Qoraxon, Yurchi, Hazarbog‘ (1-bo‘lim), Denov shahar atrofidagi qishloqlarda **o‘rin-payt kelishigi -dä** shaklida talaffuz

⁸¹ Иброҳимов, С. Ўзбек тилининг Андижон шеvasи. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 144.

qilinadi. Bu hududlarning ayrim aholi vakillari nutqida **-gü** uchraydi. Bunday qo‘llanishi yoshi katta mo‘ysafidlar va qishloqdan chiqmay mehnat qilgan kam sonli ayollar nutqida mavjud.

Jo‘nalish — o‘rin-payt kelishigi -gä, -dä. Denov qarluq guruh shevalarining O‘shor, Oybarak, Cho‘ntosh, Sohibkor, Mehnatobod, Pojur, Qo‘ybesh kabi qishloqlarida jo‘nalish va o‘rin-payt kelishigi farqlanmaydi: xonada ~ *xānagä*, soat beshda ~ *sāyat (sayāt) bešgä*. Tayanch shahar shevalarida quyidagi variantlari bilan ishlatiladi: Tosh. *ojgä*, Farg‘. *ujgä, ātkä, bāqqa*. Jo‘nalish kelishigining bunday qo‘llanishi Denov qarluq guruh shevalariga ham taalluqli bo‘lib *-gä, -kä, -qa*, ko‘rinishlari mavjud. O‘zbek shevalarida uchraydigan *-da > -ga* almashinishi haqida M.Mirzayev quyidagi fikrlarni beradi: **-da** affiksining o‘rnida *-za (-qa, -ka)* formasini ishlatish qadimiy turkiy tillar qoldig‘idir⁸².

Ba‘zi o‘rinlarda jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi **-gü** chiqish kelishigi *-dän* qo‘shimchasining o‘rnida qo‘llanadi: samolyotni ovozi**dan** qulog‘im bitdi ~ *sämäjlätti(sämälätti) ävāzigü qulāyim bitti*; orad**an** uch-to‘rt kun o‘tgandan keyin ~ *ärägü uš-tor kun otkännän kejin*;

Chiqish kelishigi -dän, -tän, -nän. Chiqish kelishigi ifodalanish jihatidan qarluq va qipchoq guruh shevalarda ma‘lum darajada farq qiladi. *-dän* affiksi o‘zi qo‘shilib kelgan o‘zak-negizning qanday tovush bilan tugashiga qarab bir necha fonetik variantga ega. *-dän, -tän, -nän, -än*, yerdan ~ *jerdän*, daraxtdan ~ *daraxtän*, otdan ~ *ättän*, akamdan ~ *äkämnän*, qo‘shnidan ~ *hämsäjädän//hämsi(ā)jädän*. Qarluq guruh shevalarida aksariyatida bu kelishik qo‘shimchasi shunday masalan: Toshk., And., Namangan, Uychi, Farg‘., Qo‘q., Pop, Qarshi, YuQSh(or.), Kqo‘rg‘., Qarnob kabi shevalarda⁸³.

- *Bir čiqāt bir māšin bāriv yurra toxtadi, juqāridän toxtädidä māšini arqasini āčtidä bir säläfänni tuširdi. Mänäm kārävätti ustigä otiruvdim ästä-ästä bādim bārsäm säläfändän bir nimä tuširdi mänä šunčä dumi bār bilinib turipti, äjppāāy šunāj jāy, källä jāy, ajāyla munnän āb täšlägän.*

O‘rganilayotgan hudud shevasidagi chiqish kelishigi xususiyati Buxoro dialekti singari **-dän//tän** (*hämmä ädirgä čiyip ketāpti, ungä turip qišlāqtän bittä jārimtä soräsä učipni-mi bir bälä dedi*), **-dän//nän** (*Šunāj pišgännän kejin uštä läli bedim*) parallel ishlatilishi kuzatildi: Otamdan ~ *ätämnän*, kundandan ~ *kunnän*, nondan ~ *nännän*, Samarqanddan ~ *samarqännän*. Bunday holat Xorazm qipchoq-o‘g‘uz shevalarida ko‘proq uchraydi⁸⁴.

⁸² Мирзаев М.М. Ўзбек тилининг Бухоро гурпуи шевалари. – Ташкент: Фан, 1969. – Б.47.

⁸³ Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 53.

⁸⁴ Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 52.

O‘shor qishlog‘i qariyalari nutqida **-keyin** ko‘makchisidan oldin kelgan chiqish kelishigi qo‘shimchasi **-nä: (undän)** (*Xuparilärdi Xubbari degän xuddiki bir čiräjli pärigä oxšägän, Inä: kejin mänä bu ošärgä kegännän kejin bizzi bābājlä nām qojgän*) ko‘rinishi uchrashi qayd qilindi.

Chiqish kelishigi ba‘zan boshqa kelishik qo‘shimchalari o‘rnida yoki ular bilan parallel keladi: dunyoda ikki o‘g‘lim bor ~ *dünjädän ekki o(γ)lim bār*, qo‘lda tikamiz ~ *qoldan tikämiz*, sendek odamning boridan yo‘g‘i yaxshi ~ *sāndaqañi ādāmdän bāridän joyi jaxši*, qovun qovunni ko‘rib rang oladi ~ *qāvun qāvundan rāñ ālädi*; Farg‘onachilar nutqida: tekinga pensiya olyapti ~ *tekinnän pensijä āläpti*. Shevalarda parallel yoki o‘rnida qo‘llanish Parkent, Qo‘qon, Xazorasp, Qarshi, Yangiariq, Niyozboshi, Farg‘ona, Andijon shevalarida uchraydi⁸⁵. O‘zbek xalq shevalarida kelishiklar qo‘llanishi jihatidan deyarli bir-birini takrorlaydi bunday ko‘rinishga kelishiga esa adabiy til va aholi migratsiyasi sabab deb qaraladi.

Ko‘plik shakllari. Qadimgi yozma yodgorliklar hamda eski o‘zbek tilida otlardagi grammatik ko‘plik ma‘nosi, asosan, **-lär** (lar) affiksi orqali ifodalangan. Hozirgi turkiy tillarda ham **-lär** qo‘shimchasi singlarmonizm, assimilatsiya, undosh tovushlarning tushirilib talaffuz etilishi kabi fonetik sabab bilan vujudga kelgan ikki va undan ortiq fonetik variantlari bor.

Denov qarluq guruh shevalarida ko‘plik qo‘shimchasi **-lär, -lä, -ä** shaklida qo‘llanadi.

*Män kor bollim **bulä** tärmäškäni tärmäškän imām bogin dep.*

*Zijādullā mudir kičkinä qajnāyam bir sārkämi, nimä sojdi **üzizlärimizgä** kejin bāvāni ālip ketti.*

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qarluq lahjasining barcha shevalarida ko‘plik affiksining **-lä** varianti juda keng qo‘llanadi. Toshk.: *kočälä, dällä* (donlar), Jizz.: *jigillä*, Naman.: *mehmānlä, Tagob.: xātinlä*, Namang.: *xātillä*; **-la, -lä** affiksining qo‘llanishiga ko‘ra qarluq, o‘g‘uz shevalari qorachoy-balqar tiliga o‘xshash⁸⁶.

Ko‘plik qo‘shimchasining Andijon, Qo‘qon, Uychi, Oshoba va Janubiy Qirg‘iziston qarluq shevalarida uchraydigan **-na, -nä, -nē**⁸⁷ ko‘rinishlarida Denov qarluq shevalarida **-na, -nä** qo‘shimchasi sporadik ravishda uchraydi: qudalarnikiga bordinglarmi ~ *qudalārikigä bārdijnä(r)mi*.

-lär affiksi odatda egalik va kelishik qo‘shimchalaridan oldin, ba‘zan esa keyin qo‘shiladi. Qarluq tip shevalarda adabiy tildagidek egalik

⁸⁵ Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 54.

⁸⁶ Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 8.

⁸⁷ Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 9.

qo‘shimchasidan oldin *-lär* affiksi ko‘plik ma’nosida beradi. Akalarim ~ *äkälärim*, bolalari ~ *bäläläri*, kitoblari ~ *kitābläri*.

O‘zbek shevalarida juft va takroriy so‘zlar orqali ko‘plik ma’nosini hosil bo‘lishi o‘zbek adabiy tiliga nisbatan faol uchraydi: And. *ъдъи-айағ* (ko‘p idishlar); Hasp: *улль-кьчъләр* (katta-kichiklar); Mang‘: *машын-машын бала-чага кегән* (moshin-moshin bolalar kelgan)⁸⁸.

sen, biz, siz, u olmoshlari ko‘plik qo‘shimchasini olib turli shakllarda uchraydi. *sen* olmoshi *-lär, -lä* qo‘shimchalarini qabul qilib quyidagi shakllarda qo‘llanadi: *senlar* ~ *sen+lär* // *senlä*.

Bu shakl tengdosh va o‘zidan kichiklarga nisbatan kengroq qo‘llanadi. Jamlik, ta’kid qisman hurmatsizlik, kamsitish va mensimaslik ma’nosida qo‘llanadi. Andijon shevasida bu shakl ko‘proq nazarga ilmaslik va mensimaslik, kamsitish ma’nolarida ishlatiladi⁸⁹. *-lär* qo‘shimchasi regressiv assimilatsiyaga uchrab *senlar sellär, sellä* talaffuz qilinadi.

Sellä bārevor ozim jetib ālāmān.

Uzimdi sellägä deb sāttime (O‘shor).

Biz olmoshiga *-lär* qo‘shimchasi qo‘shilib quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi: *bizlär, bizär bizlä, bizä*. Bu shakllarning *bizlär* va *bizär* ko‘rinishi *bizlä, bizä* ko‘rinishlariga nisbatan kam qo‘llanadi.

Bizä ajmāqqa kirmäjmiz (O‘shor).

Siz olmoshi *sizlär, sizlä, silär, silä* shakllari uchraydi. O‘zbek shevalarida *biz, siz* olmoshlari *-lär* qo‘shimchasini olib ko‘plik ma’nosidan tashqari xushmuomalalik, hurmat, kamtarlik ma’nolari bilan birga kesatish, kamsitish, mensimaslik, mazax qilish, hurmatsizlik ma’nolarida ham ishlatiladi.

Denov shevalarida *u* olmoshi ko‘plik ma’nosida *-ulär, -ulä* shaklida qo‘llanadi. Bundan tashqari *bu, shu* olmoshlari ham ko‘plik qo‘shimchasi *-lär* bilan kelganda *r* tovushi tushib qolib *bulä, šulä* shaklida talaffuz qilinadi.

Denov qarluq shevasida ko‘plik qo‘shimchasi anglatgan ma’nolar o‘zbek adabiy tilidagi ma’nolar bilan farq qilmaydi. Ba’zi misollar bilan buni ko‘rishimiz mumkin.

a) *sof ko‘plik ma’nosini ifodalaydi:*

Bällärim jās edi.

Ätlärdi häjdäjverijlä otläb jursin.

Mänävini bällär izidän jurädi Zijädulläjev šiddäti bäländ, häräkäti zor, bällärgä bilim jetküzib berişi jaxši.

⁸⁸ Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 10.

⁸⁹ Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 10.

b) **umumlashtirish ma'nosida:**

Endi berdä qışlāydi tub jāsājdigän ähālisi äjmāylär bogän u jetti xožalik äjmāylär dejdi.

Āčilāflärniñ suläläsi respän firtän, – dejdi (O'shor).

Kičkinä qajnāyam bir sārkāmi nimä sojdi äzizlärimizgä.

Ānävi trimāmni içidän ^kxāsätāvāyimni ürib ketgän.

Kejin män uç kun kelin qizlä minän kāsä tävāqni qaträn qilib tändirni āqartirib, män uş kun xizmat qildim (Cho 'ntosh).

c) **chama-taxminni bildiradi:**

Ustigä eski kijim ādām oşä päjtlär kok žuldir čäpän kijärđi.

Män kor bollim bulä tärmäškäni tärmäškän imām bogin dep.

Män qajdan bilämän oşanaqa čiyin ädirlägä jurgänini.

Uşä birinči mättä issiy nän pişiruvdim kejiñi märtäjäm berivärdim uş-tort sātälädän keyin sātät unbirlägä ālip ketgän bosä sātät torlägä bāstirib kelli, şunāj qib menäm bir tuşdim (Cho 'ntosh).

d) **ma'noni kuchaytirish, ta'kidlab ko'rsatish uchun:**

U kişi xat jāzib berädilärki xalpaläri xatti ilānlä pāsşāsığä ābārädi.

Vaxşivārgä hāzir:äm qolläri minän jāsägän mäçitläri bār.

Mānerād mäçit qiliştilär häm beş jil namāz oqiştilär, mämement žumä nāmāzdi täşkil qiladi.

Mulā Rāžap bāvä täşkil qildi pänä žājlägä, hilvät žājlägä oqidik, bungä şäräit qisañiz.

Hä jaxşi sizdi mävvuziñiz nimä jonālišgä, hä denāv şeväläri endi bungä qonyirätlärđi, dormānlärđi, ž-lāvčilärđi, täžik äräläş sulälälär,[ni kiritasizmi].

e) **hurmat ma'nosida:**

Nijāz bāqi degän ekitä xalpaläri (bogän) bār äkän; — kejin vaxşivārgä bārgänlädä oşaqä qāgänlä (Sohibkor).

Ičkäriğä kiriñizlär qani.

Duldurläri otlāb kelib suv bomägän, ātläri tujāyi bilän kāvlāb suv čiya(ā)rib içgän (O'shor).

f) **hurmatsezlik, kesatish, kamsitish ma'nosida:**

Ha: mälimātlä:ni āldiñiz; — bir qism kegänlär dedim, kejin aččiyim čiydi jiyiliş idi **fatx** xatā dedim.

Bizdi qışlāqqa birāvlä ozläričä temurijlär ävlādidänmiz degäni nātoyri.

Kesinlä — kesinlä qani torgä čiqsinlä sizzi qačan kelärkän deb kozimiz tor(t) boluvdi-dä.

Bazan *seniñ bärin* ~ *seni bärin* birikmasi ham hurmatsizlik, kamsitish ma'nolarida qo'llanadi. Bu qo'llanish ayrim qipchoq shevalarida ham shu ma'noda anglashiladi. *Baxm.: Seni bärin bir iştin üddäsidän çiqmajsän.*

Denov tumanining O'shor qishloq shevasida yoshi kattalar nutqida ba'zan yoshlar orasida ham hurmat ma'nosida *-älä* qo'shimchasi ishlatiladi. Masalan: dadanglar uydami ~ *dädäñälä ujdämilä*; onanglar kelmadilarmi ~ *änäñälä kemädilämi*.

Bu qo'shimcha hurmat ma'nosida ishlatiladi, ammo bu affiks adabiy tilda uchramaydi. Lekin S.Ibrohimovning ma'lumot berishicha Andijon shahrining ayrim mahallalarida ayollar nutqida qarindosh-urug'chilikni bildiradigan so'zlarda *-lär* affiksidan oldin bir *ɔ* yoki *ə* tovushi ortirib *əkmälär//əkmə:lär* talaffuz qilinadi⁹⁰. Sh.Shoabdurahmonov boshchiligidagi yozilgan O'zbek xalq shevalari morfologiyasida *-ala//älä* qo'shimchasi Andijon shevasida ayollar erkaklarga murojaat qilganida *mullä äkä//mullä äkä* so'zlarini qo'shib ishlatishini va bu qo'shimcha shu so'zlarning qisqargan shakli bo'lishi mumkinligi haqida ma'lumot beriladi. Bundan tashqari tojik tilida *mullä* so'zi *mullä* shaklida talaffuz qilinishini ham inobatga olish kerakligi ta'kidlanadi. Yuqoridagi fikrlardan shu ma'lum bo'la-diki, Andijon shevasida *əkm(ull)älär* ~ *əkmälär*, *əkm(ull)älär* ~ *əkmə:lär* shaklida qisqarishga uchragan⁹¹. O'shor qishloq shevasida esa bu qo'shimcha Andijon shevasida bo'lgani kabi emas, chunki bu qishloq aholisi nutqida *mullä äkä* so'zi ishlatilmaydi. O'shor qishloq aholisi kaltatoy, musobozori, chekalik, barlos va tojik tilli aholi bilan bir qishloqda qo'shniçilikda yashaganligi natijasida tojik tilining ta'sirida *mulla aka //mullä äkä* so'zi qisqarib tub aholi nutqida qisqargan shakli saqlanib qolgan bo'lishi mumkin. Bu qo'shimcha hudud shevasida ko'plik ma'nosida ishlatilmaydi faqatgina hurmat ma'nosida qo'llanadi. *-älä* affiksidagi uning *-ä* qismi qanday hodisa ekanligi munozaraga asos bo'lib qolaveradi. Bizning nazarimizda bu affiks funksional bo'lmagan ko'plik (jamlik) affiksdir, balki bu affiks Toshkent shevasida *bāramizä* fe'li tarkibida ham mavjud. Bu affiksning ko'plik affiksi ekanligini ushbu qiyoslov ham ko'rsatib turibdi: *dädäñälä ujdämilä* ~ *dädäñizlā ujdämilä* (*z~a*). Denov qarluq guruh shevalarida ko'plik va hurmat ma'nosida *-lär, -lä, -nä -ä, -älä* qo'shimchalari qo'llanadi. Adabiy tilda bo'lgani kabi shevada ham ko'plik-egalik qo'shimchalarining birgalikda qo'llanishi hurmat, ko'plik ma'nolarini vujudga keltiradi. Birlik, ko'plik, hurmat-

⁹⁰ Иброҳимов С. Ўзбек тилининг Андижон шеvasи. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 135.

⁹¹ Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 16.

hurmatizlik, kamtarinlik, manmanlik kabi ma'nolar so'zlovchining nutq ohangiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Fe'lga xos ayrim xususiyatlar. Aniq o'tgan zamoni ifodalashda *-di/ti* affiksidan foydalaniladi. Unli tovushlar va jarangli undoshdan keyin *-di* affiksi (*bārdi, keldi, turdi, uxlādi*), jarangsiz undoshdan keyin *-ti* affiksi (*otti, ketti, išti (ichdi), bāsti*) qo'llaniladi.

Uzoq o'tgan zamoni ifodalashda I tip qarluq shevalarida adabiy tildagi kabi yolg'iz *-gän/-kän/-qan* bilan birgalikda fe'lning analitik shakllari *-gän edi, -jātgän edi, -(ä)r edi* ko'rinishidagi to'liqsiz fe'l ham ifodalanadi, *bārgän edi, kelgän edi*.

Hozirgi zamon davom fe'li *-jāp* affiksi bilan ifodalanadi, undosh tovush bilan tugagan fe'l o'zagi va mazkur affiks o'rtasida bitta *ä* tovushi orttiriladi, *kelājāppän/ kelājāpmän, orājāpmän, ketājāpmän, oqijāpmän* (Denov shahar).

Hozirgi-kelasi zamon fe'li *-ä* va *-j* affikslari bilan qo'llaniladi, *bārādi, oqijdi*.

II tip qarluq shevalarining morfologik xususiyatlari:

O'tgan zamoni ifodalashda qo'llaniladigan analitik shakllardan *-(ä)r edi* shakli bo'lishsizlik holatida *-mär edi* ($r > s$ emas) ko'rinishida ifodalanadi, *bārmär edi, kirmär edi* kabi. Bu esa, bo'lishsizlikni ifodalovchi tarixiy *-mär* shaklining shevada hamon saqlanganligini ko'rsatadi. Shuningdek, *-mär* va uning orqa qator *-mar* shakllari turkman va ozarbayjon shevalarida ham saqlangan⁹².

Hozirgi zamon davom fe'li *-āp* shakli bilan ifodalanadi, *bārāpmän, kelāpmän*. Faqatgina de, ye so'zlari kabi unli bilan tugagan fe'l asoslariga *-jāp* shaklida qo'llaniladi: *dejāpmän, jejāpmän*. Buxoro guruh shevalari kabi *-lä* fe'l yasovchi affiksi bilan yasalgan fe'llarda *-lä* affiksidagi *ä* tushib qoladi va *-āp* affiksi qo'llaniladi: *ishlayapman ~ iślāpmän/ iślāmmän*⁹³.

Bob bo'yicha xulosalar

1. Surxondaryo Denov areali nisbatan murakkab areal bo'lib, unda qarluqlar, qipchoqlar hamda tojiklar yashaydilar va ulardan qarluq shevalari boshqa shevalarga va tojik tiliga nisbatan kengroq tarqalgan.

2. Denov qarluq shevalari, asosan, 6 unlili sheva, lekin Qo'ybesh, Cho'ntosh, Qizilfarg'ona, Oybarak, Qoraxon shevalari 7 unlili sheva

⁹² Амансарыев Ж. Туркмен диалектологиясы. – Ашгабат, 1970. – Б. 349.; Нахчыван МССР-ин диалект ва шивеләри. – Бақы, 1962. – Б. 141.

⁹³ Мирзаев М. Ўзбек тилининг Бухоро группа шевалари. – Тошкент: Фан, 1969. – Б. 58.

hisoblanadi. Bu shevada umumturkiy **a** unlisi ham qo‘llanadiki, bu jihatdan o‘zbek tilining Marg‘ilon, O‘sh Andijon shevalariga yaqin turadi. **a** unlisi bu shevalarda so‘zlarning birinchi bo‘g‘inida qo‘llanilishi xarakterli bo‘lib, uning mavjudligini qipchoq shevalari bilan kontakt natijasi deb qarash ham mumkin.

3. Unli va undoshlar xarakteristikasi o‘zbek tilining 6-7 unlili shevalar bilan aynanligini ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, qarluq shevalariga xos xususiyatlar O‘zbekiston Respublikasida, deyarli bir xilda saqlanayotganligidan darak beradi.

4. Denov shevasining o‘ziga xosligi shundaki, bu shevada egalik affikslaridan so‘ng ko‘plik affiksining *-älä (dädäñälä)* varianti qo‘shiladi. Bu holat boshqa shevalarda qayd qilinmaydi.

5. Denov qarluq shevalaridan ba‘zilarida (Cho‘ntosh, Qizilfarg‘ona, Qoraxon, Oqlar, Qiziljar) qipchoq shevalariga xos diftong (*ikki ~^jeki, ellik ~^jelli(j), endi ~^jenni, ^von, ^vottiz*) qayd qilinadi. Albatta, bu hodisa qipchoq shevalariga yaqin shevalar va aralash shevalarning ta’siridir.

6. Denov qarluq shevalari fonetikasida qipchoq va tojik shevalari ta’siri sezilmaydi, lekin ba‘zi o‘rinlarda **t//d** mosligida o‘g‘uz shevasiga xos xususiyat ko‘zga tashlanadi. Bu xususiyatni o‘g‘uz shevasining ta’siri deb qarash mumkin emas, chunki Denov shevasi o‘g‘uz shevasi bilan kontaktda bo‘lgan emas. Bu xususiyat Toshkent, Turkiston qarluq shevalarida ham qayd qilinadiki, uni o‘zbek tilida avvaldan kelayotgan hodisa sifatida sanash lozim bo‘ladi.

7. Denov shevasidagi tovush mosliklari va fonetik jarayonlar, umuman olganda, qarluq lahjasi xususiyatlariga mos keladi.

II bob. DENOV QIPCHOQLARI SHEVALARINING XUSUSIYATLARI

2.1. Qipchoq shevalarining tovushlar tizimi

Surxondaryo o'zbek shevalari Y.D.Polivanov, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov tasniflarida 3-lovchi guruh sifatida ajratiladi. Surxondaryo viloyati hududiga qipchoqlar XI asrda ko'chib kelishi boshlangan⁹⁴. XII-XIII asrlarda esa Chingizxon qo'shini bilan kirib kelgan qipchoq o'zbeklari o'zlarini mo'g'ul deb atashgan va qo'shin bilan O'rta Osiyo bo'ylab tarqalishgan. Rashididdinning keltirgan ma'lumotlariga ko'ra, qo'shinda *jaloyir, tatar, merkit, barqut, saljuvut, qo'ng'iroq, qiyot, sulduz, o'ngut, boyovut, bahrin* singari turk-qipchoq urug'lari bor bo'lgan⁹⁵. Surxondaryo viloyatining barcha tumanlarida qipchoq lahjasi vakillari istiqomat qiladi.

Denov tumanida qipchoq lahjasi vakillarning qo'ng'iroq, juz (yuz), nayman, do'rmon, jovlivoy, qiyot, kenagas, ko'r, pirs'o'ydi//pirshayx, chelaki, jovgo'shti, no'g'oy, olchin, mojar, jaloyir, laqay, oyinli, karsagan urug'lari yashaydi. Asosan bu urug'lar Denovning Yangihayot (juz, qo'ng'iroq, sinachi), Nurli manzil (juz, qozoq, qirg'iz, tatar, sinachi, barlos), Ibn Sino (juz, tatar, kaltatoy, barlos), O'rikzor (juz, qo'ng'iroq, tatar, sherabodi, boshqird, xo'jalar, toqchilar, sangardagi, turkman, qozoq, sinachi), Buyuk kelajak (qo'ng'iroq, juz, qozoq, vaxshivori, sangardagi, sinachi, turkman), Lolazor (qo'ng'iroq, sherabodi, juz, afg'on, toqchi, vaxshivori, darbandi, dehqonobodi, g'uzori), Guliston (qo'ng'iroq, tatar, qirg'iz, toqchi, turkman, xo'ja, sinachi), Mehr-oqibat (qo'ng'iroq, juz, turkman, tatar, dehqonobodi, g'uzori, chinori, sinachi, rus, toqchi), Istiqbol (qo'ng'iroq, juz, qorategin, turkman, sinachi,) Jamatak (qo'ng'iroq, juz, turkman, kitobi, dehqonobodi), Tasma soy (qo'ng'iroq, juz, to'langi, tatar, dehqonobodi, buxorolik, farg'onachi, sangardagi, machay, toqchi), Qovunli soy (qo'ng'iroq, juz, oyinli, bolg'ali, ochamayli, farg'onachi, buxorolik, qarshilik, eronlik, qozoq, arab), Dunyotepa (qo'ng'iroq, dehqonobodi, ochamayli, kitoblik, kalbacha, sangardagi, boysunlik, oyinli, tojikistonlik, chinori, arab, turk, farg'onachi), Qo'zichoqli, Xo'jaxalqi (qo'ng'iroq, juz), Istiqlol yulduzi (juz, qo'ng'iroq, turk, tojik, barlos, musobozori, chinori), Elobod, O'rta qishloq, O'zgarish, Obodon, Yangi obod, Namuna, Qiziljar, Ozod, Oqqo'rg'on, Yoshlik (qo'ng'iroq, juz,

⁹⁴ [//">https://uz.wikipedia.org/wiki/Surxondaryo_viloyati //](https://uz.wikipedia.org/wiki/Surxondaryo_viloyati), [//">https://uz.wikipedia.org/wiki/Qipchoqlar](https://uz.wikipedia.org/wiki/Qipchoqlar)

⁹⁵ Дониёров Х. Эски ўзбек адабий тили ва қипчоқ диалектлари. Лекциялар тексти. – Тошкент: 1976. – Б. 12.

kalbacha, ko‘r, chelaki, pirsayz, sinachi, kaltatoy, eshonlar) mahalla fuqarolar yig‘inlariga qarashli qishloqlarda yashaydi. O‘rganilayotgan hudud aholisi bilan suhbat jarayonida ko‘pgina aholi vakillari urug‘ nomlarini, o‘zlarining kelib chiqish tarixini bilmasliklari, ayrimlari esa urug‘ nomini unutib yashagan shahri nomi bilan o‘zlarini nomlaganliklari aniqlandi. Mazkur areallardagi aholi qipchoq lahjasi shevalarida muomalada bo‘ladilar. O‘rganilayotgan hudud qipchoq lahjasini ba‘zi shevalarida -ā lashish sezilarli darajada yuqori: *ej k̄ānālgā qārab žürsāñiz Āhmād ākā desāñiz ājtadi, qājt-qājt degān qājtmāyan, sālāmatma, nārjaqa, ayājnilar, qāmāx’ānalarī bār.*

O‘rganilayotgan hudud qipchoq dialektini biz 2-guruhga bo‘lib o‘rganishni lozim topdik. 1-guruh 9 unli shevalar *a (a’), ä, i, i, o, ö, u, ü, e*. Bu shevalar qipchoq shevalariga xos xususiyatini saqlab qolgan, adabiy til, tojik tili va yondosh qarluq guruh shevalarining ta’siriga uchramagan shevalar; 2- guruh, ya’ni yondosh sheva, tojik tili va adabiy til ta’siriga uchragan shevalar, ya’ni 10ta unlili shevalar: *a, ä, ā, i, i, o, ö, ü, u, e*.

O‘zbek tili Surxondaryo shevalarini tadqiq etgan tilshunos S.Rahimov ham Surxondaryo viloyat ž-lovchi shevalarini 2 guruhga bo‘lib o‘rganadi⁹⁶. Oltinsoy, Denov, Uzun, Sariosiyo tumanlarida ž-lovchi sheva vakillariga nisbatan j-lovchi sheva vakillari hamda tojik tilli aholi soni salmoqlidir. Surxondaryoning janubiy tumanlarida esa buning aksi, faqat Termiz shahri bundan mustasno bo‘ladi.

Denov qipchoqlari shevasining xarakterli xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi.

Fonetik xususiyatlari: unllilar soni 9-10tani tashkil qiladi.

ā unlisi O‘zgarish, Eshako‘ldi, Zartepa, Chuqurqishloq, Chim, Obodon, O‘rmon, Qoraxon (ž-lovchilar), Qizilsuv, G‘alaba, Hayrabod, O‘rtaqishloq, O‘rtabo‘z kabi qishloqlarning aholisi nutqida mavjud bo‘lib, qolgan Qipchoq lahjasi vakillari nutqida orqa qator *a* ning varianti sifatida talaffuz qilinadi: palatal singarmonizm to‘liq saqlangan, labial singarmonizmning saqlanishi sayoz;

singarmonizmdan chekinish holatlari mavjud: qulog‘ingga tanbur chertyapmanmi ~ *qulayinā čildi:ma čilipdimä*, yerning tagida ilon qimirlasa bilmoq ~ *žerdi astida žilān qivirdasa bilmāq*, to‘rva qoqdi ~ *xalta qāxti*, zig‘ir yog‘dek ko‘ngilga urdi ~ *ziyir mājidek žurekkā urdi*.

so‘z o‘rtasi, oxirida *γ ~ v* almashadi: *tog‘ ~ tāv/tav*, *ag‘dar ~ āvdar*;

⁹⁶ Раҳимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари (Фонетика, Лексика). – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 13.

undosh tovushning tushishi yoki bo‘g‘in qisqarishi natijasida unlilarning cho‘ziqligi kuzatiladi: muhlat ~ *mö:lät*, muttaham ~ *müttä::m*, maslahat ~ *mäslä:t*;

Kontrast juft unlilar saqlangan. Shevada old qator va orqa qator unlilar ma’no farqlash xususiyatini saqlab qoladi: ishdagi unim ~ *ışdäji ünüm*, unim qolmadi ~ *unum qalmadi*.

Morfologik xususiyatlari:

-mi so‘roq yuklamasi **-ma, -mä**, shaklida (fonetik variantlari bilan ham keladi) talaffuz qilinadi: qildingmi ~ *qıldiñma*, turibdimi ~ *türüppä*, ko‘rdingmi ~ *kördiñmä*;

-ku yuklamasi **-qu** (sporadik ravishda **-yu**) talaffuz qilinadi. ko‘radi-ku ~ *koradi-qu* (Ху халойиқ, эгасини жеган анови Кўкалча галани бузиб *кетябди-қу*)⁹⁷.

Buyruq-istak mayli qo‘shimchasi **-yin//qin, -yun, -yaj//qaj**(*yāj//qāj*) shakllari bilan ifodalanadi: *qilayaj, barayaj, žijib qojayaj, mināvinī piširayaj, qojib qojayaj*.

Shevada **-lar** qo‘shimchasi hurmat ma’nosida ishlatilmaydi;

Kelishiklar soni 6ta bo‘lib fonetik variantlari bilan qo‘llanadi: **qaratqich:** *-niñ, -niñ, -diñ, -tiñ//diñ, tiñ*; **tushum:** *-ni//ni, -di//di, -ti//ti*; **jo‘nalish:** *-gä//ya, -kä//qa* (fonetik variantlari bilan); **o‘rin-payt:** *-da//ta, -dä//tä*; **chiqish:** *-dan//tan, -dän//tän, -nan//nän* affikslari fonetik variantlari bilan qo‘llanadi. Keyingi davrda adabiy til hamda atrof qarluq guruh shevalar ta’sirida qaratqich va tushum kelishi bir ko‘rsatkich **-ni** (fonetik variantlari bilan) ga o‘tishi kuzatilgan. Ba’zi qishloqlarida O‘rta qishloq, Hujum, 8-mart kabi O‘shor, Oybarak qishloqlari chegarasi kesishgan nuqtada yashaydigan ž-lovchi yoshlar va o‘rta qatlam nutqida o‘rin-payt va jo‘nalish kelishigi farqlanmasligini kuzatish mumkin.

Leksik xususiyatlar: suyak ~ *ustixan*, sochiq ~ *dästä(i)päk*, yulg‘un ~ *žinil*, (yulg‘un ilondek chirmashib ketgan ~ *jinil mār bop ketkāne*), *palla ~ vaqt*, mehmon bo‘lmoq ~ *qidirmaq* (opamnikiga mehmon bo‘lib keldingmi ~ *appamdiqiya qidirip keldinmä*), cho‘p ~ *čöki*, tuz totmoq ~ *madrat* (*madrat žeb ketäjik*)⁹⁸, tomizg‘i ~ *qonargi//ujutqi*⁹⁹, yostiq ~ *dāstiq*, qattiq shamol ~ *duvalañ*, ehtiyot bo‘l ~ *hävārdān bōl*, mahalla raisi ~ *elätqom*, mard, dangal ~ *žomard*, ergashtirib ~ *ijärtip*, ishton ~ *čalvar/balq*, g‘alvir ~

⁹⁷ “Алпомиш” достони. Хушбоқ Мардонакул ўғли вариант. Ёзиб олувчи: Тоштемир Турдиев. – Тошкент: Ёзувчи, 1998. – Б. 168.

⁹⁸ Uzoqdan kelgan shoshib turgan mehmonga dasturxon yozib mehmon qilishga nisbatan qo‘llanadi (Hazarbog‘).

⁹⁹ Qattiq tayorlash uchun sutga qo‘shilgan mahsulot, (qattiq) ni nomi.

γābir, -gacha (vaqt) ~ *dāvur* (*kechga dāvur*), aldamoq ~ *čajpaju*, och bo‘ri oralagan ~ *āč bōri žortayan*, mehmonga ketmoq ~ *āvullap ketu*, ozgina ~ *gärtäkänä*, past ~ *tömän/töbän*, baland/tepa ~ *töbä*, tengdosh ~ *bōjinsä*, bo‘yi yetgan ~ *bosalqa*, mo‘ylov ~ *murut(mur(i)t)*, yomg‘ir ~ *hävā*, madaniy ~ *xasaki*, tuxum ~ *mäjäk*, rayhon ~ *nazvāj(g)*.

Adabiyotlarda keltirilgan ma‘lumotlarga asoslanib¹⁰⁰ hamda shevadagi *ā* tovushi fonema darajasiga yetmaganligi sababli (1-guruh shevasi) orqa qator **a** fonemasining varianti hisoblanadi va uni **a^o** belgisi bilan berish mumkin.

Denov qipchoq lahjasidagi unlilar V.V.Reshetov tasnifidagi barcha qipchoq lahjasi uchun xos bo‘lgan 9-10 unli mavjud.

a fonemasi. Orqa qator, quyi-keng, lablanmagan, sof turkiy tovush so‘zning barcha bo‘g‘inlarida qo‘llana oladi. Bu orqa qator lablanmagan keng tovush qattiq aytiluvchi qadimgi turkiy so‘zlarning barcha holatida uchraydi: qag‘an (*KTb*, 35) — *xoqon*; *атлуз* (*Сувр*, 4) ~ *otli*; *buqa* (*ton*, 6) ~ *buqa*; *aba* (*MK*, 1,113) – *opa*; ... **a** unlisi singarmonizimli o‘zbek tili shevalarida ham *qajsi*, *tamyā*, *taryil*, *qoçqar*, *qutqar*, *maqta* kabi so‘zlarda saqlangan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida etimologik **a** unlisi turkiy so‘zlarning birinchi bo‘g‘inida *qaysar*, *qamchi*, *qaymoq*, *qaychi* kabi so‘zlarda qo‘llanmoqda¹⁰¹.

so‘z boshida: qarindosh, do‘st ~ *ayajin*, adog‘i (oxiri) ~ *adayi*, olgan ~ *a(l)yan*, orqa ~ *arqa*, arriq ~ *arriy/q//a^orriy/q*, ariq ~ *ariq//a^oriq*;

so‘z o‘rtasida: vaqt ~ *vaxt*, qolgan ~ *qayan*, bosgan ~ *basqan*, sariq ~ *sari*: // *sa^ori*: , taroq ~ *tarāy//ta^oraq* (*O‘zgarish*);

so‘z oxirida: bo‘lganda ~ *boyanda*, qara ~ *qara*, qilma ~ *qilma*, qishloq ~ *qišlaq*, bozorga ~ *bazarya*;

Tovush mosliklari:

a ~ *ā* mosligi: talqon ~ *tālqan*, qattiq ~ *qätti*, naryog‘i ~ *nārjayi*, yolg‘iz ~ *jalyiz*, qarindosh ~ *qarindaš//qārindaš*, qishloq ~ *qišlaq*, odam ~ *adam*, bola ~ *bala*, xotin ~ *xatīn*.

ä fonemasi. Old qator, quyi keng, lablanmagan unli. Shevada *ä* fonemasi barcha (**q**, **γ**, **x** undoshlari qatnashgan so‘zlardan boshqa) bo‘g‘inlarida keladi. Bu unli qadimgi turkiy til yozma obidalarida turkiy so‘zlarning barcha pozitsiyasida; eski turkiy hamda eski o‘zbek tili yozma yodgorliklarida birinchi bo‘g‘indan keyingi pozitsiyalarda uchraydi. *ä*

¹⁰⁰ Дониёров Х. Бахмальский говор узбекского языка: Дис. ... канд.филол.наук – М.: 1955. – С. 12-13.; Абдуллаев Ф. К вопросу об оканье в узбекском языке // Ўзбек диалектологияси материаллари. 1. – Тошкент. 1957. – Б. 263.

¹⁰¹ Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. – Тошкент: Ижод, 2006. – Б. 45.

unlisining fakultativ varianti, ya'ni biroz lablangan varianti ham Denov tumanidagi Hazarboğ' qishloq **ǰ**-lovchilar shevasida lab-lab v undoshi bilan kelganda kuzatiladi: kuyov ~ *küjā^ov*, tunash ~ *tünā^ov*, o'tgan kun ~ *bürnä^okün*. **ä** unlisining bu ko'rinishda lablanib kelishi Surxondaryo viloyat Sherobod tuman **ǰ**-lovchilari shevasida ham kuzatilishi adabiyotlarda keltirilgan¹⁰². Bundan tashqari, Denov qipchoqlari shevasida **ä** va **ā** tovushlarini ayrim bir bo'g'inli so'zlarda almashtirib (aralash) qo'llash ham kuzatildi: *sāj//sāj*, *bār//bār*, *pāj//pāj*, *čāj//čāj*. Bunda so'zlarda ma'no farqlanmaydi faqat bir so'zning ikki xil talaffuz varianti yuzaga keladi. Bir bo'g'inli so'zlarning hammasida ham ma'no farqlash xususiyati yo'qolmaydi: *pāt* (*qushning pati*), *pāt* (*terlash*), *čāt* (*chatmoq*), *čāt* (*chot*), *āstā* (*sekin*), *āstā* (*ostida*). Barcha davrlarga oid yozma manbalarda yumshoq talaffuzli so'zlar bilan birga keladi:

so'z boshida: aka ~ *ākā*, ayt ~ *ājt*, art (*tozala*) ~ *ärt*, arava ~ *ärābā*, sekin ~ *āstā*, azamat ~ *āzāmāt*;

so'z o'rtasida: dam ~ *dām*, kal ~ *kāl*, badan ~ *bādān*, kesak ~ *kāsāk*, kemtik ~ *kāmtik*, chekkadan ~ *čākkādān*, siyosat ~ *sijāsāt*, sifat ~ *sipāt*;

so'z oxirida: makkajo'xori ~ *mākkā//sota*, yakka ~ *jākkā*, o'zlariga ~ *ōzlārigā*, yigirma ~ *igirmā*, menga ~ *māñā*;

Tovush mosliklari:

ä ~ **e** mosligi: egät ~ *ägāt*, yanga ~ *jeñā*, masjid ~ *mečit*(*māčit*);

ā fonemasi. Orqa qator, quyi-keng, qisman lablangan unli shahar va shahar tipidagi shevalarda keng uchraydi. Qipchoq guruh shevalarining adabiy til, tojik tili va qarluq tip shevalar ta'siri bor hududlarida faolroq uchraydi. So'zning barcha bo'g'inlarida qo'llanadi.

Professor A.Rustamov **ā** fonemasi XV asr adabiy tilida tojik tilidan o'tgan so'zlar tufayli ba'zi turkiy so'zlarda **a** tovushining **ā** tovushiga siljishini ko'ramiz degan fikrni aytadi¹⁰³. Y.D.Polivanov va N.Z.Hojiyevlar bu tovush forsiy (eroniy), tojik tili ta'sirida vujudga kelgan deb hisoblaydi¹⁰⁴. A.Mamatqulov Sherobod tuman shevalarida **ā** tovushining paydo bo'lishini **ϕ**, **κ**, **ξ** tovushlari hamda **j**-lovchi shevalar ta'sirida paydo bo'lganligi haqida fikr bildirgan¹⁰⁵. Buning isboti sifatida

¹⁰² Маматкулов А. Шеробод районидаги “дж” ловчи шеванинг унлилар системаси ҳақида // Илмий асарлар. – Тошкент: ТДПИ, 1959. – № 12. – Б. 162.

¹⁰³ Рустамов А. XV аср ўзбек адабий тилининг вокализми // Ўзбек тили ва адабиёти, 1963. – № 6. – Б. 67.

¹⁰⁴ Бу ҳақда қаранг: Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent. Nodirabegim, 2021. – Б. 33.

¹⁰⁵ Маматкулов А. Шеробод раёнидаги “дж” ловчи шеванинг унлилар системаси ҳақида // Илмий асарлар. - Тошкент: ТДПИ, 1959. – № 12. – Б. 161.

bir va ikki bo‘g‘inli so‘zlarni ikki tilli sheva, **j**-lovchi sheva hamda **ʒ**-lovchilarda bir xil talaffuz qilishini keltiradi: *бэр, чэй, нэдэ, эшнэ, тэл, элэ*¹⁰⁶. Bu tovush ko‘proq so‘zning birinchi bo‘g‘inida aniq eshitiladi: *sābān, ʔālla, ʔāldir, māqāl, ātā, tāl, qā(l), tām*.

Bu unlining qo‘llanish imkoniyatlari:

so‘z boshida: olmoq ~ *ālmaq*, ovul ~ *āvil*, o‘tov ~ *otāv*;

so‘z o‘rtasida: tog‘ ~ *tāv*, belbog‘ ~ *belbāv*, javob ~ *ʒüivāp*, chayqalib ~ *čājqalib*, Bobotog‘ ham ~ *Bāvatāv:am*, tavoq ~ *tābaq*;

so‘z oxirida: asosan o‘zlashgan so‘zlarda keladi: Odam Ato ~ *Ādām Ātā*, xudo ~ *xudā*, podsho ~ *pāššā*, taolo ~ *ta:lā*, balo ~ *bālā*;

ā ~ *a* mosligi: jumboq ~ *ʒumbaq*, tuproq ~ *turpaq(ʔ)*, qishloq ~ *dišlaq*, tavoq ~ *tābaq*.

e fonemasi. Old qator, o‘rta-keng, lablanmagan unli. Barcha o‘zbek shevalarida qo‘llanadi. So‘z boshida asosan diftonglashadi: *ʔendi, ʔenāsi, ʔečki, ʔeki*. Asosan birinchi bo‘g‘inda qo‘llanadi. Shevada bu ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarning oxirida va chuqur til orqa **q, ʔ** tovushlari bilan yonma-yon kela olmaydi, ba’zi o‘zlashgan va undov so‘zlar bundan mustasno.

so‘z boshida: elak ~ *eläk|ʔeläk*, ehson ~ *e:sän*;

so‘z o‘rtasida: univermag ~ *invermäg*, kelyapti ~ *kelāpti*, kelin ~ *kelin*, kelib ~ *kev*, yetti ~ *ʒeti*;

Tovush mosliklari:

e ~ *ä* mosligi: men ~ *män*, sen ~ *sän*, kema ~ *kämä*, dedi ~ *dädi*, aytdim ~ *ejtim*, mahkam ~ *mekkäm*;

e ~ *ö* mosligi: tepa ~ *töbä*;

e ~ *i* mosligi: teginma ~ *tijinmä*, tegirmon ~ *tijirmän*, deyman ~ *dijmän*, ergash ~ *irgäš*, tekkan ~ *tijgän* va aksincha ikki ~ *ekki*.

i fonemasi. Old qator, yuqori-tor, lablanmagan unli. Barcha shevalarda bor, o‘rganilayotgan shevada so‘zning barcha bo‘g‘inida (**q, ʔ, x** chuqur til orqa undoshlari qatnashmagan so‘zlarda), old qatorli unlili so‘zlarda kela oladi. Qoraqalpoq va qozoq tilidagi **i** ga o‘xshash tovush. Bu tovush (*d, s, č, š, j*) tovushlari bilan kelganda old qatorlik xususiyatini saqlaydi: *deydi ~ dijdi*, *digil ~ dijil*, sig‘adi ~ *siʔädi*, qor aralash yomg‘ir ~ *šivbär*; burun tovushi (*m, n, ŋ*), lab tovushi (*b*), sayoz til orqa tovushlar (*k, g*) bilan yonma-yon kelganda biroz orqa qator pozitsiyaga o‘tadi¹⁰⁷. Denov qipchoqlari

¹⁰⁶ Маматқулов А. Шеробод районидаги “дж” ловчи шеванинг унлилар системаси ҳақида // Илмий асарлар. – Тошкент: ТДПИ, 1959. – № 12. – Б. 161.

¹⁰⁷ Раҳимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари (Фонетика, Лексика). – Тошкент: Фан, 1985. – Б.31

shevasidagi bu tovush sonorlar bilan kelganda juda qisqa talaffuz qilinadi: birov ~ *bi^oräv*, bilan ~ *mi^onän*, birga ~ *bi^olä*.

so‘z boshida: ergashtirib ~ *ijärtip*, edi ~ *idi*, ilohi ~ *illäji*, hisobot ~ *isäbä(ā)t*, igna ~ *ijnä||ignä*, ichira olmasam ~ *ičirä(ā)mäsä:m*;

so‘z o‘rtasida: piyola ~ *pijälä*, ipak ~ *jipäk||žipäk*, pilita ~ *piltä*, deysan ~ *dijän*, til ~ *til*, shiypon ~ *šippän*, diyor ~ *dijär*, bu yil ~ *bijil*;

so‘z oxirida: dedimi ~ *dejdimi*, nima edi ~ *nimäjdi*, juda ~ *middi*, Olimning telefoni ~ *ā^olimdiñ tilpäni*, birovi ~ *birävi*, kelib aytdi ~ *kel:äyti*, kelinli ~ *kelinli*;

Tovush mosliklari:

i ~ a mosligi: beriroq ~ *beralay*, ozgina ~ *az yana*;

i ~ ä mosligi: nihol ~ *nä:häl(nä:äl)*, nihoyat ~ *nähäjät*, o‘n ikki ~ *önäki*;

i ~ e mosligi: hisob ~ *hesäp*, behurmat ~ *bihürmät*;

i ~ ü mosligi kuchli ~ *küč/šlü*, yuring ~ *jürün*, shunday qilib ~ *šüjtüp*, etik tikib o‘tiribdi ~ *etük tikip ötürüpti*.

ï fonemasi. Orqa qator, yuqori tor, lablanmagan unli. Singarmonizmli shevalarda qo‘llanadi. **ï: va i:** cho‘ziq unlilar shevada fonema darajasiga yetmagan. Bu tovushni Y. D. Polivanov *ω* grafemasi bilan belgilaydi va orqa qator, qisqa unli ekanligini ko‘rsatadi. Y. D. Polivanov bu qisqa unlini *a:riqtin čiqti, ašxa:nadin čiqti* so‘zlarida qayd qiladi¹⁰⁸.

so‘z boshida: yiqildi ~ *iqilli/iqildi*, ixlos ~ *ixlas*;

so‘z o‘rtasida: qir ~ *qir*, sig‘im ~ *siyim*, qiziqib ~ *qiziyip*, beradigan ~ *beratiyan*, tiqin ~ *tiiin*.

o fonemasi. Orqa qator, o‘rta-keng, lablangan unlini. Barcha o‘zbek shevalarida talaffuzda bor: So‘z boshida diftonglashadi: - *ʷo*, — *ʷo*, - o‘rta ovul qishlog‘i ~ *ʷorta āvil qišlayi*, o‘g‘ri ~ *ʷoyri*. Y.D.Polivanov bu tovush haqida shunday deydi: “Bu ruscha **o** emas balki undan farq qiladigan **o** va **u** orasidagi bir tovushdir. Bu turkiy o‘zakli so‘zlarning faqat birinchi bo‘g‘inidagina uchraydi¹⁰⁹” masalan: *озль, тохъм, қорқақ, зочқар*.

so‘z boshida: o‘choq ~ *očay*, o‘roq ~ *oray*, o‘rtoq ~ *ortay*, o‘qigansan ~ *oqigansan*, yo‘liqib ~ *žoliyip*;

so‘z o‘rtasida: qo‘ng‘irot ~ *qonyirat*, bo‘lgan ~ *boyan*, qo‘limdan ~ *qolimdan*, tepalikda ~ *donrāyda*.

¹⁰⁸ Iqon shevasida bu so‘z *čü:rik* shaklida uchraydi. Qarang: Xidraliyeva Z. O‘zbek tilining Iqon shevasi: Filol.fan. bo‘yicha falsfa doktori (PhD) diss. – Toshkent, 2023. – B. 15.

¹⁰⁹ Поливанов Е.Д. Введение в изучение узбекского языка. – Ташкент: Узгосиздат, вып. 1, 1925. – С. 8.

ö fonemasi. Old qator, oʻrta-keng lablangan unli. XI-XIX asr yozma obidalarida mustaqil fonema sifatida kelgan¹¹⁰: *könül* (ShN 3), *bökdi* (MK, II, 26), *ölmäk* (Nav., MK 150). Hozirgi oʻzbek adabiy tilida **ö** va **o** unlisi konvergensiya uchragan¹¹¹.

soʻz boshida: uyida ~ *öjidä*, oʻt ~ *öt* (-u), oʻrdak ~ *ördäj*, oʻrik ~ *örig(j)*, oʻzgarish ~ *özgäriš*, boʻl ~ *böl*;

soʻz oʻrtasida: choʻpon ~ *čöpän*, boʻlak ~ *böläg*, koʻpchilik ~ *köpčilig(j)*, tavba ~ *tö:bä*, koʻchirtirib ~ *köçitip*;

u fonemasi. Orqa qator, yuqori-tor, lablangan unli. **ž**-lovchi shevalarda barcha boʻgʻinlarda kela oladi.

soʻz boshida: uzoq ~ *uzay*, oʻgʻil ~ *oyil||ul*, uzum ~ *uzum*, yutmoq ~ *utmaq*;

soʻz oʻrtasida: buyruq ~ *bujriy||bujruy* quloq soling ~ *qulaqsāñ*;

soʻz oxirida: uyqu ~ *ujqu*, yuribdi ~ *žuruptu*;

Tovush mosliklari:

u ~ **ı** mosligi: tuproq ~ *tıpraq*, bu yoqda ~ *bıjaqda*, buyruq ~ *bujrıy*, uyqu ~ *ujqı*, murodga ~ *mıratqa*, xotiniga ~ *xatunıya*, jumboq ~ *žımbaq*;

u ~ **o** mosligi: dushman ~ *došman* (Oʻzgarish q.sh.), u yoqdan ~ *ojaqtan*;

gʻunan ~ *yonan*;

ü fonemasi old qator yuqori tor lablangan. Barcha singarmonizmli shevalarda mavjud.

ü ~ **ö** mosligi: shu ~ *šö*, shunday ~ *šöndäj*, shu zamon ~ *šözämān*, bu ~ *bö*, bunday ~ *böndäj*, bu moslik keyingi boʻgʻinlarda ham kuzatiladi: yulduz ~ *žüldöz*, kunduz ~ *kündöz*;

Old qator va orqa qator **u** ~ **ü** ikkinchi darajali choʻziqlikka ega boʻladi: suv ~ *sü*., chuv — *chu* ~ *čü*:-*čü*, turgandik ~ *turu:dıq*, suhbat ~ *sü:bät*, muhtoj ~ *mü:täž*.

Shevada old qator va orqa qator unlilar maʼno farqlash xususiyatini saqlab qoladi: ishdagi unim ~ *išdäji ünüm*, unim qolmadi ~ *unum qalmadı*.

Denov qipchoq shevalarida quyidagi **b, d, g, h, j, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, z, γ, š, č, ž, η** undoshlar mavjud. **F** tovushi ayrim undov va taqlid soʻzlarda uchraydi. Boʻgʻiz tovushi **h** koʻproq oʻzlashgan soʻzlarda uchraydi.

b undoshi – lab-lab portlovchi jarangli undosh. Bu tovush soʻz boshida, oʻrtasida, oxirida keladi. Soʻz boshi va oxirida jarangsiz **p** tovushiga oʻtadi: kitob ~ *kitäp*, olib ~ *äp*, kelib ~ *kep//käp*, sotib ~ *sätip*, borib ~ *bärip*, pichoq

¹¹⁰ Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. – Тошкент: Ижод, 2006. – Б. 47.

¹¹¹ Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. – Тошкент: Ижод, 2006. – Б. 47.

~ *bīčāq*||*bīčay*, butog' ~ *putāy*, bichmoq ~ *piču*, bit bildiq ~ *pit pīldiq*, butun ~ *pütün*, bitirdi ~ *pitirdi*, butkul ~ *pütkül*. Jarangsiz undoshdan oldin kelgan tor unlilar oldidagi **b** shevada **p** bilan almashadi: bitkazaylik ~ *pitkäräjlik*, bitdi ~ *pitti.*, butun ~ *piti:n*;

ikki soʻz oʻrtasida kelganda jarangsiz **p** bilan almashadi. Masalan: koʻplab (koʻp balo) // bir qancha ~ *köppälä*, olib bor ~ *äppär*, qilib ber ~ *qipper*; soʻzlarning oʻrtasida bu tovush **v** (spirantizatsiya hodisasi) bilan almashadi: bibi ~ *bivi*, labim ~ *lävim*, tobim ~ *täbim*||*tävim*, obod ~ *äväd*, qurbonlik ~ *qurvanniқ*||*qurbanniқ*, gʻurbat ~ *γurvat*, albatta ~ *älvättä*, xabar ~ *xavar*, gʻurbat ~ *γurvat*;

Soʻz boshida, oʻrtasida va oxirida **m** (b>m nazalizatsiya hodisasi) bilan almashadi: boʻyin ~ *möjin*, buni ~ *mini* // *müni*, bilan ~ *minän*||*milän*, burun ~ *mürün* // *mürin*(*birün*), bunday ~ *mündäj* // *möndäj* // *munnäq*, kambagʻal ~ *kammayal* // *kämmäyal*, laqab ~ *laqam*; boshoq ~ *maşaq*|*γ*; soʻz boshida, oʻrtasida tushib qoladi: doʻmbira ~ *dömirä*; I shaxs koʻplik koʻrsatkichining koʻplik formasida ham bu oʻzgarish kuzatiladi: boramiz ~ *bārabiz*, chiqamiz ~ *čiyabiz*. Bu xususiyatni M.Mirzayev Buxoro dialektida ham mavjudligini taʼkidlaydi: *ньчэқ, нуумъ* bilan bir qator *бъчэқ, буумъ, бьууқ*¹¹². Devonu lugʻatit turkda ham *bişaq*, *bişiy* koʻrinishlari uchraydi¹¹³.

b ~ **j** mosligi: Norbibi ~ *Nārbiji*||*Nārbüvi*, objuvoz ~ *ājžüvāz*.

b-v, **b-m** mosligi, yubormoq ~ *žüvärdi*, navbat ~ *nävmat*|*nāvbat*;

p undoshi lab-lab portlovchi, jarangsiz tovush boʻlib soʻzning barcha boʻgʻinida keladi.

p tovushi hamma oʻrinlarda lab-tish, jarangsiz **f** ning oʻrnida ham keladi: fikr ~ *pikr*, farq ~ *parq*, forma ~ *pārmä*, fursat ~ *pürsät*||*firsät*, fотиha ~ *patixa*||*pataxa*, safar ~ *säpär*, kaft ~ *käp*||*käpt*, kift ~ *kipt*||*kip*, sifat ~ *sipät*, iftor ~ *iptār*, daʼfa ~ *däpä*, safdosh ~ *säp*|*säbdāš*.

Qipchoq lahjasi ž-lovchilar shevasida **f** ning **p** ga oʻtishini Y.Polivanov va V.Reshetovlar ham taʼkidlab oʻtgan¹¹⁴.

Soʻz oxirida **p** bilan tugagan soʻzlarda egalik qoʻshimchasi qoʻshilsa, ikki unli orasidagi **p** tovushi **b/v** ga oʻtadi: top ~ *tabi*, qop ~ *qabi*, gap ~ *gäpi*||*gävi*, choʻp ~ *čöbi*||*chövi*, sop ~ *säbi*.

¹¹² Мирзаев М.М. Ўзбек тилининг Бухоро группа шевалари. – Ташкент: Фан, 1969. – Б.35.

¹¹³ Махмуд Кошғарий. Девону луғатит турк. I. – Тошкент: Фан, 1961. – Б. 25.

¹¹⁴ Поливанов Е. Д. Казак-найманский говор. Изв.АН СССР, 1-3, Ленинград серия VIII, 1931. – С. 97; Решетов В.В. Кураминский говоры Ташкентской области: Дис. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 1951. – С. 272.

Ikki, uch bo‘g‘inli so‘zlarda ham shu hol kuzatiladi: kepak ~ *kebäk*, topildi ~ *täbildi*, ko‘ppak ~ *köbbäk*, tepa ~ *töbä*, sepadi ~ *sebädi*, ko‘paymaydi ~ *köbäjmäjd*, xo‘p bo‘ladi ~ *xob boladi*, ko‘p ~ *köb*.

So‘z oxirida **p** undoshi unlilarda oldin **v** ga o‘tadi: top ~ *tävüp*, kalabash ~ *käläväväs*, sep ~ *sevip*, tep ~ *tevip*, (*tepi* yubor ~ *tevivār*), chopib ~ *čävip*, chopaman ~ *čävämän*||*čäbämän*, chopib kel ~ *čävüpke*, topibdi ~ *tävüpti*. So‘roq yuklamasi **-mi** sheva vakillari nutqida **-ma** shaklida talaffuz qilinadi. **-ma** yuklamasi so‘zlarga qo‘shilganda $m < p$ mosligi hosil bo‘ladi: qilibdimi ~ *qilippa*, gapiribdimi ~ *gäpirippä*||*gäpirippi*, aytibdimi ~ *äjtippä*.

X.Doniyorov A.Navoiyning “Muhokamatul-lug‘atayn” asarida ba’zan **p** o‘rnida **f** undoshi, ya’ni *tuproq* so‘zini *tufraq* tarzida qo‘llaganligini ta’kidlaydi¹¹⁵.

v undoshi — sirg‘aluvchi, lab-lab, jarangli, undosh. Barcha **ž**-lovchi shevalarda bo‘lgani kabi 2 xil variantda uchraydi. 1) lab-tish **v** tovushi **j**-lovchi shevalarda ko‘proq uchraydi: do‘ppi||kalapo‘sh ~ *käläväs*, Vohid ~ *vajit*, 2) lab-lab tovush **v** bu tovush **ž**-lovchi shevalar uchun xosdir: tog‘ ~ *täv*, olov ~ *äläv*// tumov ~ *timäv*, qamoq ~ *qamäv* // *qamay*, to‘g‘ri ~ *tuvri*||*tuvra*, suvadi ~ *šivädi*. So‘z boshida ko‘proq undovlarda ishlatiladi: *väj-väj*, *vājej*, *vax-vax*.

v ~ **m** mosligi. O‘zlashgan so‘zlarda qayd qilinadi: vino ~ *minä*, vint ~ *mint*;

v ~ **b** mosligi: qovushdi ~ *qabišti*, suvamoq ~ *sibav*||*šibav*, tarvuz ~ *tarbiz* // *tarbuz*, uvol ~ *obäl*, tovoq ~ *tabaq*, chuchvara ~ *tüšbärä*, qavoq ~ *qabaq*;

Bir bo‘g‘inli so‘zlarda **v** tovushi so‘zning oxirida qisqa talaffuz qilinadi yoki tushib qoladi *suv* ~ *sü*.; *chuv* ~ *čü*.; *quv* ~ *qu*.; *yuv* ~ *jü(v)*; ikki bo‘g‘inli so‘zlarda **v** tovushining tushib qolishi natijasida unli cho‘ziqroq talaffuz qilinadi: bo‘lib ~ *böli*.; ~ *böliiv*, sug‘urdim ~ *su:rdim*||*su:rdi*, suvdek ~ *su:daj*.

X.Doniyorov bu tovush haqida quyidagicha ma’lumot beradi: “Ma’lumki, eski o‘zbek adabiy tilida, hozirgi adabiy tilimizda va, xususan, shahar shevalarida **g**, **q**, **k** tovushining **v** ga o‘tish hodisasi deyarli uchramaydi. Bizga ma’lum bo‘lishicha, faqat Toshkent shahar shevasida ba’zan o‘tgan zamon 1-shaxs ko‘plik fe’lining oxiridagi **k** tovushi **v** ga o‘tadi. Masalan, *bārduv* (*bordik*). Qipchoq shevalarida esa, **g**, (**q**, **k**)ning ko‘pincha so‘z oxirida va ba’zan so‘z o‘rtasida ham **v** ga o‘tishi qonuniy bir hol sifatida uchraydi. Misollar: *täv* (*tog*’), *bäv* (*bog*’), *böyäv* (*buyoq*), *bävir*

¹¹⁵ Дониёров Х. Эски ўзбек адабий тили ва қипчоқ диалектлари. – Тошкент, 1976. – Б. 98.

(*bag'ir*), *žavir* (*yag'ir*), *tüziv* (*tuzuk*), *elliiv* (*ellik*) kabilar. Qipchoq grupp tillari va shunga ko'ra, qipchoq dialektlarida u qarluq-chigil grupp tillaridagiga nisbatan ancha oldin **-moq** bilan bir qatorda infinitivlik ma'nosida ham qo'llana boshlagan. Eski o'zbek adabiy tilida, bizga tuyulishicha, shu vaqtgacha **v** bilan yasalgan so'zlar, umuman, juda kam uchragan va xususan uning infinitiv ma'nosida qo'llanganligi bizga ma'lum emas¹¹⁶.

f undoshi – lab-lab, frikativ, jarangsiz undosh. Ba'zi undovlarda qayd qilinadi: *tüffey*, *tüf*, *süf*, *küf*, *püfej* – *püfej*. **f** tovushi shevada **t** tovushli ayrim o'zlashgan so'zlarda assimilatsiyaga uchraydi: oftoba ~ *ättäbä*||*ättäbä*, oftob ~ *ättäp*||*äptäp*. Bu tovushning tushib qolishi ham bor: pufla ~ *pü:lä*||*pi:lä*, pufladi ~ *pu:lädi*||*pi:lädi*(*püdädi*).

f ~ **p** mosligi: foyda ~ *päjdä*, kayf ~ *käjp*, farq ~ *parq*, musofir ~ *misäpir*, pufla ~ *püplä*, insof ~ *insäp*, tuflab olib ~ *tüpläp* *älip*.

f ~ **b** mosligi: afzal ~ *äbzäl*, shaftoli ~ *šäbdäli*.

Surxondaryo viloyat shevalarini o'rgangan S.Rahimov bu tovushni qipchoq va qarluq guruh shevalarida **p** tarzida aytilishini, ikki tilli shevalarda esa to'liq **f** tarzida talaffuz qilinishini ta'kidlaydi¹¹⁷. A.Mamatqulov esa o'zining Sherobod ž-lovchi shevaning undoshlar sistemasi maqolasida **f** undoshining uchramasligi, uning o'rnida lab-lab, jarangsiz **p** tovushi qo'llanishi, ba'zi undovlardagina bu tovush ishtirok etishi haqida ma'lumot beradi¹¹⁸. Denov shevasida bu tovush yoshlar nutqida uchraydi, ammo jonli so'zlashuvda **p** va **f** aralash qo'llanaveradi: *däftär*||*däptär* shaklida.

m undoshi – lab-lab, portlovchi, sonor tovush. So'zning barcha bo'g'inlarida uchraydi. **m** ~ **b** mosligi: somon ~ *sābān*, yopmaydi ~ *žäpbäjdä*, somsa ~ *sāmbäsä*;

m ~ **n** mosligi: kostyum ~ *kästin*, mulzam ~ *mülzän*|*muzlän*;

m ~ **p** mosligi: fotma chumchuq ~ *pätpä čumčuy*, topmay ~ *täppäj*, qopmay ~ *qappaj*|*qäppaj*, ko'rmabman ~ *körmäppän*, ishlayapmiz ~ *išläjäppiz* (*progressiv assimilatsiya yuz beradi*), olibdimi ~ *oppä*, qilibdimi ~ *qippa*, kelibdimi ~ *keppä*.

d undoshi – til oldi, portlovchi, jarangli undosh. Barcha bo'g'inlarda keladi Ba'zan so'z ichida jarangsizlashadi: aytadigan ~ *ajtatīyan*|*ajtatayan*,

¹¹⁶ Дониёров Х. Эски ўзбек адабий тили ва қипчоқ диалектлари. Лекциялар тексти. – Тошкент: 1976. – Б. 89.

¹¹⁷ Раҳимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари (Фонетика, Лексика). – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 50.

¹¹⁸ Маматқулов А. Шеробод районидаги “дж” ловчи шеванинг ундoshлар системаси // Илмий асарлар. – Қарши-Тошкент: ҚДПИ, 17 китоб. 1965. – Б. 39.

chopdi ~ *čāpti*, otdosh ~ *attaš*, o'ldiradi ~ *öltirādi*, jarangsiz undosh bilan boshlangan soʻzlarda **-di** qoʻshimcha qoʻshilganda **-ti** shaklida talaffuz qilinadi ketdi ~ *ketti*, oshdan keyin ~ *āštān kegin*. Soʻz oxirida ikki undosh qator kelganda tushib qoladi: *baland* ~ *bālān*, farzand ~ *pärzān*, samarqand ~ *samarqan*.

d ~ **t** mosligi: tasdiq ~ *tastiq*, oʻldirsa ~ *öltirsä*, mard ~ *märt*, dod ~ *dāt*;

Hazarbogʻ aholi joyining 1-, 3-, 5-boʻlimlarida yoshi ulugʻlar nutqida *qishloq* ~ *dishlaq* tarzida talaffuz qilinadi.

Qadimgi turkiy tilda **d** ~ **z** ~ **j** mosligidagi **j(y)** mosligi oʻzbek shevalarida xarakterli hisoblanadi “sidir ~ *sijir*, sudrab ~ *sijrāb*” shaklida. Oxiri **l** tovushi bilan tugagan feʼllardan orttirma daraja yasalganda **-tir** emas **-dir** “qol ~ *qaldirmajman*” shaklida saqlanadi. Bir vaqtning oʻzida **d** va **t** tovushlari ham saqlanish holati mavjud: *öltir*, *keltir*, *qaldir*, *qildir*.

t undoshi – til oldi, portlovchi, jarangsiz tovush. Barcha boʻgʻinda keladi.

Soʻz boshida va oʻrtasida keng unlilari bilan kelganda jaranglashadi: tuzoq ~ *duzāq*, tutun ~ *dütün*, tovush ~ *dāvuš*||*dāvüš*.

Oʻzlashgan soʻzlarda soʻz oxirida undoshlardan keyin tushib qoladi: gʻisht ~ *yiš*, sust ~ *süs*, musht ~ *müš*, doʻst ~ *dös*, toʻrt ~ *tör*; rus tilidan oʻzlashgan soʻzlarda ham kuzatiladi: artist ~ *ärtis*, protsent ~ *päräsän(t)*, muzikant ~ *müzikän*.

Soʻz oʻrtasida tushib qoladi: aytsin ~ *äjsün*, aytgansiz ~ *äjkänsis*||*ajqansis*, pastga ~ *päska*; baʻzan reduksiyaga uchraydi: aytib edim ~ *äj(t)bidim*, aytsin ~ *äj(t)sün*; baʻzan soʻz oʻrtasida ikkilanadi: *koʻtartiradi* ~ *köttärtädi*;

t ~ **d** mosligi: tegirmon ~ *dejirmän* ||*dijirmän*, tor toʻqishib ~ *tör doyušup*, toʻngʻiz ~ *döñüz*||*donyüz*. Aslida bunday moslik qipchoq shevalari uchun emas, balki oʻgʻuz shevalariga xosdir. Qipchoq shevasida bunday hodisaning mavjudligi qoʻshimcha oʻrganilishi lozim.

q undoshi – chuqur til orqa, portlovchi, jarangsiz tovush. Soʻz boshi, oʻrtasi va oxirida keladi.

Soʻz oxirida singarmonistik variantiga ega boʻladi: bordik ~ *bardiq*, sotdik ~ *satdiq*, soʻydik ~ *sojdiq*, oldik ~ *aldiq*||*āldiq*.

q – **x** mosligi. chiqdi ~ *čixti*, maqtash ~ *maxtaš* /*māxtaš*, toʻqson ~ *toxsān*, haqda ~ *haxda*, yoʻqlaydi ~ *žoxlajdi* ||*joxlajdi*, vaqt ~ *vax(t)*. Oʻzbek shevalaridagi bu oʻzgarish haqida A.N.Kononov ham maʼlumot bergan¹¹⁹.

¹¹⁹ Маматкулов А. Шеробод районидаги “дж” ловчи шеванинг ундошлар системаси // Илмий асарлар. – Қарши-Тошкент: ҚДПИ, 17 китоб. 1965. – Б. 33.; Кононов А.Н. Граматика узбекского языка. – Ташкент: ГОСИЗДАТ УзССР, 1948. – С. 10.

$q \sim x$ va $q \sim v$ hodisasi boshqa hudud **ž**-lovchi shevalari hamda shahar tipidagi Namangan, Marg‘ilon, Andijon¹²⁰ shevalari hamda Denov shahri shevasida ham kuzatiladi¹²¹.

q — **γ** mosligi: qo‘chqor ~ *yočqar*, qalpoq ~ *yalpāq*, qamish ~ *γamiš*||*qa\āmiš*, chiqardi ~ *čiyardi*, chaqirdi ~ *čāyirdi*, sariq ~ *sariy*, sandiq ~ *sāndiy*||*sāndiq*. Egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda ham bu o‘zgarish kuzatiladi: varaq ~ *vārayi*, oq ~ *ayi*, o‘q ~ *‘oyi*. Ba‘zi o‘rinlarda so‘zlarning tez talaffuz qilinishi va urg‘uning ko‘chishi natijasida so‘zlar qo‘shib talaffuz qilinganda ham **q** ~ **γ** mosligi kuzatiladi: oq ot ~ *ayat*, qishloq emas ~ *qišlayamas*, uzoq emas ~ *uzayamas*;

Qishloq ~ *qišlay*, soliq ~ *saliy*, qiliq ~ *qiliy*, aroq ~ *aray*|*āray*, o‘qariq ~ *‘oyariy* kabi so‘zlarda so‘z oxirida unilardan keyin kelganda biroz kuchsiz talaffuz qilinadi va unililar cho‘ziladi. So‘z oxirida jaranglashish Toshkent, Namangan va boshqa shahar shevalarida ham kuzatiladi¹²².

So‘z oxirida lab-lab **v** bilan moslik hosil qiladi: suyuq ~ *süjüv*, qo‘ng‘iroq ~ *qonyirāv*, beso‘roq ~ *besārāv*, quyuq ~ *qujuv*, qamoqli ~ *qamāvli*.

q undoshining so‘zdagi pozitsiyasi shevada mustahkam bo‘lmagan o‘rinlar ko‘p uchraydi, jumladan, so‘z o‘rtasida: qichqir ~ *qičir*, qirqdim ~ *qirtim*, qir besh ~ *qirbeš*(bu hodisa Denov shahar tip shevasida ham kuzatiladi); so‘z oxirida: achchiq ~ *āčči*|*āčči*, quruq ~ *quri*, issiq ~ *issi*, qirq ~ *qir*, sariq ~ *sāri*||*sāri*, qattiq ~ *qātti*||*qatti*, tariq ~ *tāri*||*tāri*, tariq ot ~ *tori:at*; qo‘shimchalarda tushib qolishi: buloqqa ~ *bulāqa*, suvoqqa ~ *šuvāqa*, o‘choqqa ~ *‘očāqa*, ammo *bāqqa*, *quchāqqa* so‘zlarida saqlanib qoladi. Toshkent, Samarqand-Buxoro tipidagi shevalarda **q** tovushining tushib qolishi unilarning cho‘ziq tallafuz qilinishiga olib keladi yo‘q u emas ~ *jö: ü^jemäs*, uying qayerda ~ *öjiñ qa:jda*||*qajāyda* kabi.

γ undoshi – chuqur til orqa, jarangli, sirg‘aluvchi tovush. So‘zning barcha bo‘g‘inlarida keladi.

So‘z o‘rtasida chuqur til orqa **q** tovushining o‘rnida almashib keladi: boqaman ~ *bayaman*||*bāyaman*, chiqaman ~ *čiyaman*, chaqadi ~ *čiyadi*, chiqim ~ *čiyim*, tiqin ~ *tiyin*;

So‘z o‘rtasida va so‘z oxirida quyidagicha almashadi:

¹²⁰ Иброҳимов С. Ўзбек тилининг Андижон шеvasи. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 87.

¹²¹ Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1962. – Б. 171.

¹²² Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1962. – Б. 171.

$\gamma \sim j$ mosligi: bog‘la ~ *bäjlä*, chiq||*chig‘* ~ *čij* (*qamish*), chug‘urchug‘ ~ *čijirčiq*| γ , yig‘ishtir ~ *žijištir*, sig‘inadi ~ *sijinädi*;

$\gamma \sim v$ mosligi so‘z o‘rtasi va oxirida yuz beradi: a) tog‘ ~ *tāv*, bog‘ ~ *bāv*, bug‘ ~ *buv*, belbog‘ ~ *belbāv*; b) tug‘di ~ *tuvdi*, sog‘ib ~ *savup*, yag‘ir ~ *žavur*, tug‘may ~ *tvmaj*, yomg‘ir ~ *žamvur*||*žamyir*, bag‘ir ~ *bavur*;

$\gamma \sim q$ mosligi: jag‘ ~ *žaq*, ulug‘ ~ *uluq*, tig‘ ~ *tīq*;

$\gamma \sim \eta\eta$ mosligi: qorong‘i ~ *qaranḡi*, to‘ng‘iz ~ *tonḡiz*, qo‘ng‘iz ~ *qonḡiz*; so‘z o‘rtasi va oxirida tushishi kuzatiladi: o‘g‘li ~ *ūli*, mag‘rab ~ *mā:rāp*, to‘g‘rab ~ *tō:rāp*||*tū:rāp*, yig‘ladi ~ *žilādi*;

Denov qipchoq shevalarida γ bilan tugagan so‘zlarga **g** bilan boshlangan qo‘shimcha qo‘shilganda γ va **g** larning **qq** ga ko‘chish holati mavjud: *tog‘+ga* ~ *tāqqa*, *bog‘+ga* ~ *bāqqa* shaklida, bu o‘zgarish o‘zbek adabiy tilida ham mavjud edi¹²³, lekin hozirgi imloda¹²⁴ bu qoida ishlamaydi.

x undoshi – chuqur til orqa, jarangsiz, sirg‘aluvchi tovush. Shevada bu tovush so‘z boshi va o‘rtasida faol, so‘z oxirida kam qo‘llanadi.

So‘z boshida: *xursand* ~ *xursan*, *xalta* ~ *xalta*, *xamir* ~ *xamir*, *xazon* ~ *xazān*/*xāzan*, *xumcha* ~ *xumča*;

So‘z o‘rtasida: *qidir* ~ *axtar*, *kalxat* ~ *kalxat*, *oxir* ~ *āxir*, *soxta* ~ *saxta*/*sāxta*, *baxshi* ~ *baxši*, *baxil* ~ *baxil*;

So‘z oxirida: *shox-shabba* ~ *shāx-shabba*, *quroq* ~ *qurāx*, ba’zi taqlid so‘zlarda qo‘llanadi: *vax-vax*, *ix*, *qix*, *bax*, *tarax-tarax*,

x ~ γ mosligi: *xo‘roz* ~ *γāraz*||*xāraz*, *xashak* ~ *γašak*, *poxol* ~ *paγal*;

x — **q** mosligi: *xalq* ~ *qalq*/*xalq*, *xina* ~ *qina*|*xina*, *poytaxt* ~ *pājtaq*.

O‘zbek tilining \check{z} -lovchi shevalarida ishlatiladigan *xudo* ~ *quda*, *tuxum* ~ *tuqum*, *taxir* ~ *taqir*, *xayr* ~ *qajr* kabi so‘zlarda **x** va **q** tovushlari parallel kelish holati mavjud.

g undoshi — til orqa portlovchi, jarangli undosh. So‘zning barcha bo‘g‘inlarida qo‘llanadi. Shevada **k** tovushi bilan moslikni tashkil etadi: *ekadi* ~ *jegādi*, *ekin* ~ *jegin*, *cho‘kadi* ~ *čögādi*, *ko‘kar* ~ *kögär*.

A.Mamatqulov Sherobod \check{z} -lovchi shevalarida bu tovushning 2 xil talaffuzi mavjudligini ta’kidlaydi: a) orqa qator talaffuz qilinadigan: *čegara*, *gumbaz*, *gul*; b) o‘rta qator biroz sayoz talaffuz qilinadigan tovush: *jegin*, *jegādi*, *kölig kabi*¹²⁵. Bu fikr keltirilgan misollarga nisbatan asossizdir. **g**

¹²³ Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zME, 2013. – B. 115.

¹²⁴ O‘zbek tilining imlo lug‘ati. – Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2020. – B. 13.

¹²⁵ Маматқулов А. Шеробод районидagi дж-ловчи шеванинг ундoshлар системаси // Илмий асарлар. – Қарши-Тошкент: ҚДПИ, 17 китоб. 1965. – Б. 29.

undoshi bu ikki o‘rinda ham sayoz til orqaligini saqlaydi, lekin u old qator unlili so‘zlar bilangina qo‘llanadi.

So‘zlarning oxirida ham uchraydi, ikki bo‘g‘inli so‘zlarning oxirida **k** ning o‘rnida **g** ishlatiladi. Cho‘pchak ~ *čöpčäg*, ko‘ppak ~ *köpäg*, cho‘kib ~ *čögip*;

Unlilar orasida **g** ~ **j** mosligi yuz berishi kuzatiladi: tegib ~ *tijip*, tegdi ~ *tejdi*, tegirmon ~ *tejirmän*, kigiz ~ *kijiz*.

O‘zlashma so‘zlarda **g** ~ **d** mosligi: gektar ~ *dektär*; **g** ~ **γ** mosligi: pogon ~ *payan*, vagon ~ *vayan* mosliklari yuz beradi.

g ~ **γ** mosligi: bo‘lgan ~ *bolyan* (*bolmayan*), solgan ~ *sälyan*, olgan ~ *äyan*, qilgan ~ *qilyan* (*qilmayan*), yoqilgan ~ *jaqilyan*;

g ~ **q** mosligi: sotgan ~ *satqan*, qaqshatgan ~ *qaqšatqan*||*qaqšatyan*, chiqayotgan ~ *čiqatqan*;

ng ~ **ηη** mosligi: dangal ~ *dänñäl*, to‘ngak ~ *dönñäk*, yangi||hozir ~ *žanñi*.

k undoshi – til orqa, jarangsiz, portlovchi tovush. Barcha bo‘g‘inlarda kela oladi.

k ~ **j** mosligi: tekkan ~ *tijgan*.

O‘rganilayotga hudud shevasida boshqa **ž**-lovchi shevalarda bo‘lgani kabi so‘z o‘rtasi va oxirida **k** tovushi tushib qoladi: kaklik ~ *kä:lik*, turkman ~ *türmän*, o‘lik ~ *öli:*, tirik ~ *tiri*, kichik ~ *kičči*; qo‘shimchalarda tushib qoladi: suvlik ~ *suvli*, uylik ~ *üjli*, kichkina ~ *kičinä*, qishloqlik ~ *qišlayli*.

So‘z oxirida undoshlarning tushib qolishi haqida A. Borovkov quyidagicha fikr bildiradi “so‘z oxirida tovushlarning tushirib qoldirilishi, urg‘uning odatdagidan boshqacha bo‘lganligidan yuzaga kelgan bo‘lishi mumkin. Bunday holatda so‘z oxirida urg‘usiz unli yoki bo‘g‘in reduksiyalanadi va tushirib qoldiriladi”¹²⁶. Sandhi holatdagi **k** || **g** almashinishi deyarli barcha o‘zbek shevalarida uchraydi¹²⁷.

k ~ **j** mosligi: tek(kan) ~ *tij(gan)*.

k ~ **g** mosligi: so‘z boshida: karnay ~ *gärnäj*, kekirdak ~ *gägirdäg*, ko‘za ~ *gözä*, ko‘cha ~ *göčä* (*ovqat turi*); so‘z o‘rtasida: chekaman ~ *čegämän*, ekaman ~ *jegämän*, ekin ~ *jegin*||*egin*, tekin ~ *tegin*, so‘kinma ~ *söginmä*; so‘z oxirida: kurak ~ *küräg*, ko‘krak ~ *kökräg*, kepak ~ *kepäg*||*keväk*, tuvak ~ *tüväg*||*tübäg*, bo‘la ~ *böläg*.

¹²⁶ Боровков А.К. Ўзбек тилининг лексикасидаги ўзгаришлар ва янги алфавит // ЎзФАН ахбороти, 1940. – № 2. – Б. 43.

¹²⁷ Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1962. – Б. 165.

k ~ x mosligi: doktor ~ *duxtur* // *doqtur*, kaklik ~ *kaxlik*, osh qovoq (kadi) ~ *ašxadi*, birikmay ~ *birixmaj*, ko‘klam ~ *koxlam*, nariroq ~ *narirax*||*nararax*, bo‘lak ~ *bolax*;

k ~ v mosligi: tuzuk ~ *tüzüv*, ellik ~ *eliv*, tilak bilan ~ *tilävman*||*tiläv minän*.

Ba’zi o‘rinlarda **k ~ ŋ** mosligi yuz beradi: tikilib qaradi ~ *tiŋilip qaradi* bunda **k** tovushi jarangli **g** tovushiga o‘tgan va burunlashib **ŋ** tarzida talaffuz qilingan.

n undoshi – til oldi, jarangli burun tovushi. Bu tovush so‘zning barcha bo‘g‘inlarida kela oladi.

Ikki so‘zning orasida yoki asos-qo‘shimcha orasida **k, g, q, γ** undoshlaridan keyin kelganda **ŋ (ng)** bilan almashadi: to‘ng‘iz ~ *töŋŋiz*||*toŋyüz*, qo‘ng‘iz ~ *qoŋŋiz*, menga ~ *meŋŋä*||*mäŋŋä*, sen kelding ~ *säŋ keldiŋ*||*säŋ keliŋ*.

b, p, m udoshlarining oldida **m** bilan assimilatsiyaga kirishadi: ishonma ~ *išämmä*, tanbur ~ *tämbür*||*tämbir*, qilibman ~ *qilimman*, baland past ~ *bäläm-päs*; so‘zning oxirida ham bu yuz beradi: men bilan ~ *memminäm*, qo‘rg‘oshin ~ *qoryäšim*;-gan qo‘shimchasi bilan boshlangan o‘tgan zamon sifatdoshiga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda **n ~ m** assimilatsiyasi yuz beradi: ketganmiz ~ *ketyammiz*, yeganmiz ~ *žegämmiz*, terganman ~ *tergämmän*, yotganman ~ *žatyamman*. Bu so‘zlarda regressiv assimilatsiya hodisasini ham ko‘rishimiz mumkin. Qator kelgan ikki **n** tovushidan biri tushib qolishi mumkin: jonning ~ *žäniŋ*, yuganning ~ *žügäniŋ*; so‘z oxirida tushib qoladi: bilan ~ *minä(n)*; o‘zak va qo‘shimcha orasida tushib qoladi: borasanmi ~ *bäräsämmi*, kelasanmi ~ *keläsämmi*; **u, bu** ko‘rsatish olmoshlariga jo‘nalish kelishigi qo‘shilganda unga ~ *u:γa*, bunga ~ *bu:γa* shaklida **n** tushib qoladi;

n ~ l mosligi: nodon ~ *lädän*||*nädän*;

n ~ m mosligi: o‘n besh ~ *ömbes*||*ömbes*, o‘n bir ~ *ömbir*||*ömbir*, yonboshiga ~ *žambašiya*;

l undoshi – til oldi, jarangli, sonor tovush.

l ~ n mosligi: **m, ŋ** sonorlaridan keyin: kamlik ~ *kämnik*, choy damlab ~ *čäj dämnäp*, ko‘rimlik ~ *körümnük*; boshqa hollarda **n ~ l** almashinishi sodir bo‘ladi: lekin ~ *nekin*, la’nat ~ *nä:lät*, aylanay ~ *äjnänäj*, kamligidan ~ *kämnigidän*.

l ~ r mosligi: o‘lja ~ *öržä*, jig‘ildon ~ *žiyirdan*, balki ~ *bärki*;

l ~ j mosligi: keta qolsa ~ *ketäyajsä*, to‘la qolsin ~ *tolayajsin*;

qilib ~ *qib*, bo‘lib ~ *böp*, bo‘lsin ~ *bösin*, qilsin ~ *qib*, olib ~ *āb*||*āp*, soling ~ *sāŋ*||*säŋ*, qilgan ~ *qiyān* kabi so‘zlarda o‘zidan keyingi unli bilan

tushib qoladi. Ko‘plik qo‘shimchasida ham tushib qolishi kuzatiladi: bizlar ~ *bizä**bizär*, sizlar ~ *sizä**sizär*, oling ~ *āñ*, qoling ~ *qāñ*, keling ~ *keñ*. So‘z oxirida ham tushadi: qil ~ *qī*, kel ~ *ke**ä*, bo‘l ~ *bö*, sol ~ *sā*, qol ~ *qā*; **t** undosh tovushining assimilatsiyaga uchrashi natijasida ham tushadi: keltir ~ *kettir*, o‘tir ~ *öttir*; **l** tovushining turkiy tillarda bunday tushishini N.Baskakov qoraqalpoq tilida uchrashini qayd qiladi¹²⁸.

Rus tili orqali o‘zlashgan so‘zlarda **l** ~ **n** mosligi yaqqol ko‘zga tashlandi: leytenant ~ *nejtänät*, diplom ~ *depnom* militsiya ~ *minisä*, tarelka ~ *tärenkä*;

-*gän*//*yan*//*kän*//*qan* affiksli sifatdosh asosidagi **l** undoshi tushib qoladi: solgan ~ *sāyan**sayan*, qilgan ~ *qīyan*, bo‘lmagan ~ *bomayan*, olgan ~ *āyan**ayan*; qo‘shma fe‘llarda tez talaffuz qilinishi natijasida **l** tushib qoladi: olib kelib ber ~ *äpkäppär*, chopib kel ~ *čävüpke**čäpke*, qilib ol ~ *qībā*, borib keling ~ *bārip ke*.

r undoshi – til oldi, jarangli, sonor tovush. So‘zning barcha bo‘g‘inida kela oladi. Abdurahim ~ *Raxīm*||*Räjim*, ro‘mol ~ *romal*, burun ~ *mürün*, turmush ~ *türmüš*, narsa ~ *närsä*||*nersä*, qo‘chqor ~ *yočqar*, chaqir ~ *čaqir*, turdi ~ *tüddi*;

Ba‘zan so‘z o‘rtasida cho‘ziq **r** tovushi uchraydi: *qari* ~ *qarri*||*qar:i*. Bundan tashqari ayrim o‘rinlarda chuqur til orqa undoshi **q** kelgan so‘zlarda ham [*qarimadi* ~ *qärrimädä*] uchraydi¹²⁹.

r ~ **l** mosligi: anjir ~ *änzil*, abjir ~ *äbzil*;

r ~ **d** mosligi: bayroq ~ *bajdaq*;

Bundan tashqari so‘z o‘rtasidagi **r** undoshi shevada tushib qoladi: nariroq ~ *naraq*, beriroq ~ *beraq*.

h undoshi – jarangsiz bo‘g‘iz tovush. Denov **ž**-lovchilar shevasida ham bo‘g‘iz tovushi **h** sof turkiy so‘zlarda uchramaydi. Arab va fors tilidan o‘zlashgan so‘zlarda qo‘llaniladi.

So‘z boshida: hosil ~ *häsil*, hosilot ~ *häsilät*, hotam ~ *hätäm*, halim ~ *hälim*, belanchak ~ *hälinčäk*;

So‘z o‘rtasida: bemahal ~ *bemähäl*, nihol ~ *nähäl*, sal ~ *sähäl*, shahar ~ *šähär*;

Shevada ba‘zi o‘rinlarda tushib qoladi: so‘z boshida: hurkadi ~ *ürkädi*, hisor ~ *isär*||*isär*, hukumat ~ *ükümät*, hikoya ~ *ikäjä*;

¹²⁸ Баскаков Н.А. Қарақалпағиский язык. II Фонетика и морфология, часть первая. – М., 1952. – С. 81.

¹²⁹ Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1962. – Б. 160.

soʻz oʻrtasida: muhtoj ~ *mö:täč*, Rahmon ~ *rä:mān*, Ahmad ~ *ä:mäd*, qahr ~ *qa:r*, xohlamaydi ~ *qa:lamajdi*, muhr ~ *mü:ür*;

Ikki oʻzakning birikuvida ikkinchi oʻzakning boshidagidagi **h** tushib qoladi: senga ham ~ *sayanam*, menga ham ~ *mayanam*, unga ham ~ *ʋoyanam*, otam ham ~ *ätämäm*, men ham ~ *mänäm*, qiz ham ~ *qizam*, ukam ham ~ *ükäm:äm*; soʻz oʻrtasida tushib qoladi: goh-goh ~ *gä(h)-gä(h)*, gunoh ~ *günä:*.

Soʻz oʻrtasida **j** tovushi bilan almashadi: dahna ~ *däjnä*, Rahima ~ *räjimä*, mehnat ~ *mejnät*, dehqon ~ *dijqan||dejqän*, mehmon ~ *mijmän*, rahmdil ~ *räjimdil*, sohib ~ *säjip*.

Soʻz boshida **h** tovushi ortadi: ayvon ~ *häjvän*, arra ~ *härrä*.

Oʻrganilayotgan hudud shevasida chuqur til orqa **x** va boʻgʻiz tovushi **h** tovushi mustaqil fonema sifatida bir-biridan farq qiladi. **x** tovushi X.Doniyorov va T.Z.Mirsoatovlarning fikricha, **ž**-lovchi shevalardan boʻlgan Baxmal va qirq shevalarida mustaqil fonema darajasiga koʻtarilmasdan chuqur til orqa **q** tovushining pozitsion variantidir¹³⁰. F.Abdullayev va A.Mamatqulovlarning fikricha, **ž**-lovchi shevalarda **x** tovushi mustaqil fonema hisoblanadi¹³¹.

s undoshi – til oldi sirgʻaluvchi, jarangsiz tovush. Barcha boʻgʻinda uchratish mumkin: suv ~ *sü(v)*, sovun ~ *säbün||sävün*, sovchi ~ *sävči||žävči*, soldik ~ *saldiq*, isiriq ~ *isiriq*, bersin ~ *bärsin*, oson ~ *äsän||äsän||änsän*, qolsak ~ *qāsaq||qasaq*, kelasiz ~ *käläsis*, chopmas ~ *čöpäs*;

Baʼzi taqlidiy soʻzlarda tarkibida choʻziqroq talaffuz qilinadi: *qars-qurs*, *čars-čurs*, *tars-turs*, *gurs-gurs* kabi.

s ~ **č** mosligi: sochilib ~ *čäčilib*¹³², soch ~ *čäč||čäč*, sanchgan ~ *čäčkän*, sichqon ~ *čičqan*, qistov ~ *qičāv*, qistamaq ~ *qičamaq*;

s ~ **š** mosligi: shixmola ~ *sixmāla*, shimir ~ *simir*, supurgi||*shipirgi* ~ *sibirtgi||šipiryi*.

Baʼzan sporadik ravishda jarangli **z** kabi talaffuz qilinadi: meros ~ *mī:raz*.

¹³⁰ Мирсоатов Т. Ўзбек тилининг қирқ шеваси // Ўзбек диалектологиясидан материаллар, 1. – Тошкент: Фан, 1957. – Б. 237.; Данияров Х. Бахмалский говор узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М. 1955.

¹³¹ Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг қипчоқ шеваси // Ўзбек диалектологиясидан материаллар, 1. – Тошкент: Фан, 1957. – Б. 327; Маматқулов А. Шеробод районидаги “дж” ловчи шеванинг ундошлар системаси // Илмий асарлар. – Қарши-Тошкент: ҚДПИ, 17 китоб. 1965. – Б. 36-43.

¹³² Ўпка-журак қолди симдай эшилиб, Қолганман-да кўй кўзидай **чочилиб**, Олган бўлсанг отангни торт жолғизим, Отанг ўлсин жолғиз сенга кўшилиб. қarang: “Алпомиш” достони. Хушбоқ Мардонакул ўғли варианты. Ёзиб олувчи: Тоштемир Турдиев. – Тошкент: Ёзувчи, 1998. – Б. 169.

z undoshi – til oldi, sirg‘aluvchi, jarangli tovush. Bu tovush O‘rmon, O‘zgarish, Loyliq, 8-mart qishloqlarida va Hayrabod, Hazarbog‘ qishloq **ǰ**-lovchi shevalarida jarangsizlashadi va s ~ z orasidagi tovush sifatida talaffuz qilinadi. Bunday jarangsizlanish Surxondaryo qipchoq guruh shevalarida mavjudligi haqida A.Mamatqulov¹³³ va S.Rahimovlar¹³⁴ ham o‘z tadqiqotlarida ma‘lumot berishgan. O‘zlashgan so‘zlarda faol qo‘llanadi: Zubayda ~ *zibäjdä*, zavq ~ *zavq*, zarur ~ *zäril*, zolim ~ *zalim*.

So‘z boshida, o‘rtasi va oxirida qo‘llanadi: ziyofat ~ *zijäpät*, azot ~ *äzät*, qozon ~ *qazan*||*qäzan*, bozor ~ *bäzär*, buzilgan ~ *bizilyan*, qo‘zg‘almang ~ *qozyamman*, ko‘z ~ *köz*, bo‘z ~ *böz*, xo‘roz ~ *xoraz*, zimiston ~ *zimestän*, Hazarbog‘ ~ *xazarbay*, zamon ~ *zämän*.

z ~ **s** mosligi: zarg‘aldoq ~ *saryaldäy*, tez ~ *tes*; shaxs-son qo‘shimchalari tarkibida kelganda jarangsiz s bo‘lib eshitiladi: kelasiz ~ *keläsis*, deysiz ~ *dijsis*, kechirasiz ~ *kečiräsis*, olibsiz ~ *äpsis*||*äpsis*; siz olmoshiga ko‘plik qo‘shimchasi **-lär** qo‘shilganda **z** tushib qoladi: sizlar ~ *silä(r)* kabi. Ba‘zan II shaxs buyruq fe‘llarining oxirida parallel **r** ~ **z** qo‘llanadi: chiqaz ~ *čiqar*, Bitkaz (*tugatmoq*) ~ *pitkär*||*bitkar* ~ *pitkäz*||*bitkäz*, yotqiz ~ *žatqiz* ~ *žatqir*.

So‘zla so‘zida ham z ~ j almashinuvi kuzatiladi: *söjlä*, *söjlädiñ*; bu so‘zning *sölläp*, *söllä*, *sölladim* varianti ham sporadik ravishda uchraydi.

š undoshi – til oldi, jarangsiz, sirg‘aluvchi undosh. Denov **ǰ**-lovchi shevalarida bu tovush barcha o‘rinlarda kela oladi. Ergash ~ *irgäš*, shunda ~ *šöndä*||*šündä*, sho‘rva ~ *šörpä*||*šörvä*, ishga ~ *iššä*, shunday ~ *šünäj*, shamshir ~ *šämšir*, shogird ~ *šägirt*, shafyor ~ *šäpir*, chilim ~ *šilim*, shishak ~ *šišäk*||*išäk*, *šišti*||*išti*, pushta ~ *püštä*||*pištä*, qoshiq ~ *qašiy*||*qašiq*, podsho ~ *pāšä*, bosh ~ *bäš*, mosh ~ *māš*, do‘ppi ~ *käläväš*, qamish ~ *qāmīš*||*yamīš*, yo‘ldosh ~ *žoldaš* // *jöldäš*;

š ~ **j** mosligi: tashla ~ *täjlä*, tashladim ~ *täjlädim*.

č undoshi – til oldi jarangsiz, qorishiq tovush. So‘z boshi va o‘rtasida keladi, so‘z oxirida deyarli uchramaydi. Chorva ~ *čārba*, ko‘chib ~ *köčib*, uchovi ~ *učāv(b)i*, ichira olmasam ~ *ičirāmäsä:m*, nechta ~ *neči*, ichamiz ~ *ičämiz*, chiqib ~ *čiyip*, chol ~ *čal*, chayqalib ~ *čäyqalib*, chordurim ~ *čärdürim* (*urug‘ nomi*).

č ~ **ǰ** mosligi: ilinji ~ *ilinči*, kiyim kechak ~ *kijim kežäk*, changal ~ *žän(η)äl*, burchagi ~ *büržägi*;

¹³³ Маматқулов А. Шеробод районидаги дж-ловчи шеванинг ундошлар системаси // Илмий асарлар. – Қарши-Тошкент: ҚДПИ, 17 китоб. 1965. – Б. 26.

¹³⁴ Раҳимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари (Фонетика, Лексика). – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 52.

č ~ š mosligi: ichdi ~ *išti*, uchta ~ *ušta*, ochdi ~ *āšti*, qochdi ~ *qāšti*, sochdi ~ *sāšti*, o‘moch ~ *omāš*, kuch to‘plab ~ *küş töpläv|b*, ichdan ketdi ~ *ištän ketti*;

č ~ š hodisasini ba’zi turkologlar qipchoq tipidagi turkiy tillarga xos bo‘lgan xususiyat deb izohlaydilar¹³⁵. V.Reshetov č ~ š almashinishi o‘zbek tilining hamma ž-lovchi va j-lovchi shevalariga tarqalganligini qayd etadi¹³⁶.

ŋ undoshi – til orqa, jarangli burun tovushi. Bu tovush adabiy til va j-lovchi shevalarga nisbatan ž-lovchi shevalarda orqa qator undoshlar bilan kelganda o‘zining qalinligi va burunlashganligi bilan farq qiladi. Singarmonizm qonuni ta’sirida turli kombinatsiyalarda boshqa tovushlar bilan qo‘shilganda ikki xil varianti uchraydi¹³⁷. Old qator (yumshoq) varianti enang ~ *enāŋ*, keling ~ *keŋ* // *keliŋ*, beringlar ~ *berinŋiz* // *berinŋ*, so‘nggi ~ *sōŋi*, senga ~ *seŋā* // *sāŋā*; orqa qator (qattiq) varianti qozonga ~ *qazaŋŋa*, tanga ~ *taŋŋa*, chiqing ~ *čiyinŋ*, o‘g‘lingiz ~ *oylinŋiz*, xudoning ~ *xudāniŋ*, oqlangan ~ *āxlaŋŋan*, tog‘ning ~ *tavniŋ*.

ŋ tovusining ikki xil varianti uchrashi A.Mamatqulov va S.Rahimovlarning ishlarida ham o‘z aksini topgan¹³⁸.

ŋ ~ j mosligi yuz beradi: ko‘nglim ~ *kōjnim*, ko‘ngli ~ *kōjni*, singlim ~ *sijnim*.

ŋ ~ v mosligi shevalarda sporadik ravishda uchraydi: ko‘nglida ~ *kōvnüdü*;

ŋ ~ n mosligi shevalarda nafaol tarzda yuz beradi: sen kelding ~ *seŋ keldinŋ*.

ž undoshi – til oldi, jarangli qorishiq tovush. Denov ž-lovchilari shevalarida bu tovush so‘z boshida jul ~ *žul* (eshakni ustidagi yopinchiqning hammasi), jiyda ~ *žijdü*, janda ~ *žändä*, jun ~ *žün*, jinni ~ *žindi*, juvoz ~ *žüvöz*, jiyan ~ *žijän*, jala (do‘l) ~ *žälä*, ilonlarni ~ *žilānlärđi*, joylashtirgan ~ *žājlaštīyan*, yildan ~ *žildan*, namatak ~ *žämätäk*, yetalab ~ *žitäläv*, yubormadi ~ *žuvärmädi*;

¹³⁵ Бартольд В.В. История турецко-монгольских народов. – Ташкент, 1928. – С.14-15; Малов С.Е. К истории казахского языка // Известия АН СССР, отд. лит. и языка, 1941. – С. 98.

¹³⁶ Решетов В.В. Узбекский язык, Введение, Фонетика. – Ташкент, 1959. – С. 250.

¹³⁷ ŋ tovushining ikki xil varianti haqida N.K.Dmitriyev, Y.D.Polivanov, V.V.Reshetovlar ma’lumot berishgan. Дмитриев Н.К. Грамматика башкирского языка. Москва – Ленинград, 1948. – С. 23; Решетов В.В. Кураминские говоры Ташкентской области (фонетическая и морфологическая система). – С. 335; Поливанов Е.Д. Некоторые фонетические особенности кара-калпакского языка. Ташкент, 1933. – С. 11.

¹³⁸ Маматкулов А. Шеробод районидаги “дж” ловчи шеванинг ундошлар системаси // Илмий асарлар. – Қарши-Тошкент: ҚДПИ, 17 китоб. 1965. – Б. 39; Раҳимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари (Фонетика, Лексика). – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 57.

soʻz oʻrtasida: xurjun ~ *xoržun*, objoʻsh (qaynoq suv) ~ *ābžüš*||*ābžüš*,
ijozat ~ *ižāzāt*, xotirjam ~ *hätiržām*, tojiklarni ~ *tāžiklārdi*, hujum ~ *hüžüm*,
xoʻjalikka ~ *xožali(j)ga*, hoji ~ *hāži*;

soʻz oxirida: iloj ~ *ilāž*||*ilāč*, xarč ~ *xarž*, ehtiyoj ~ *ehtijāž*||*e:tijāč*, toj ~
tāž;

Oʻrganilayotgan hudud **ž**-lovchi shevalarida barcha qipchoq shevalariga xos boʻlgan soʻz boshida **j** ~ **ž** tovushi almashishi mavjud: yoʻl ~ *žol*, yomgʻir ~ *žāmyir*, ilon ~ *žilān*//*žilān* // (*jilān*) kabi. Baʼzi oʻrinlarda soʻz oʻrtasida ham moslik kuzatildi majlis ~ *mājlis* koʻrinishida. Sporadik ravishda **ž** ~ **š** mosligi kuzatiladi xuruj ~ *xuruš* kabi. Joʻja ~ *čöžä*, muhtoj ~ *möhtäč*||*mö:täč* shaklida dissimilatsiyaga uchraydi. Sirgʻaluvchi **ž** (**ž**) tovushi mahalliy aholi nutqida uchratilmadi: *žurnal*, *žemper*, *žirafa* va b.

j undoshi – til oʻrta, jarangli sirgʻaluvchi tovush. Boshqa **ž**-lovchi shevalarda boʻlgani kabi oʻrganilayotgan hudud shevasida ham soʻz boshida **j** oʻrnida **ž** tovushi ishlatiladi: yoʻq ~ *žoq*, yoʻl ~ *žol*, yil ~ *žil*, ingichka ~ *žiničkä*, yetti ~ *žetti*.

Soʻz oʻrtasida **g**, **k**, **gʻ**, **h** tovushlari oʻrnida qoʻllanadi: tegirmon ~ *tejirmān*, egar ~ *ijār*, tegdi ~ *tejdi*, mehmon ~ *mejmān*, mehnat ~ *mijnät*, tekkan ~ *tejgān*, yigʻdi ~ *žijdi*. Baʼzi soʻzlarda soʻz boshida tushib qoladi: yigirma ~ *igirmä*, yuttirdi ~ *ütürdü*, Yusuf ~ *üsüp*, qiyshiq ~ *qišiq*, yilqi ~ *ilqi*, nosvoy ~ *nāsvä*, obroʻ ~ *ābrö*; ayrim oʻrinlarda esa soʻz ortishi kuzatiladi: ilon ~ *jilān*, ellik ~ *jelliv*||*jellik*, echki ~ *ječki*, rais ~ *rājis*, imon ~ *ijmā(ä)n*;

j ~ **t** mosligi: *yumaloq* ~ *tomalaq(γ)*||*dumalaq* va sanoqli soʻzlarda **j** ~ **č** assimilatsiyasi qayd qilinadi: uch yil ~ *ʋüčcil*, hech yerga ~ *hiččerya*.

Denov qipchoq shevasida fonetik jarayonlar. Singarmonizm qoidasi barcha turkiy tillarda mavjud boʻlib, oʻzbek adabiy tilida bu holat buzilgan. Oʻzbek adabiy tilining boyligi hisoblangan shevalarda esa bu qonunning amal qilishini kuzatishimiz mumkin. Barcha qipchoq guruh shevalarida mavjud boʻlgan singarmonizm qonuni Denov qipchoq shevalarida ham amalda mavjud. Oʻrganilayotgan hudud shevasida singarmonizmning ikki xil koʻrinishini ham mavjudligi kuzatishlar jarayonida oydinlashdi.

Lingval yoki palatal singarmonizm: aldarkoʻsa ~ *ällärkösä*, dushmanlarga ~ *dušmannarya*, qatnaydi ~ *qannajdi*//*qātnajdi*, koʻkanladi ~ *kökännädi*, yoʻliqib qoldim ~ *žoliyip qaldim* (*Oʻzgarish*), zargarlik qilar ekan ~ *zärgärlik qilarkan*, bevafoqlik qilgan emas ~ *bevāpäli.*; *qiryānamas*, fotiha ~ *pätähä*, ogʻirgina ~ *avuryana*;

Labial singarmoniz: muhim ~ *mühüm*, turib ~ *türüp*, uzil ~ *üzül*, koʻchib ~ *köčüp*, yoʻliqib qoldim ~ *žoluyup qaldim* (*Oʻrmon*);

Denov qipchoq shevalarida singlarmonizmning buzilish holati ham kuzatiladi: astar paxtasini ag‘darmoq ~ *övdar ästärini ävdarip täšlädi*, noma‘qul buzoqning go‘stini yemoq ~ *ärriy büzaqni goštini žepsän*, qulog‘ingga tanbur chertyapmanmi ~ *qilayinä čildi:ma čilipdimä*, yerning tagida ilon qimirlasa bilmoq ~ *žerdi astidä žilän qivirdäsä bilmāq*, to‘rva qoqdi ~ *xalta qāxti*, zig‘ir yog‘dek ko‘ngilga urdi ~ *ziyir mājidek žurekkä urdi*.

Diftong. Barcha singlarmonizmli shevalarda bo‘lgani kabi denov žlovchi shevalarida ham diftong hodisasi kuzatiladi:

üö diftongiga misollar: o‘t ~ *üöt*, o‘chadi ~ *üöčädi*, o‘ttiz ~ *üöttiz*, o‘n besh ~ *üönbeš*;

ʋö diftongiga misollar: o‘lan ~ *ʋölän*, o‘rdak ~ *ʋördäk*, o‘zim ~ *ʋözim*, o‘lim ~ *ʋölüm*, o‘t ~ *ʋöt*, ul ~ *ʋül||ʋöl*, o‘roq ~ *ʋorāq*, unday ~ *ʋöndāj*, o‘n ~ *ʋön*;

ʃe diftongiga misollar: echki ~ *ʃečki*, ellik ~ *ʃeliv|ʃellig*, elak ~ *ʃeläg*, ehson ~ *eʃsän||ʃe:sän*.

Progressiv assimilatsiya:

dš ~ *šš*: podsho ~ *päššä*;

nd ~ *nn*: indab ~ *innäp*, enli ~ *jenni*, mindirgan ~ *minniryan*, indaydi ~ *innäjdi*, kelganda ~ *kegännä*;

ld ~ *ll*: aldaydi ~ *älläjdi||älläjdi*, aldarko‘sa ~ *ällärkösä*, aldab ketdi ~ *älläp||älläp ketti*;

ds ~ *ss*: didsiz ~ *dissiz*, hidsiz ~ *hissiz*;

ts ~ *ss*: ketsa ~ *kessä // kässä*, otsin ~ *ʋässin*, aytsam ~ *äjssäm*, do‘stlar ~ *dossar*;

nl ~ *ll*: dushmanlarga ~ *dušmannarğa*, deganlar ~ *degännär*, yaqinlashganda ~ *jaqinnayanda*, tumanlab ~ *tömännäp*, ko‘kanladi ~ *kökännädi*;

tn ~ *nn*: qatnab ~ *qannap*, qatnaydi ~ *qannajdi*;

čs ~ *čč*: ochsang ~ *aččaŋ||āččäŋ*;

ŋl ~ *ŋŋ*: manglay ~ *māŋŋäj*, olinglar ~ *āŋŋär*, qilinglar ~ *qīŋŋar*, solinglar ~ *sāŋŋär|sāŋär*, bo‘linglar ~ *bōŋŋär||bōŋär*;

pm ~ *pp*: kelyapmiz ~ *keläjäpps*, aytyapmiz ~ *ajtajappis*, boryapman ~ *barajappan*.

regressiv assimilatsiya:

zč ~ *čč*: qizcha ~ *qičča*, izchil ~ *iččil*, ozchilik ~ *äččilik*, yozsa ~ *jässä*, tuzsiz ~ *tüssüs*, ruscha ~ *rüččä*, bo‘zchi ~ *böčči*;

šč ~ *čč*: ishchi ~ *ičči*, qushchi ~ *qučči*;

nl ~ ll: deganlar ~ *degällär*, olganlar ~ *āgällär*, omonlik ~ *amälliy*, tanladi ~ *talladi*, to‘rt kunlik ~ *törküllik*;

tl ~ ll: otlantirib ~ *āllāntirib*, yigitlar ~ *žigillär*, adolatli ~ *ādälälli*, qutli ~ *qullī*, kulfatli ~ *kūlpälli*, qutlug‘ bo‘lsin ~ *qollivosin*, rahmatli ~ *rāhmälli*;

nm ~ mm: tinmay ~ *timmäj*, tinmasdan ~ *timmäsdän*, ishonmanglar ~ *išāmmāñlä*, ko‘nma ~ *kömmä*;

lm ~ mm: bilmadim ~ *bimmädīm*;

rn ~ nn: urnaydi ~ *unnäjdi*;

rt ~ tt: marta ~ *mättä*, o‘rnidan turdi ~ *önnidän türdi*, surnay ~ *sünnäj*, ertalab ~ *ettän*, chorvadorlar ~ *čarvadallar*, erta (mi indinmi) ~ *ettan (mettan)*;

hk ~ kk: mahkam ~ *mäkkäm*, mahkama ~ *mäkkämä*;

Tovushlar pozitsiyasi o‘zgarishlari. So‘z boshida, o‘rtasida dissimilatsiyaga uchrashi kuzatiladi: maqol ~ *naqāl*, mabodo ~ *nābādā|nāvādā*, ko‘ylak ~ *köjnäk*, mamlakat ~ *māmnäkät*;

shevada **l** tovushi dissimilatsiyaga uchrab **r** tovushi bilan almashinib keladi: zarur ~ *zärül|zäril*, zarar ~ *zäräl|zāläl*, devor ~ *düvāl*, musulmon ~ *müsürmān*,

Tovush tovushishi talaffuzda quyidagi hollarda yuz beradi:

B tovushi ba‘zan tushib qoladi: baqirma ~ *aqırma*, do‘mbira ~ *domira*, rais bo‘lmasa ~ *rājis (b)ömäsä*, kerak bo‘lsa ~ *keräg (b)ösä*;

yoziq yotmoq ~ *jāzi (p) jāt*, ko‘rishib yurmoq ~ *kōriši(p) jür*, hisoblab ber ~ *hisāvlä(p) ber*, topib ber ~ *tävü(p) ber*, yeb bo‘ladimi ~ *že(b) bölämä*, olib bor ~ *ā(b) bār*, solib ber ~ *sā(b) ber*; quyidagi so‘zlarda tovush ortishi ro‘y beradi: o‘taka ~ *bötäkä*, nomer ~ *nüंबर*; ayrim hududlarda yakka holda kamalak ~ *kāmbäläk* ko‘rinishida ortadi. Bunday tovush ortishi Qashqadaryo oraliq shevalarida ham qayd qilingan¹³⁹.

p undosh tovushida ham tovush tushishi kuzatiladi bunda unlilar cho‘ziqroq talaffuz qilinadi: xo‘p mayli ~ *xo:mājli*, ko‘p mashina ~ *kō:māšin*.

Ikki undosh yonma-yon kelganda so‘z oxiridagi **d** tovushi tushishi kuzatiladi: baland ~ *balan*, farzand ~ *parzan*; bunday holat **t** undoshi bilan ham kuzatiladi: to‘rt ~ *tor*, g‘isht ~ *yiš*, do‘st ~ *dos*, musht ~ *muš*; so‘z o‘rtasida ham mavjud: aytgansiz ~ *ajkānsis*, aytsin ~ *ājsün//ajqansiz*; chuqur til orqa **q**, **γ** undoshlarida ham tovush tushishi kuzatiladi: to‘g‘rab ~ *to:rab*, yig‘ladi ~ *jiladi*, qutlug‘ ~ *qutlu*, qichqir ~ *qičir*, qirqtim ~ *qirtim*, qirq

¹³⁹ Қудратов Т. Ўзбек тилининг оралиқ шевалари (Шаҳрисабз, Яқкабоғ, Чироқчи ва Қамашни районларидаги оралиқ шевалар материаллари асосида): Филол. фан. номз. ... дис. – Тошкент. 1968. – Б. 58.

besh ~ *qirbeš*, qattiq ~ *qātti*, sariq ~ *sari//sāri*, buloqqa ~ *bulāqa*, o‘choqqa ~ *o‘čāqa*.

Spirantizatsiya. o‘roq ~ *orāy*, tayoq ~ *tajay*, chuqur ~ *čuyur*, choqib ~ *čayiv*, bibi ~ *bivi*, labim ~ *lavim*, tobim ~ *tavum*, obod ~ *āvād*, tep ~ *tevip*, chopaman ~ *čävämän*, qilib edim ~ *qivadim*.

2.2. Qipchoq shevalarining morfologik xususiyatlari

Egalik. Denov qipchoq shevalarida egalik qo‘shimchalari o‘zbek adabiy tili bilan bir xil bo‘lib, unlilarning old va orqa qatorligi bilan ko‘p variantlilikni hosil qiladi. Qipchoq lahjasida asosiy qo‘shimchalar va ularning ko‘rinishlari 60ga yaqin ularning miqdor jihatda ko‘p bo‘lishiga sabab shevada ohangdoshlikning mavjudligi, o‘zak va negizlarning qattiq va yumshoq holatga ega bo‘lishi kabilar bilan izohlanadi¹⁴⁰. Denov qipchoq shevalarida egalik qo‘shimchalari adabiy tildan ko‘p variantliliigi bilan farqlanadi.

Birlik	Ko‘plik
-m, -im, im, -üm, -um;	-imiz, -imiz, -ümüz, -umuz;
-ŋ, -iŋ, -üŋ, -uŋ;	-iŋiz, -iŋiz, -üŋüz, -uŋuz;
-si, -si, -i, -i, -ü, -u	

Birinchi shaxs ko‘plikda ba‘zan qo‘shimchalarning oxirida jarangsizlashish kuzatiladi: *-miz ~ mis*, *-miz ~ mis*, *-imiz ~ imis*, *-imiz ~ imis*. Qipchoq lahjasidagi ko‘p variantlilik o‘g‘uz lahjasida ham mavjud¹⁴¹. Shevada jarangsiz **p** undoshi egalik affikslari qo‘shilganda jarangli **b** undoshiga o‘tadi: *sop ~ sābi*, *top ~ tābiŋ*, *ip ~ žip ~ žibiŋ*, *gap ~ gābim*. Denov qipchoq guruh shevalarda **-niki**¹⁴² affiksi ko‘rinishga ega (*-niki*, *-niqi*, *-diki*, *-diqi*, *-tiki*, *-tiqi*) qo‘llanadi: *ularniki ~ ulardiqi*, *Umarniki ~ umardiqi*.

Kelishik. O‘zbek adabiy tilida bo‘lganidek qipchoq guruh shevalarida ham 6tani tashkil qiladi. O‘zbek shevalarida ya‘ni singarmonizmni yo‘qotgan shahar shevalarida kelishiklar ko‘rsatkichi 4-5ta bo‘lib,

¹⁴⁰ Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 165.

¹⁴¹ Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 16.

¹⁴² Abstrakt egalik. Eski o‘zbek tilida qarashlilik ma‘nosi qaratqich kelishigi shakli bilan ifodalangan. Tarixan -niki affiksi -niŋ+ki qaratqich va xoslik, munosabat kabi ma‘nolarni anglatuvchi sifat yasovchi qo‘shimcha -ki (-qi, -yi, -gi) affikslarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan; Qarang: Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – B. 79.

Toshkent-Farg‘ona guruh shevalari 5 kelishikli, Samarqand-Buxoro, Qarshi guruh shevalari esa 4 kelishikli sheva hisoblanadi. O‘rganilayotgan hudud qipchoq guruh shevalarida ham kelishiklar soni 6ta, ammo yondosh qarluq guruh shevalarining ta‘siri natijasida ayrim o‘rinlarda tushum-qaratqich, o‘rin-payt-jo‘nalish kelishiklarining ko‘rsatkichi bir **-ni** va **-ga** ko‘rsatkichiga ega bo‘ladi. Bunday o‘zgarish juda siyrak tarqalgan. Shahar shevasidan uzoq joylashgan ya‘ni ta‘sirga uchramagan hududlarda kelishiklar ko‘rsatkichi o‘z o‘rnida qo‘llanadi.

Qaratqich kelishigi. Qipchoq guruh shevalarida qaratqich kelishigi *-niñ, -niñ, -iñ, -iñ, -diñ, -diñ, -tiñ, -tiñ, -uñ, üñ, -nuñ, -nüñ* (lablangan unlilar bilan qo‘llanishi siyrak uchraydi) ko‘rsatkichlariga ega. Unli va burun tovushlari **m, n, ŋ** tovushlaridan keyin *-niñ, -niñ* affikslari keladi: enaning ~ *enāniñ*, otaning ~ *atanīñ*, qudaning ~ *qudaniñ* kabi. *g, γ, v, ž, j, z, l, r* undoshlaridan so‘ng **-diñ, -diñ** affikslari: elning ~ *eldiñ*, tog‘ning ~ *tāvdiñ*, bizning bolalar ~ *bizdiñ bāčälā(r)*, uyning ~ *üjdiñ* qo‘llanadi. *k, q, p, s, t, š, č* undoshlaridan keyin **-tiñ, -tiñ** affikslari cho‘michning ~ *čömičtiñ*, qo‘shiqning ~ *qošiqtiñ*, otning ~ *āttiñ*, ishning ~ *ištiñ*, qishloqning ~ *dišlaxtiñ||qišlaxtiñ*.

Denov qipchoq guruh shevalarida Sherabod shevalarida mavjud bo‘lgan lablangan variantlari tarqoq (nafaol) holda uchraydi: qo‘zining ~ *qozunuñ*, tulkinining ini ~ *tülkünün ini*.

Jo‘sh, Sherabod shevalarida bo‘lgani kabi qaratqich kelishigining *z* undoshi bilan tugagan ba‘zi so‘zlarda *-ziñ, -ziñ (biz+niñ, siz+ziñ)* shaklida qo‘shiladi va progressiv, to‘liq assimilatsiya kuzatiladi. Bundan tashqari *biz+diñ, siz+diñ* shakli ham hududning ba‘zi shevalarida saqlanib qolgan.

Qarluq guruh shevalarga yondosh Hujum, Obodon, O‘zgarish, 8-mart qishloq shevalarida qarluq lahjasining ta‘sirida tushum va qaratqich kelishik ko‘rsatkichlari aralash qo‘llanishi kuzatildi: tolning butog‘i ~ *tāldi pītayī*, sutning foydasi ~ *sütti päjdäsi*; qaratqich-tushum kelishigining *-niñ\ -ni* tarzida qo‘llanishi qaratqich-tushum kelishik ko‘rsatkichlarining *oraliq bosqichda* turganligini ko‘rsatadi. Xorazm (*o‘g‘uz-qipchoq*) hamda Baliqchi kabi shevalarda qaratqich kelishigi qo‘shimchasi **-ni, -ni, -di, -di, -ti, -ti** ko‘rinishiga ega¹⁴³. O‘zbek adabiy tilida bo‘lgani kabi qipchoq guruh shevalarda ham qaratqich kelishigining belgisiz qo‘llanishi mavjud: - *Bü shāxlari (šāxlariniñ) sānini biz ālālmāymiz üni, endi söni sözlar äräläšib ketib täžiklär häm bar, o‘ris ham bar, qonyirāt häm bar e äräläšib ketädidä*.

¹⁴³ Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 36.

Šünän hāzīr ātam minän bittä: äkäm qājttib kep äkämiz ekki ājāyī žoy, bīrāvī beridän žoy bīrāvī mineridän žoq.

Tushum kelishigi. Tushum kelishigi qo‘shimchasi unli tovushlar va sporadik ravishda *m, n, η* undoshlaridan keyin *-ni, -nī* (bazan *-di, -dī*) *ešäkni žüllädi*; *g, γ, v, ž, j, z, l, r* undoshlaridan keyin *-di, -dī mäldi süvlä, ariqtayī süvdi başqarip*; *k, q, p, s, t, š, č* tovushlaridan keyin esa *-ti, -tī quštī qapasqa saldi* tarzida qo‘llanadi. Tushum kelishigining lablangan varianti Qashqadaryodan ko‘chib kelgan ayrim yoshi ulug‘lar (Hazarbog‘ markazi (sentr), 1-bo‘lim, 3-bo‘lim) nutqida tarqoq ko‘rinishda uchraydi, faol emas o‘rta va yosh qatlamda lablangan varianti uchramaydi. Barcha shevalarda bo‘lgani kabi belgisiz qo‘llanadi.

Jo‘nalish kelishigi. Shevalarda jo‘nalish kelishigi *-ga, -gä, -a, -ä, -jä, -na, -nä, -ka, -kä, -qa, -ya* kabi shakllari mavjud¹⁴⁴. Qipchoq shevalarida bo‘lganidek, *g, γ, v, n, m, ž, j, z, l, r* undoshlaridan keyin *-ga, -ya közga, hävlişigä, känälgä, üjigä, žäjgä, bätälängä*; *k, q, p, s, t, š, č* undoshlaridan keyin *-ka, -qa üriüşgä, āškä, iškä* affiskslari qo‘llanadi. Qipchoq guruh shevalarida jo‘nalish kelishigi affiksi qisqarib *-a, -ä* shaklida qo‘llanadi. bunday qisqarish ko‘proq I, II shaxs egalik affikslaridan keyin ishlatiladi: *sözim+ä, qazan+a, äkän+ä* kabi. Jo‘nalish kelishigining qisqargan ko‘rinishi Surxondaryo ž-lovchi shevalarining Sherobod, Oltinsoy, Qumqo‘rg‘on, Sho‘rchi, Sariosiyo, Uzun, Boysun, Angor, Muzrabot va boshqa shevalarda ham mavjudligini kuzatdik. Shahar shevalarida bo‘lgan o‘rin-payt va jo‘nalish kelishigi ko‘rsatkichining farqlanmasligi yuqorida sanalgan hududlar ž-lovchi shevalarida ham ayrim o‘rinlarda mavjudligi kuzatildi. Bunday o‘zgarish hududlarda yashovchi sheva vakillarining 15-40 yoshlar oralig‘ida ko‘proq kuzatiladi. Bu shahar shevasining ta‘sirida natijasida hosil bo‘lgan.

O‘rin-payt kelishigi. *-da, -dä, -ta, -tä* o‘rin-payt kelishigining ko‘rsatkichi-dir. Egnida ~ *ijnidä*, tog‘da ~ *tävdä*, kuzda ~ *küzdä*. O‘rganilayotgan hudud Laqay va Loyliq qishloq shevasida *-de, -te* ko‘rsatkichi uchraydi o‘tirgan yerda ~ *otiryān žeredē*, mehnatda ~ *mijnet+te*. *Qishloq, o‘roq* kabi chuqur til orqa undoshi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda qishloqqa o‘tirgan ~ *qišlaq+qa ötirgän*, o‘roqqa qolgan ~ *oraq+qa qalyān*.

Chiqish kelishigi. Qipchoq guruh shevalarida singarmonizm qonuniga muvofiq *-dan, -dän, -tan, -tän, -nan, -nän*: *ādamlā:nī tāvlardan köčirip žäjläštirdi; čālyā yājiptān avaz kegän; kemāni bāsqaññan kejin*.

¹⁴⁴ Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 43.

Unli tovushlar va *g, γ, v, ž, j, z, l, r* undoshlaridan keyin *-dan, -dän* daladan ~ *daladan*, ko‘ldan ~ *köldän*, qirdan ~ *qirdan*, choydan ~ *čäjdän*; *k, q, p, s, t, š, č* undoshlaridan keyin *-tan, -tän* qishloqdan ~ *qišlaqtan*, ishdan ~ *ištän*; *n, m, η* undoshlaridan keyin *-nän, -nan* (sporadik ravishda *-dan, -dän* ham keladi) mol shoxidan ~ *mäl šaxinnan*, odam tilidan ~ *ädäm tilinnän bäjlanädi*, tongdan turib ~ *tänän türip*.

Denov laqay va nayman *ž*-lovchi shevalarida *-den, -ten, -nen* sovg‘adan (*hadyadan*) ~ *häjde^oden*, o‘rikdan ~ *‘örikten*, tuxmatdan ~ *töhme^otten*, akangdan ~ *äke^oηnen* (bu guruh shevalarida ikkinchi bo‘g‘indagi *e^o* tovushi *e* va *ä* tovushlari oraliq‘idagi tovush sifatida talaffuz qilinadi). O‘rganilayotgan hudud shevasida *-dan* chiqish kelishigi ko‘rsatkichi o‘rinpayt, chiqish, jo‘nalish kelishik qo‘shimchalari bilan parallel kelishi yoki ularning o‘rnida qo‘llanishi mumkin: *dünjädän [dunyoda] e:ki ‘ölim bar*, qoldan [*qo‘lda*] *tigämiz, sannaqaqi adamdan baridan žoyi žaxšiqu, avaldan||avalda boyan, qavunnan [qovunni] körip rän älädi, işlarigä [ishlaridan] xabar alyanmiz*. Bundan tashqari A.G‘ulomov qayt etgan bir so‘z tarkibida chiqish hamda jo‘nalish kelishigining ketma-ket qavatlanib kelishi ham qarilar nutqida bor bo‘lib yosh avlod bu tarzda so‘z qo‘llamaydi: *uch so‘mdan sotildi ~ üssömdängä sätildi, tekinängä pi^ensä älärdi*¹⁴⁵.

Grammatik son kategoriyasi. O‘zbek adabiy tilida ko‘plik qo‘shimchasining bitta **-lar** shakli mavjud bo‘lib, shevalarda bu qo‘shimchaning variantlari bor. Ma‘lumki qadimgi turkiy tillarda va eski o‘zbek tilida otlardagi grammatik ko‘plik ma‘nosi, asosan, *-lar, lär* affiksi orqali ifodalangan. O‘rganilayotgan hudud qipchoq guruh shevalarida singlarmonizm hodisasi saqlanganligi sabab ko‘plik qo‘shimchasining *-lar, -lär, -nar, -när, -la, -lä* variantlari mavjud. Qipchoq guruh shevasida *a, i, o, u* unlilari bilan tugagan va tarkibida *q, γ, x* undoshlari qatnashgan so‘zlarda ko‘plik qo‘shimchasining *-lar* shakli, *ä, e, i, ö, ü* unlilari hamda *q, γ, x* undoshlari qatnashmagan so‘zlarda esa *-lär* ba‘zi shevalarda *-ler* shakli qo‘llanadi. Otalar ~ *atarlar*, bolalar ~ *bäčälär*, akalar ~ *äkälär*, kemalar ~ *kämälär*. Denov qipchoq guruh shevasida ko‘proq Laqaylar¹⁴⁶ shevasi *m, n, η* tovushlaridan keyin *-lar* qo‘shimchasi qo‘shilganda *adamnar, me:männär* shaklida talaffuz qilinadi. A.Mamatqulov Sherobod shevasida tiqinglar ~ *tiiñmar*, bo‘linglar ~ *boñnar*, teringlar ~ *teriñnär* kabi fe’llarda ko‘plik qo‘shimchasining *-ar, -är* shakli qo‘shilgan deb ma‘lumot beradi¹⁴⁷. Loyliq

¹⁴⁵ Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 54.

¹⁴⁶ Йўлдошев Т. Тожикистондаги ўзбек шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1986. – Б. 17.

¹⁴⁷ Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 7.

qishloq do‘rmon shevalarida yoshi kattalar nutqida dehqonlar ~ *dijqānār*, qopqonlar ~ *qāpqānnār* ko‘rinishida uchraydi. Bunday qo‘llanish Shimoliy Tojikiston shevalarida ham qayd qilingan¹⁴⁸. Namangan viloyatining Yangiqo‘rg‘on, Surxondaryo viloyatining Sherobod tuman shevasida *z, l, m, š, r, n, η* tovushlaridan so‘ng **-dar, -dār** affiksining qo‘llanishi Denov qipchoq guruh shevasida ham mavjud: toshlar ~ *tāšdar*, mollar ~ *māldar*, qizlar ~ *qīzdar* kabi. X.Alimurodov Surxondaryo Qo‘ng‘irot shevasida mavjud bo‘lgan men olmoshiga **-lar** affiksining qo‘shilishi ya‘ni *mennār* (*dājradā süv köp ᵛönnän, mennār ötišim qijin*) shakli mavjudligini ta‘kidlaydi. Biz o‘rganayotgan hudud qo‘ng‘irotlari nutqida bu hodisa kuzatilmadi. **-aq, -ay** affiksi ham Denov ž-lovchi shevalarida mavjudligi kuzatilmadi. Ba‘zi qipchoq shevalarida bo‘lgani kabi Denov shevasida ham **-lar, -larning** affikslari hurmat ma‘nosini ifodalamaydi, bu tahlit hurmat ma‘nosini ifodalash qarluq guruh shevalarining xususiyati hisoblanadi: **qip**. *Ātām rājändä qaldī, mā:limnār keldi; qar. ājimlār piširdilar*. Hozirgi kelasi zamon 1-shaxs ko‘plik shakli **-miz** qisqarib boramiz ~ *bāram*, qilamiz ~ *qīlam* shaklida qo‘llanadi. Yoshlar nutqida esa bu faqat **-mi** so‘roq yuklamasi bilan kelganda qisqaradi: qilamizmi ~ *qīlammī?*, boramizmi ~ *bārammī?*.

Fe’lga xos shakllar. Aniq o‘tgan zamoni ifodalashda **-di/-ti, -di/-ti** affikslaridan foydalaniladi.

Uzoq o‘tgan zamon adabiy til va dialektal zonaning qarluq shevalari kabi **-gän/-kän/-qan** shakllari bilan, shuningdek, **-yan** affiksi bilan ham ifodalanadi. Bunda **-gän/yan** qo‘shimchalari jarangli undosh bilan tugagan fe’l asoslariga, jarangsiz undosh bilan tugagan fe’l asoslariga esa, **-kän/-qan** affikslari qo‘shiladi. Old qator unlilar bilan **-gän/-kän**, orqa qator undoshlari bilan esa, **-qan/-yan** qo‘shimchalari qo‘shiladi. Mazkur affikslar fe’l asosidan keyin birinchi shaxs birlik va ko‘plik shaxs-son shakllaridan so‘ng, assimillatsiyaga uchraydi. Masalan, *oqiyamman, baryammiz* kabi.

O‘tgan zamoni ifodalashda qo‘llaniladigan analitik shakllar. *edi* to‘liqsiz fe’li oldidan **-ib (-b)** ravishdoshini qo‘llash orqali hosil qilinadi. Bunda ravishdoshning **b** elementi ikki unli o‘rtasida **v** ga o‘tadi va **e** to‘liqsiz fe’li cho‘ziq **i**: tarzida talaffuz qilinadi, borgan edim ~ *barivi:dim*, kelgan edim ~ *kelivi:dim* singari.

Shuningdek, **-ar** sifatdosh affiksidan so‘ng, *edi* to‘liqsiz fe’lini qo‘llash orqali o‘tgan zamon davom ma‘nosidagi analitik shakl yasaladi, yozar edim

¹⁴⁸ Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 7.

~ *jazaridim/jazari:dim*, o‘ynar edim ~ *ojnaridim/ojnari:dim* (ko‘rsatilgan misollarda singarmonizm buzilgan). O‘tgan zamon gumon ma‘nosini ifodalashda *gän/-kän/-qan/-yan* sifatdash shakllaridan so‘ng *-imiš/-ïmiš* affikslarini qo‘shish orqali hosil qilinadi, *ke(l)gänimišmän, baryanïmišmis*. Deyarli barcha zamon shakllaridan keyin *ekän/äkän* to‘liqsiz fe‘llari qo‘shilib kela oladi, *baryanäkän, kegänäkän*.

Hozirgi zamon davom fe‘li *-(ä)jöp/-(a)jap* affiksi bilan hosil qilinadi, *barajapti, keläjapti*. Shuningdek, keksa avlod vakillari nutqida *-jatir* affiksi ham qo‘llaniladiki, o‘rta yosh va yosh avlod nutqida bu kabi affiks uchramaydi. Bu holatni yondosh qarluq shevalari va adabiy tilning ta‘siri deb baholash mumkin.

Hozirgi-kelasi zamon *-(a)j* affiksi, kelasi zamon shakli *-a* affiksi orqali hosil qilinadi, *baradi, keladi*.

Bob bo‘yicha xulosalar

1. Denov qipchoq shevasining asosiy fonetik xususiyati so‘z boshida adabiy tildagi **j** o‘rnida **ž** undoshining qo‘llanishidir. Bu xususiyat yondosh qarluq shevalarining ta‘siriga uchramaganligi bu arealda ham bu undoshning kuchli pozitsiyasini anglatadi.

2. Denov qipchoq shevalari umumo‘zbek qipchoq shevalari kabi 9-10ta unli fonemalar tarkibiga ega. Bu shevalarda umumturkiy **a** unlisining qo‘llanishi shevaning asosiy xususiyatini belgilab beradi, lekin shevada qarluq shevalarining va tojik tilining ta‘sirida **ā** unlisi ham qo‘llanadiki, uning pozitsiyasi faqat anlaut – birinchi bo‘g‘in bilan belgilanadi.

3. Ma‘lumki, qipchoq shevalariga birlamchi cho‘ziq unililar xarakterli emas, lekin Denov qipchoq shevasida **i:** va **i:** cho‘ziq unililari uchraydiki, uning mavjudligi holatini belgilash qo‘shimcha tadqiqotni talab qiladi.

4. Denov qipchoq shevasida singarmonizmning qo‘llanishi to‘g‘risida ortiqcha fikr bildirish o‘rinsiz, lekin labial singarmonizmning *jürüptü, küçlü* kabi amal qilgan hollari bor.

5. Boshqa shevalarda bo‘lgani kabi singarmonizmdan chekinish hollari (*beralay*) ham uchraydi.

6. Shevada diftonglarning qo‘llanishi uning boshqa qipchoq shevalari bilan umumiy qonuniyatga bo‘ysunishini ko‘rsatadi.

7. Denov shevasida ham **f** undoshi aksariyat o‘rinlarda **p** undoshi bilan moslikni hosil qiladi, lekin jonli so‘zlashuvda **p** va **f** aralash (*däftär||däptär*) shaklda. qo‘llanishi ham qayd qilinadi. Albatta, bu holat shevaga tojik tilining ta‘siri natijasidir.

III bob. DENOVI KICHIK DIALEKTAL ZONASINI “O‘ZBEK XALQ SHEVALARI KORPUSIGA” JOYLASHTIRISH MASALASI

3.1. “Dialektal zona” va “kichik dialektal zona” tushunchasi

XX asr o‘zbek tilshunosligida shevalarni tadqiq qilishning yangi bosqichi rivojlandi, ya’ni shevalarning hududiy tarqalishi va bir-biriga o‘zaro ta’sirini o‘rganish boshlandi va shu asosda areal lingvistika fani shakllandi. Areal lingvistika fanining shakllantirilishiga keyingi davrda til va shevalarni o‘rganishga nisbatan o‘zgacha qarash, uning taraqqiy qilish xususiyatlariga bo‘lgan yangicha yondashuv sabab bo‘ldi. Areal lingvistika so‘zining ma’nosi lotincha – *area* (l) maydon, hudud, kenglik, *lingvistika* – tilshunoslik degan ma’nolarni anglatadi¹⁴⁹. Areal lingvistika terminini fanga birinchi M.Bartoli hamda G.Vidossilar tomonidan olib kirilgan bo‘lib, 1925-yilda M.Bartoli uning asosiy tamoyillarini ishlab chiqqan¹⁵⁰. Areal lingvistikada muayyan hududda tarqalgan til va shevalarni hududda tarqalishi uning atrof sheva yoki tillarga ta’siri jihatidan tadqiq qilinadi. Bunda o‘zaro aloqadagi til va shevalardagi izoglossalarning tarqalish chegarasi va markaziy (tayanch) nuqtasi belgilab olinib ilmiy talqin qilinadi. O‘rganilayotgan hududlar dialektal zonalarga ajratiladi. Areal lingvistikaning “lingvistik geografiya” metodi bo‘lib unda til va shevadagi fonetik, leksik va grammatik shaklga ega bo‘lgan izoglossalar guruhi yoki tanlab olingan izoglossa kartalarga joylashtiriladi. XX asr boshlarida tillar bilan bog‘liq hududiy masalalarni o‘rganuvchi yo‘nalish areal lingvistika emas, lingvistik geografiya yoki geografik lingvistika terminlari bilan nomlangan. Buni A.Shermatovning 1981-yilda chop etilgan 40 betlik “Lingvistik geografiya nima?” risolasidan ham anglash mumkin¹⁵¹. XIX-XX asrlarda turkiy tillarni tasnif qilgan akademik V.Radlov, V.Bogorodiskiy, N.Baskakov tasniflarida ham hududiy-geografik nomlanishni uchratish mumkin. V.Radlov turkiy tillarning sharqiy, g‘arbiy, O‘rta Osiyo va janubiy kabi guruhlarini, akademik F.Korsh shimoliy, g‘arbiy, sharqiy, aralash tipli guruhlarini, akademik M.Samoyilovich janubi-g‘arbiy, janubi-sharqiy, shimoli-g‘arbiy, shimoli-sharqiy kabi guruhlarini, N.A.Baskakov esa g‘arbiy xun va sharqiy xun tarmoqlarini ajratadi. Ko‘rinib turibdiki, lingvistik tadqiq va tasnif jarayonida geografik

¹⁴⁹ Ashirboyev S. Areal lingvistika. – Toshkent: Bookmany Print, 2023. – B. 5.

¹⁵⁰ Bartoli M. Introduzione alla neolinguistica. – Geneve, 1925; Bartoli M., Vidossi G. Lineamenti di linguistica spaziale. – Millane, 1943.

¹⁵¹ Шерматов А. Лингвистик география нима?. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 56.

(hududiy) tushunchalaridan foydalanish ancha uzoq tarix hamda an'anaga ega. Turkologiya bo'yicha diqqatga sazovor tadqiqotlar sirasiga N.Hojiyevaning "Turkiy areal lingvistika muammolari (Проблемы тюркской ареальной лингвистики (Москва, 1975)¹⁵²" keltirish mumkin. N.Hojiyeva areal lingvistikada oraliq hodisalar haqida ma'lumot beradi. G.Blagova (Тюркское склонение в ареально-историческом освещении (юго-восточный регион) asarida o'rta asrlarga oid matnlar asosida diaxron va sinxron usullar asosida lingvistik geografiyaning yangicha talqinlarini izohlab, tamoyillarni ishlab chiqqan va ularning tasnifini beradi. Bundan tashqari o'zbek va rus dialektologlaridan V.Reshetov (1952), F.Abdullayev (1961), T.Qudratov (1968), T.Turg'unov (1968),

M.Mirzayev (1966), E.Sheraliyev (1974), B.Hasanov (1980), X.Alimuradov (1982), R.Yo'ldoshev (2002) dialektologik (tadqiqot) ishlarida aynan areal lingvistika termini tilga olingan bo'lmasa ham tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida ilova sifatida izofonema, izoleksema va izomorfemalarning tarqalish o'rinlari kartalashtirilganligini ko'rishimiz mumkin. Yuqorida qayd qilingan olimlarning dialektologik ishlarini tadqiqidan shu narsa ma'lum bo'ladiki shevalar o'z o'rnida areal tadqiq etilgan va areal lingvistikaning rivojlanish debochasini boshlab bergan. Q.Muhammadjonov (1988), Y.Ibragimov (2000), I.Darvishov (2019), N.Rahmonov (2019) kabi olimlar esa o'zbek shevalarini areal lingvistik jihatdan o'rgangan bo'lib izoglossalarning tarqalishini kartalarda aks ettirgan. Lingvistik geografiya metodini rivolanishiga o'zbek tilshunoslari (dialektolog)ning o'zbek shevalari atlasini tuzish yo'lida olib borgan tadqiqotlarini alohida ta'kidlash o'rinli bo'ladi. A.Shermatov va Sh.Shoabdurahmonov o'zbek shevalari atlasini tuzish g'oyasini rivojlantirib uning zarurati va maqsad vazifalarini asoslab beradi. K.Yudaxin, Y.Polivanov, G'.Olim Yunus tasniflari ham areal lingvistika termini qo'llanmagan bo'lsa ham shevalarning rang-barangligi, murakkabligi ularning genetik shakllanishida qozoq, qirg'iz, turkman, uyg'ur, qoraqalpoq, tojik tillarining ta'sirida bo'lishi, buning natijasida oraliq shevalarning hosil bo'lishi haqidagi nazariyalar rivojlantiriladi. Mustaqillik yillarida o'zbek dialektologiyasi o'zbek tilshunosligining mukammal tarmog'i sifatida shakllangan bo'lishiga qaramay, shevashunoslik bo'yicha amalga oshiriladigan ilmiy izlanishlar sustlashdi. Bugungi kunda ham barcha o'zbek shevalari va ularning lisoniy xususiyatlari lingvistik geografiya, areal tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlilga tortilgan yoki

¹⁵² Ashirboyev S. Areal lingvistika. – Toshkent: Bookmany Print, 2023. – B. 93.

dialektologik tadqiq qilingan deb bo‘lmaydi. Ayniqsa, O‘zbekistonning markaziy va aholisi zich yirik shaharlaridan uzoq joylashgan aholi shevalarini o‘rganilishi hali o‘z yakunini topmagan. Balki, bu hududlarda yashaydigan aholining qaysi sheva vakili ekanligi haqida boshlang‘ich ma‘lumotlar ham yetarli emas. Bu esa o‘z o‘zidan bugungi kunda o‘zbek shevalarining areal tadqiqotiga muhtoj ekanligini ko‘rsatadi. Areal lingvistikaning rivojlanishi uning turi talqinlarini yuzaga keltiradi. Tilshunoslar areal lingvistikani “kabinet ishi” ya’ni to‘plangan sheva materiallarini nazariy rivojlantiradigan fan deb ham ta’kidlaydi¹⁵³. Dialektolog sheva materiallarini aholi yashash joylarida maxsus o‘rganish uchun chiqib tadqiq qilsa, areal lingvistikada shu to‘plangan ma‘lumotlar bir joyga o‘tirib ishlov beriladi¹⁵⁴. Albatta, shevaga bunday ishlov berishni dialektologik tadqiq qilingan shevalarga nisbatan qo‘llash mumkin. Y.Ibragimov “Areal lingvistika”ni “makon-zamon tilshunosligi” deb ta’riflaydi¹⁵⁵ hamda o‘zbek til maydoni mintaqalashtirish, dialektal mintaqal (dialektal zona) va nomintaqaviy dialektlar (azonal)ga ajralishini ta’kidlaydi.

Til va dialektlarni zonalashtirish areal lingvistikaning muhim masalalaridan bo‘lib, dialektal zonalarini tashkil etishda fokus tushunchasidan foydalaniladi. Til zonalarini tarixiy taraqqiyotida hamma dialektlarga xos xarakterli xususiyatlari qisqarishi va mayda zonalariga ajralishi mumkin bu hodisa ham lingvistik geografiyaning o‘rganish obyekti sanaladi. Til zonasi terminini A.Jo‘rayev “til massivi¹⁵⁶” termini bilan izohlaydi. Y.Ibragimov esa buni “til maydoni” termini bilan tushuntiradi¹⁵⁷. Til zonasi bu – o‘zaro yaqin tillar (idiom)ni yaqinlik darajasi va bir fokus nuqtasiga ko‘ra birlashtiradigan hududdir¹⁵⁸. Til zonalarini belgilashda muayyan tilning xalqaro ijtimoiy-siyosiy, madaniy va geografik joylashuvi muhim rol o‘ynaydi, bunda muayyan til atrof tillar hududida yoki dunyo bo‘ylab keng hududlarda tarqaladi. V.Jirmunskiy har bir milliy davlat hududida qo‘shni milliy guruh va ularning shevalari yashashi, ayrim hollarda bu lisoniy tarqoqlik xilma-xillikka sabab bo‘ladi. O‘zaro yaqin til va shevalarda uzoq yillar yonma-yon yashashi natijasida turli tillarda

¹⁵³ Ashirboyev S. Areal lingvistika. – Toshkent: Bookmany Print, 2023. – B. 8.

¹⁵⁴ Бородина М.А. Проблемы лингвистической географии. – Москва-Ленинград, 1966. – С. 7.

¹⁵⁵ Иброҳимов Й.М. Жанубий оролбўйи ўзбек шевалари тадқиқи. Филол. фан. докт. ...дис. – Тошкент, 2000. – Б. 34.

¹⁵⁶ Джураев А. Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991. – С. 23.

¹⁵⁷ Иброҳимов Й. М. Жанубий оролбўйи ўзбек шевалари тадқиқи: Филол. фан. докт. ...дис. – Тошкент, 2000. – Б. 34.

¹⁵⁸ Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 106.

so‘zlashuvchi qo‘shnilar orasida murakkab va tarixiy lisoniy jihatdan o‘zaro aloqalar amalga oshirilishini ta’kidlaydi¹⁵⁹. Muayyan til tarqalgan hudud o‘sha til bilan ataladigan til zonasini tashkil etadi. Bu zonada shu til barcha aholiga tushunarli bo‘ladi va bu hududda milliy tillar yoki xalq tili mustaqil qo‘llanishi davom etadi¹⁶⁰. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan shu oydinlashadiki, har qanday til o‘zining hududiy bo‘lagiga ega bo‘lishi mumkin va bu dialekt zona termini bilan nomlanadi. Dialekt zona – bir til doirasidagi lahja, dialekt va shevalar hamda aloqadagi tillarning fokus nuqtasiga ko‘ra joylashish hududidir¹⁶¹. A.Jo‘rayev dialekt zonalarni ifodalashda ijtimoiy-tarixiy maqomiga ko‘ra o‘ta muhim, tayanch shevasi yirik shahar shevasi ekanligini ta’kidlaydi hamda uni *fokus nuqta* deb ataydi¹⁶². A.Jo‘rayev o‘z tadqiqot ishida o‘zbek tili massivini 11 ta dialektal zonaga ajratgan¹⁶³ va 7 ta azonal¹⁶⁴ hududlarni ham belgilagan. 1) Janubiy-sharqiy Farg‘ona dialektal zonasi – *fokus nuqtasi* Andijon shahri va O‘sh (qarluq) shevasi; 2) Shimoliy Farg‘ona dialektal zonasi – *fokus nuqtasi* Namangan umlautli qarluq shevasi; 3) Janubiy-g‘arbiy Farg‘ona dialektal zonasi – *fokus nuqtasi* Qo‘qon, Marg‘ilon va Farg‘ona qarluq shevalari; 4) Toshkent dialektal zonasi – *fokus nuqtasi* Toshkent (qarluq) dialekti; 5) Janubiy Qozog‘iston dialektal zonasi – *fokus nuqtasi* Chimkent va Turkistondagi qarluq shevalari; 6) Xorazm dialektal zonasi – *fokus nuqtasi* Urganch va Xiva o‘g‘uz shevalari; 7) Buxoro dialektal zonasi – *fokus nuqtasi* ikki tilli Buxoro shevasi; 8) Samarqand dialektal zonasi – *fokus nuqtasi* ikki tilli Samarqand shahar shevasi; 9) Yuqori Qashqadaryo dialektal zonasi – *fokus nuqtasi* Shahrisabz va Kitob qarluq shevalari; 10) Quyi Qashqadaryo dialektal zonasi – fokus nuqtasi Qarshi qarluq shevasi; 11) Surxondaryo dialektal zonasi – *fokus nuqtasi* Termiz shahar shevasi. Ma’lumki, dialektal zonada asosiy e’tibor shahar dialektining fokus nuqtasini bajarishga qaratiladi¹⁶⁵. Bu tushuncha nisbatan yirikroq hududlarni qamrab olishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarga egamiz. Dialektal

¹⁵⁹ Жирмунский В.М. О диалектологическом атласе тюркских языков Советского Союза//Вопр. Языкознания. 1963. – № 6. – С. 18.

¹⁶⁰ Ashirboyev S. Areal lingvistika. – Toshkent: Bookmany Print, 2023. – B. 72.

¹⁶¹ Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 106.

¹⁶² Ashirboyev S. Areal lingvistika. – Toshkent: Bookmany Print, 2023. – B. 74.

¹⁶³ Джурраев, А. Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991. – С. 65.

¹⁶⁴ Siyosiy, madaniy va tayanch bo‘ladigan yirik dialektga mansubligini ijtimoiy hayotda belgilab bo‘lmaydi, u hududda boshqa shevalar uchun ta’sir kuchiga ega bo‘lgan shahar dialekti ya’ni fokus nuqtasi bo‘la oladigan dialektni o‘rnatish mumkin bo‘lmagan hudud.

¹⁶⁵ Джурраев А. Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991. – С. 66.

zona areal tadqiqotlar natijasiga ko‘ra belgilanadi, ya’ni shu zonada yuqori ta’sirga ega bo‘lgan shahar shevasi dominantlik qiladi va atrof shevalarga doimiy ta’sir etib turadi. A.Jo‘rayev, dialektal zonalarning fokus nuqtalarini kuchli va kuchsiz dialektal zonalarga ham bo‘lib tasniflaydi¹⁶⁶.

A.Jo‘rayev azonal hududlar haqida ham to‘xtalgan bo‘lib, azonal bu fokus nuqtasiga ya’ni dominantlik qiladigan tayanch shahar shevasiga ega bo‘lmagan areallar tushuniladi. Bunga Sirdaryo-Jizzax, Chorjo‘y, Shimoliy Qoraqalpog‘iston, Uchquduq-Zarafshon, Xo‘jand-Ko‘lob-Qo‘rg‘ontepa, Olabuqa-Oqtom-To‘xtag‘ul (Qirg‘iziston), Jambul (Qozog‘iston) azonal hududlarini kiritadi¹⁶⁷.

Albatta, shahar dialektining dominantligi shaharning tarixan shakllangan dialekti bo‘lishi, u siyosiy, iqtisodiy va madaniy tadbirlar markazi sifatidagi o‘ziga xos o‘rni, unda shu zonadagi turli sheva va til vakillarining ishtiroki, shuningdek, ularning adabiy til bilan birga, shu shahar shevasiga xos unsurlarni o‘z nutqida qo‘llashga majbur bo‘lishi kabilarda ko‘rinadi. Shunday holatlarning kengroq miqyosda bo‘lmasa-da, tarixan shakllangan ayrim tuman markazlariga ham xosligi ma’lum bo‘lib qolmoqda. Jumladan, Denov shahri shunday vazifani bajara oladi, ya’ni bu shaharda, asosan, qarluq shevasi vakillari yashasa, uning ayrim mahallalarida tojiklar, qo‘shnichilikda qipchoq shevasi vakillari yashaydiki, tarixan ular o‘zaro kontaktda bo‘lib kelganlar. Ular o‘zaro munosabatlari natijasida shevada aralashuv jarayonlari kechmoqda va bunda qarluq shevasi dominantlik qilmoqda. Demak, ushbu zonada qarluqlar shevasi fokus nuqta vazifasini bajaradi. *Kichik dialektal zona* terminida, garchi *dialekt* so‘zi ishtirok etsa-da, bu o‘rinda *dialekt* emas, balki *sheva* tushunchasi ma’qul. Til massivining dialektal zonasida, avval aytganimizdek, tayanch dialekt tushunchasida haqiqatdan ham shahar dialektining ishtiroki ta’kidlanadi, lekin O‘zbekiston hududidagi barcha shaharlarda ham terminologik ma’nodagi *dialekt* emas, balki aksariyat shaharlar bir shevalidir, bu o‘rinda ham *dialekt* terminidan foydalaniladi, lekin bu so‘z *sheva* termini ma’nosiga teng bo‘ladi. Dialektologik adabiyotlarda *dialekt* terminidan ham lahja, ham sheva, ham umumlingvistik tushuncha sifatida foydalanish imkoniyatlari bo‘lib

¹⁶⁶ Джураев А. Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991. – С. 24.

¹⁶⁷ Джураев А. Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991. – С. 71-74.

kelgan¹⁶⁸ va hozir ham shunday qo‘llanish holatlari mavjud. To‘g‘ri, sheva, dialekt, lahja tushunchalarining pog‘onaviylik ma‘nosi o‘z kuchini saqlaydi¹⁶⁹. Dastlabki fikrdan foydalanib, *kichik dialektal zona* terminidagi *dialekt* so‘zini faqat sheva ma‘nosida qo‘llanayotganini ta’kidlaymiz hamda uni dastlab Denov tumani misolida asoslashga harakat qilamiz va uni *kichik dialektal zonaning* bir namunasi sifatida tavsiya etamiz. Shuningdek, kichik dialektal zonani belgilashda aholining yo dialektal, yo til rang-barangligi bo‘lgan hududlardan qidirish lozim. Agar tuman aholisi bir shevali yoki bir tillik (qarindosh yoki qarindosh bo‘lmagan til) bo‘lsa, u yirik dialektal zonaning periferik hududi deb qarash to‘g‘ri bo‘ladi. Masalan, Bandixon tumani¹⁷⁰ aholisi faqat qipchoqlardan iborat bo‘lgani bois unda dialektal zona belgilanmaydi, balki u Surxondaryo dialektal zonasining periferik hududlaridan biri hisoblanadi. Aslida Surxondaryoni yaxlit bir dialektal zona deb belgilash masalasi ham munozarali, bunga A.Jo‘rayevning Termiz shahri shevasining kuchsiz fokus nuqtasi deb yuritishi¹⁷¹ sabab bo‘ladi. Bu esa, Surxondaryo shevalarining yaxlit dialektal zonaligi masalasida munozara qilishga olib keladi.

Bizning tadqiqot obyektimiz bo‘lgan Denov shevalari birinchi marta o‘rganilayotgani, uning atrof shevalari ham tadqiqot obyekti bo‘lmaganligi bois areal tadqiqdan oldin hudud shevasi dialektologik tadqiq qilindi. To‘g‘ri, tadqiq qilinayotgan Denov shevasi S.Rahimovning “O‘zbek tili Surxondaryo shevalari (fonetika, leksika)1985)” nomzodlik dissertatsiyasida hudud aholisi tarkibi, sheva xususiyatlari haqida ma’lumot berilgan, biroq muallif keltirgan qipchoq lahjasi vakillari yashaydigan hudud deb berilgan “Dahana” qishlog‘ida qipchoqlar emas, balki qadimdan qarluq lahjasi va tojik tilli aholi yashashi, Qoraxon, Qizilsuv qishloqlarida qipchoq, qarluq va tojik tilli aholi aralash yashashligi bizga ma’lum. Bu esa alohida qayta tekshirishni talab etadi. Tadqiqotda muallif ž-lovchi shevalarni til xususiyatiga ko‘ra ikki guruhga ajratadi va ikkinchi guruhga Sho‘rchi tuman shevasini ham kiritadi. Bizning kuzatish jarayonimizda hudud shevasi til xususiyati (singarmonizmni saqlash, saqlamasligi, shahar shevasi va tojik tilining ta’sir)ga ko‘ra ikkinchi guruhdan ko‘ra birinchi guruhga ko‘proq yaqinligi ochiqlandi. Albatta, bu o‘rinda Sho‘rchi va

¹⁶⁸ Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 6.; Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Абдулла Қодирий, 2004. – Б. 5.

¹⁶⁹ Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 12.

¹⁷⁰ https://uz.wikipedia.org/wiki/Bandixon_tumani

¹⁷¹ Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991. – С. 70.

- D 3 - Sherobod tumani (qarluq, qipchoq-80%, oraliq shevalar);
D 4 - Gagarin (Muzrabod) tumani (qipchoq-80%, qarluq, oraliq shevalar);
D 5 - Termiz tumani (qipchoq-40%¹⁷⁴, qarluq, oraliq shevalar);

O‘zbek tilining janubiy dialektallarining tekshirilishidan ko‘rishimiz mumkinki, Yuqori va Quyi Qashqadaryo dialektal zonalarini¹⁷⁵ Surxondaryo dialektal zonasidan anchagina yaxshi va atroflicha o‘rganilganligini bilishimiz mumkin. Buning sababi Qashqadaryo shevalari nisbatan to‘liq o‘rganilganidir. Olim keltirgan diagrammada Surxondaryo viloyati hududlaridan faqat 5tasi dialektologik o‘rganilgani va zonani aniqlash, fokus nuqtani belgilashda shu tadqiqotlardan foydalanilgani ma’lum bo‘ladi. Albatta, shevalari to‘liq o‘rganilmagan hududni fokus nuqtasini belgilash munozaralarga sabab bo‘ladi. Denov shevasini kuzatish davrida viloyatning boshqa tumanlari haqida ham qisqacha ma’lumot to‘pladik. Hozircha faqat aholi tarkibi haqida qisqacha ma’lumot berib ketamiz, hududlarning sheva xususiyatlari esa alohida tadqiqot talab qiladi.

Jarqo‘rg‘on tumani (qipchoq-80%, qarluq, tojik, tatar, rus, koreys, qozoq, turkman) o‘zbeklar 90 foiz; Qumqo‘rg‘on tumani (qipchoq-75%, qarluq, tojik, tatar,

rus) o‘zbeklar 90 foiz; Sho‘rchi tumani (qipchoq-70%, qarluq, tojik, tatar, rus) o‘zbeklar 90 foiz; Angor tumani (qipchoq-80%, qarluq, tojik, tatar, rus, turkman) o‘zbeklar 90 foiz; Bandixon tumani (qipchoq, tojik) o‘zbeklar 96 foiz; Qiziriq tumani (qipchoq-70%, qarluq, tojik, tatar, rus, turkman) o‘zbeklar 80 foiz; Oltinsoy tumani (qipchoq-30%, qarluq, tojik, tatar, rus) o‘zbeklar 70 foiz; Uzun tumani (qipchoq-20%, qarluq, tojik, tatar, rus, koreys, qozoq, turkman) o‘zbeklar 60 foiz; Denov tumani (qipchoq-20%, qarluq, tojik, tatar, rus, koreys, qozoq, turkman, arab, jo‘gi) o‘zbeklar 60 foiz.

S.Rahimov tadqiqotida¹⁷⁶ Surxondaryo viloyatida Boysun va Sariosiyo tumani shevalarida ikki tillik mavjud deb bergan ma’lumoti ham zona shevalarini to‘liq o‘rganilmaganidan xabar beradi. Haqiqatdan ham, zonaning deyarli barcha tumanlarida ikki tilda so‘zlashuvchi qishloq aholi vakillari mavjud. Bu esa murakkab dialektal zonani hosil qiladi.

Areal lingvistikada dialektal zonalar tarkib topishiga ko‘ra ham farqlanadi. Yuqorida biz Denov shevasini “*kichik dialektal zona*” sifatida

¹⁷⁴ Qipchoq lahjasi vakillarining foizda berilishi bizning o‘rganishlarimiz natijasida belgilangan.

¹⁷⁵ Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991. – С. 69-70.

¹⁷⁶ Рахимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари (Фонетика, Лексика). – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 24.

tavsiya qildik, quyida esa buni izohlashga harakat qilamiz. Denov tuman aholisi asosan qarluq, qipchoq dialekti hamda tojik tilli aholidan, ayrim qishloqlarda esa tatar, turkman, qozoq, boshqird, arab, lo‘li millatiga mansub aholi istiqomat qiladi. Bu kam sonli millatlar joylashgan (yashash joyi) hududiga qarab qarluq va qipchoq shevasida muloqot qiladi o‘z tillarida ba’zi o‘rinlardagina suhbatlashadi. Lo‘lilar esa tojik tilida gaplashadi. Kichik dialektal zonaning fokus nuqtasi bu Denov shahar shevasi bo‘lib bu sheva 6-7ta (*a, ä, ā, o, u, i, e*) unidan iborat. Kelishiklari soni 5ta va bu xususiyati bilan Toshkent-Farg‘ona dialekti bilan bir xillikni tashkil etadi. Samarqand-Buxoro dialekti kabi o‘rin-payt va jo‘nalish kelishigi Denov shahri shevasida farqlanadi. Fe’lning o‘tgan zamon davom shakli *-(a)jātgan* sifatdash shakli hamda to‘liqsiz fe’l shakli bilan ifodalanadi: *qilajātgan edim, sorajātgan edi* tarzida. Ravishdoshga *-jātib* affiksi va *shaxs-son* qo‘shimchalari qo‘shish orqali aniq hozirgi zamon ma’nosi ifodalanadi: *dejājātibdi, qojājātibdi* shaklida. Tayanch shevadagi bu morfologik xususiyat atrof shevalarga qilgan ta’siri bilan yetakchilik qiladi. Hozirgi kunga kelib tayanch sheva bo‘lgan Denov shahri shevasining ta’siri yosh (14-30) va o‘rta yosh (45 yoshgacha) bo‘lgan aholi nutqida yaqqol seziladi, hatto ayrim sheva vakillari o‘z shevalarida gaplashmasdan faqat o‘zlashgan Shahar shevasida muloqot qilganini ko‘rishimiz mumkin.

qarluq	shahar shevasi	qipchoq	Adabiy tilda
qilāpti	qilajapti	qilajātibdi	qilyapti
kelāpti	kelajāpti	kelajātibdi	kelyapti
dejāpti	de:āpti//dejājāpti	dejājātibdi	deyapti

Adabiy tilda mavjud bo‘lgan *ā* tovushi zonada faol qo‘llanib, atrof shevalarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazganligini ko‘rishimiz mumkin. *ǰ*-lovchi shevalardan O‘zgarish, O‘rtabo‘z, O‘rtaqishloq, Eshako‘ldi, Zartepa, Chuqurqishloq, Chim, Obodon, O‘rmon, Qoraxon, Qizilsuv, G‘alaba, Hayrabod kabi qishloqlar shevasida bu tovush keng tarqalgan. Biz yuqorida Denov *ǰ*-lovchilar shevasini 2 guruhga bo‘lib o‘rgangan edik. Birinchi guruhda bu unli o‘zlashib bo‘lgan bo‘lsa 2-guruh shevasida bu tovush bozorda ishlovchilar, shaharda budjet tashkilotida ishlovchilar hamda maktab o‘quvchilari nutqida mavjud. Oilada o‘zaro muloqot jarayonida bu tovushni qo‘llash qolgan yoshi katta va qishloqdan chiqmasdan mehnat qilayotgan aholi nutqida ham ba’zi o‘rinlarda uchrab turadi. Masalan: Cho‘ntoshda yashaydigan asli kelib chiqishi Qashqadaryo viloyati Shahrisabzlik, kenagas urug‘i vakili 80 yoshli Allanazarov Davron buvani suhbatiga e’tibor qaratsak: *Hä huš kördik neväräm, sālomatma narjaqa*

ötirmäj berjaqa ötiripsiläre, āyajnīlara:m žāxšīma. Āta uruyarīmiz āsli šāhrisābzni qonyirātīdan, kenāgās degān žāji bār. Šü sāngärdäkkä kelip, he:(j) bāyčaga kelip kegin kopajip ketgan. Sālamatma // salamatma, āyajnīlara:m // ayajinlar, žāxšīma // žaxšīma soʻzlarida **ā** tovushining oʻzlashganini koʻrishimiz mumkin. Bundan tashqari, kichik dialektal zonada yashovchi tojik tilli aholi tili ham fokus nuqta shevasi taʼsirida oʻzbek tilining qarluq guruh shevasiga koʻchganligini koʻrishimiz mumkin. Masalan ikki tilda yaʼni tojik tili va shahar shevasida soʻzlashuvchi aholi nutqida adabiy tildagi **ā** tovushi orqa qator lablangan **o** tovushiga moyil *bazor ~ bazār, tamān ~ tamon, samān ~ samon* kabi talaffuz qilinadi. Bu xususiyati bilan Buxoro ikki tilli shevalariga oʻxshashlik hosil qiladi.

Fokus nuqtadan, yaʼni shahardan uzoqlashgan sari zona shevasida sheva va til xususiyatlari saqlaganligini koʻrishimiz mumkin. Bunga togʻli Oʻshor, Pojur, Sina qishloq tojik tili va qarluq shevalarini hamda Hayrabod, Hazarbogʻ 5-boʻlim **ž**-lovchi shevalarini, shuningdek, Oybarak, Qizilfargʻona (a-lovchi) qarluq guruh shevalarini misol qilishimiz mumkin. Yana shuni alohida taʼkidlash kerakki Oʻrmon qishloq shevasi shaharga juda yaqin ekanligiga qaramasdan oʻz shevasini kuchli saqlagan, buning sababi qishloq aholisi tarkibi faqat qoʻngʻirot urugʻi va ularning koʻproq dehqonchilik bilan shugʻullanishi boʻlsa kerak, toʻgʻri, qishloqda 22 ta xonadonda joʻgilar ham yashaydi, lekin ular doim koʻchada, safarda boʻlganligi va qishloq aholisi bilan ijtimoiy aloqaga kirishmagani, urf-odatlarini kesishadigan nuqtaning yoʻqligidan qishloq shevasi bilan kontakt hosil qilmagan. Kichik dialektal zona sifatida tavsiya etilayotgan Denov shevasini oʻrganish hudud shevasida qarluq lahjasining singarmonizmni yoʻqotgan shevalari, qipchoq lahjasiga oid shevalar hamda tojik tili muomalada borligini koʻrsatdi. Bunda, albatta, qarluq shevalari fokus nuqtasi vazifasini bajarishi va atrof shevalarga taʼsiri borligi aniqlandi. Shuni alohida taʼkidlashimiz lozim tekshirilgan Denov shahri shevasi kichik dialektal zona sifatida hududda oʻz maqomini mustahkamlab, iqtisodiy, geografik joylashuvi, infratuzilmasi, etnik rang-barangligi bilan Surxondaryo dialektal zonasining fokus nuqtasi maqomiga ham daʼvogarlik qila oladi. Dialektal zonalarni belgilash tajribasini kuzatadigan boʻlsak, Termiz shahri shevasi poytaxt shahar ekanligi, siyosiy-madaniy tadbirlarning markazi, rivojlangan infratuzilma, sifatli tibbiyot, oliy taʼlim dargohlarining viloyat markazida ekanligi bilan aholi oqimini oʻziga jalb qilib fokus nuqta vazifasini bajarsa, Denov kichik dialektal zonasi qadimiy qulay savdo markazi boʻlganligi, iqlimi, xizmat koʻrsatishning sifati, dehqonchilik va chorvachilik uchun qulay sharoitda va yirik Denov bozori

mavjudligi, viloyat aholisi tabiiy oqimi yo'lida ekanligi bilan, boshqa tumanlari aholising doimiy o'zi tomonga harakatga bo'lishiga sabab bo'ladi, muloqot esa, albatta, Denov shahri shevasida amalga oshiriladi.

3.2. Denov tojiklari nutqida qipchoq va qarluq shevalari xususiyatlarining namoyon bo'lishi

O'zbek va tojik tilli aholi asrlar davomida bir geografik sharoitda hayot kechirib, o'zaro iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqada bo'lib kelganlar. Tarixan mazkur areallarda tojiklar yashab kelmoqdaki, bu esa, Denov kichik dialektal zonasidagi o'zbek va tojik tilli aholi asrlar davomida bir geografik sharoitda hayot kechirib, o'zaro iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqada bo'lib kelganligini, bu ikki xalqning urf-odati, kundalik turmush tarzi ularning tilida ham yaqqol sezilib turishini ifoda etadi.

Bu hudud aholisining aksariyati ikki tilda qiynalmasdan muloqotga kirisha oladi. O'zbek va tojik xalqlari Surxondaryo viloyatining eng qadimgi aholi vakillari ekanligi tarixdan ma'lum. Bu xalqlarning tarixi So'g'd, Baqtriya, Farg'ona, Shosh tarixi bilan bevosita bog'langan¹⁷⁷. G.A.Pugachenko va E.V.Rtveladzelarning "Северная Бактрия Тохаристон" asarida ham miloddan avvalgi VI-III ming yilliklarda "Hisor madaniyati" davri bo'lganligi va bu yerlik aholi chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanganligi haqida ma'lumot berilgan¹⁷⁸. Ptolemey asarlari, Xitoy yodnomalari va V.V.Grigorevning Hind eposi "Maxabxorat" asarida ham hozirgi tojik xalqining eng qadimgi urug'lari Sharqiy Turkistonda Pomir va Tyanshan tog'larining etaklarida, Chudaryosi va Balxash ko'li bo'ylariga tarqaganligi haqida ma'lumotlar berilgan¹⁷⁹. O'zbek va tojik xalqining o'zaro aloqada yashashi o'rganilayotgan hudud aholisining tili va madaniyatiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Denov tumanida o'zbek urug'larining turk-kaltatoy, kaltatoy, barlos, turk-barlos, musobozori (muso), uyg'ur, chigil, xalaj, yag'mo urug'-qabila birlashmalari va XV asrdan boshlab qo'ng'iroq, yuz, do'rmon, laqay, nayman urug' vakillari ko'chib o'troq yashashni boshlagan bo'lsa tojik tilli aholi ulardan oldinroq bu hududda yashaganlar. Tojik etnonimi haqida ham bir qancha qarashlar mavjud. "Tojik" etnonimi o'rta forschada "tazig"

¹⁷⁷ Юсупов Қ. Ўзбек ва тожик тилларининг ўзаро алоқаси // Учение записки IV. Филологическая серия. – Фарғона. ФерГПИ, 1957. – Б. 67.

¹⁷⁸ Пугаченкова Г.А. Халчаян. (к проблеме художественной культуры Северной Бактрии). – Тошкент: 1966. – С. 13.

¹⁷⁹ Ўзбекистон халқлари тарихи. 1-том. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 46-48.

soʻzining kelib chiqishi bilan bogʻliq. Eron dunyosining sharqida soʻgʻdcha “tozik” soʻzi jihod bayrogʻi ostida u yerga bostirib kirgan xalifalik qoʻshinlarini nazarda tutgan. Oʻrta Osiyoni bosib olgan qoraxoniylar turklari oʻtroq boʻlgan Eron aholisini belgilashda “tejik” soʻzini keng qoʻllashgan. Eron dunyosining narigi chekkasida “tejik” arman tilida barcha musulmonlarga berilgan nom edi¹⁸⁰. I.I.Zarubin bergan maʼlumotlarga qaraganda turk qabilalari oʻtroqlashgan musulmonlar ularning madaniyatini oʻzlashtirgan va boʻysungan aholini tilidan qatʼi nazar “tāʼžik” nomi bilan yuritgan¹⁸¹. V.V.Bartoldning fikricha, esa bu qadimgi “tay” qabilasi nomiga borib taqaladi. Oʻzbek va tojik tillari orasidagi soʻzlarning aralash qoʻllanish Mahmud Koshgʻariy davrida ham mavjudligi haqida A.K.Borovkov quyidagi maʼlumotni keltiradi: “Sharqiy Turkistonda Chu va Talas, Balasogʻun, Taraz, Sayram shaharlarida aholi oʻzbekcha va tojikcha (soʻgʻdcha) soʻzlashgan”¹⁸². Mumtoz adabiyot namoyondalari Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Gulxaniy, Maxmur asarlarida ham ikki tillik xususiyatini koʻrishimiz mumkin. Bundan tashqari, Sakkokiy, Atoiy, Lutfiy, Durbek, S.Ayniy, H.Hakimzoda, Gʻ.Gʻulom, K.Yashin, Uygʻun va boshqa koʻpgina shoirlar ijodida ham bu kuzatiladi¹⁸³.

Oʻzbek, tojik tillarini oʻrgangan M.S.Andreyev tojik tilini ikki katta guruhga boʻladi:

1. Samarqand-Buxoro-Fargʻona guruh: izofali aniqlovchining 2 xil qoʻllanishi -mādāri bača, bačaja mādaraš; kishilik olmoshi 3-shaxs birlik formasi *u, vay* soʻzlaridan foydalanish.

2. Janubiy guruh: izofali aniqlovchining bir formasining qoʻllanishi - *mādāri bača*; 3-shaxs kishilik olmoshi uchun -*u* ning qoʻllanishi.

Denov tojiklari nutqida tasnifdagi 2 guruhning ham til xususiyatlari mavjudligini koʻrishimiz mumkin. Bizningcha aholi nutqida bunday til xususiyatlarini aralash qoʻllanishi Denov tumaniga keyingi davrda koʻchirib kelingan (Fargʻona, Samarqand) va oʻzlari koʻchib kelib joylashgan (Tojikiston, Afgʻoniston) tojik tili aholi migratsiyasiga bogʻliq.

Ikki til vakillarining uzoq asrlik oʻzaro yonma-yon yashashlari oʻzbek va tojik tillari kontaktini yuzaga chiqargan. Kontakt natijasida oʻzbek tilidagi fonetik, grammatik, leksik birliklar tojik tiliga oʻtgan, shuningdek,

¹⁸⁰ <https://goaravetisyan.ru/uz/kto-takie-tadzhiki-i-otkuda-prishli-yavlyayutsya-li-tadzhiki/>

¹⁸¹ Зарубин И.И. Список народностей Туркестанского края. – Ленинград, 1925. – С. 6-8.

¹⁸² Боровков А.К. Таджикско-узбекское двуязычие // Ученые записки инс-та востоковедения. – С. 165-200.

¹⁸³ Юсупов Қ. Ўзбек ва тожик тилларининг ўзаро алоқаси // Учение записки. IV. Филологическая серия. – Фарғона. ФерГПИ, 1957. – Б. 77.

tojik tilidagi fonetik, grammatik, leksik birliklar o‘zbek tili shevalariga “ko‘chgan”.

Kichik dialektal zonadagi qipchoq, qarluq shevalariga tojik tilining ta’siri, ayniqsa, leksikada yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, tojikcha sabzi qipchoq shevalarida sabiz/sabzi, qarluq shevalarida sabzi ko‘rinishida qo‘llaniladi.

O‘zbek adabiy tilida	Qarluq shevalarida	Qipchoq shevalarida	Tojik tilida
Arava	ärävä	arava/araba	araba
bangi	bāñi	bañi	bangi
yostiқ	bāliš	balış /bāliš	bolish
Darranda	därrändä	därrändä	darranda
Darcha	därčä	därčä	darcha
dastak	dästäk	dästäk	dastak
daxmaza	däxmäzä	Daxmaza	daxmaza
dori	dāri	dä:ri / däri	doru
	kāpä	kāpä	kapa
gajak	gāžäk	gāžäk	gajak
	Gäštäk	Gäštäk	gashtak
gard	gärt	gärt	gart
	Gird(i)	Gird(i)	gird
	gümānä	gümānä	Gumona
		aptava/ attava	
	dāvčä	dāvčä	dovuchcha
	zardāli	zardali	Zardolu

Denov tumanining Dahana, Sina, Ko‘kabuloq, Kuyovsu, Pojur, Sohobkor (Kuyovsu, Sina ko‘chalar) qishloqlarida tojik tilli aholi guruh bo‘lib yashaydi, Mehnatobod, Denov shahar, Yurchi qishloqlarida tojik tilli aholi yashaydi. O‘zbek adabiy tilida qo‘llanadigan ayrim o‘zlashgan so‘zlar har ikki tilda ham uchraydi: *buyaltir, direktor, rājis, kitāb, xalq, häftä, göšt, rāhbär, dasta* kabidir.

O‘rganilayotgan hudud shevasida tojik tilidan o‘zlashgan quyidagi so‘zlarni ham ko‘rishimiz mumkin:

O‘zbek adabiy tilida	Shevada	Tojik tilida	izoh
so‘ri	supa	čārpāja	
qovoq//oshkadi	kadi	kādi//āškadu	

olov	alāv	ālāv	
yengcha	rapīda	rafida	
to‘n	čapān // čāpān	čāpān	
yostiқ	jāstīq // jastīq, dastīq, bāliš	tākijā	
cho‘ntak	kista	kista	
sop	dasta	dasta	
urug‘	urīy // tuxīm	tuxum//urīy	
mushuk	pišāk // mušuk	pišāk	
novvos	hökis // živānä	buqa	
muqova	žild // ust	žilt	

Bu so‘zlar aksariyat o‘zbek shevalarining lug‘at boyligida mavjud.

O‘zbek shevalarini o‘rganishda ikki tillilik termini ishlatilgan bo‘lib bu aynan o‘zbek va tojik tilli aholi yashaydigan hududlar shevasi haqida ma‘lumot beradi. Masalan: V.Nalivkin va V.Nalivkinalar ham Farg‘ona viloyat o‘zbek va tojik tillarining munosabatini o‘rgangan¹⁸⁴, M.Mirzayev “O‘zbek tilining Buxoro guruppa shevalari”¹⁸⁵, S.Rahimov Surxondaryo o‘zbek shevalari (fonetika, leksika)¹⁸⁶, T.Turg‘unov “O‘zbek tilining g‘arbiy Farg‘ona shevalari”(fonetik va morfologik xususiyatlari)¹⁸⁷, E.Sheraliyev “Shimoliy-sharqiy Tojikiston o‘zbek shevalari leksikasi”¹⁸⁸, D.Ishondaev “Namangan atrof tojik va o‘zbek shevalarida so‘z yasashning ayrim xususiyatlari”¹⁸⁹, X.Gulyamov Узбекско-таджикские языковые связи (лексико-тимологическое исследование)¹⁹⁰, D.Abdullayeva “O‘zbek tili Oshoba shevasining fonetik xususiyatlari”¹⁹¹, H.Uzoqov “O‘zbek tilining Janubiy Farg‘ona shevalari (fonetik, morfologik

¹⁸⁴ Юсупов Қ. Ўзбек ва тожик тилларининг ўзаро алоқаси // Учение записки. IV. Филологическая серия. – Фарғона: ФерГПИ, 1957. – Б. 78

¹⁸⁵ Мирзаев М.М. Ўзбек тилининг Бухоро гуруппа шевалари. – Тошкент: Фан, 1969.

¹⁸⁶ Раҳимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари (Фонетика, Лексика). – Тошкент: Фан, 1985.

– 390 б.

¹⁸⁷ Турғунов Т. Ўзбек тилининг ғарбий Фарғона шевалари (фонетик ва морфологик хусусиятлари): Филол. фан. номз. ... дис. – Тошкент, 1968. – 243 б.

¹⁸⁸ Шералиев Э. Шимолӣ-шарқӣ Тожикистон ўзбек шевалари лексикаси: Филол. фан. номзоди... дис. – Тошкент, 1974. – 320 б.

¹⁸⁹ Ишондаев Д. Наманган атроф тожик ва ўзбек шеваларида сўз яшашнинг айрим хусусиятлари (Тожик ва ўзбек тилларининг ўзаро таъсири масаласига доир): Филол. фан. номз. ... дис. – Тошкент, 1967. – Б. 185.

¹⁹⁰ Гулямов Х. Узбекско-таджикские языковые связи (лексико-этимологическое исследование). – Тошкент: Фан, 1983. – 169 б.

¹⁹¹ Абдуллаева Д. Ўзбек тили Ошоба шеvasининг фонетик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дис. – Тошкент. 1999. – 148 б.

va leksik xususiyatlari)¹⁹², A.Mamatqulov “Sherobod ž-lovchi shevalar”¹⁹³ kabi ilmiy tadqiqotlar shular jumlasidandir. S.Rahimov o‘zbek va tojik tili aloqalari haqida to‘xtalib, “Surxondaryo o‘zbek shevalari yuzasidan olib borilgan lingvistik kuzatishlardan shu narsa aniqlandiki, Boysun, Sariosiyo, Denov, Sherobod tumanlari territoriyasida ham xuddi Buxoro, Samarqand, Quyi Qashqadaryodagi shevalar singari “ikki tillilik” mavjud”¹⁹⁴, – deydi. Keltirgan ma’lumotlardan ma’lum bo‘ladiki, Surxondaryo viloyatining boshqa tumanlaridagi ikki tillilik haqida axborot berilmaydi. Bizningcha, tadqiqotchi boshqa hududlardagi tojik tilli aholi haqida ma’lumotga ega bo‘lmagan. Ikki tilli aholi Uzun, Oltinsoy (1981-yil tashkil etilgan), Jarqo‘rg‘on, Bandixon, Muzrabot, Termiz shahar, Qumqo‘rg‘on, Sho‘rchi tumanlarida ham mavjud bo‘lib, bu hududlarda ham tojiklar o‘zbek qipchoq va qarluq lahjasi vakillari bilan qo‘shnichilikda yashaydi.

Qo‘shnichilik ta’sirida hudud aholisi nutqida tojik tilining ta’siri va aksincha, tojik tilli aholining nutqida qarluq-qipchoq shevasiga xos so‘zlarning o‘zlashganligini ko‘rishimiz mumkin: gardon ~ **gardan**, bangi ~ **bāñi**, kam ~ **kam**, cho‘p ~ **čop** //kaltak, dast ~ **das**, peshtoq ~ **peštāy**, ustixon ~ **suyak**||**ustixan(qip-choqlarda)**, nozvig // nozviy ~ **rayxon**, zardop ~ **zārdap**||**zardāp**, yax ~ **jax**, muz.

Ushbu o‘zbek adabiy tiliga o‘zlashgan so‘zlar Denov qarluq-qipchoq guruh shevalarida ham fonetik o‘zgarishlar bilan faol qo‘llanadi. Bundan tashqari shevalarda *-mand*, *-parast*, *-bop*, *-boz*, *-bon*, *-go‘y*, *-do‘z*, *-paz*, *-xo‘r*, *-parvar*, *-furush*, *-xona* singari affikslashgan tojikcha so‘zlar va *-be*, *-ba*, *-bar*, *-no*, *-xush*, *-ser* kabi qo‘shimchalar yordamida o‘zbekcha, arabcha so‘zlardan yangicha so‘zlar yasalganligini ko‘rishimiz mumkin: **bahramand**, **amalparast**, **menbop**, **nasihatgo‘y**, **mehribon**, **choypurush**, **etikdo‘z**, **ishqivoz**, **odamparvar**, **bechiqim**, **xushxabar**, **serhosil** kabi. Tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlarning aksariyati aniq bir predmet yoki obyektini ifodalab kelgan va o‘zbek shevalarida muhim o‘rin egallagan, shuningdek yangi so‘zlarning yasalishiga ham asos bo‘lgan. Masalan: *dutor+chi*, *xursand+chilik*, *past+la+sh+ib*, *daraxt+siz*, *charm+gar+lik*, *zar-do‘z+lik*, *chilan+gar+lik*, *pilla+kash+lik*, *nimxo‘r*, *molxona*, *halvo+paz+lik*||*halvopurush*, *nishola+paz*||*nisholafurush* singari. Tojiklar bilan bir hududda uzoq davrlar aralash yashash natijasida o‘zbek adabiy

¹⁹² Узоқов Х. Ўзбек тилининг Жанубий Фарғона шевалари (фонетик, морфологик ва лексик хусусиятлари): Филол. фан.номз. ... дис. – Тошкент, 1966. – 230 б.

¹⁹³ Маматкулов А. Шеробод районидаги “дж” ловчи шеванинг ундошлар системаси // Илмий асарлар. – Қарши-Тошкент: ҚДПИ, 17 китоб. 1965. – Б. 36-43.

¹⁹⁴ Раҳимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари (Фонетика, Лексика). – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 89.

tilida uchramaydigan, faqat shevada qoʻllanadigan dialektal soʻzlar ham mavjud. Oʻrganilayotgan hududning Qoraxon, Oʻrta qishloq, Oʻzgarish, Obodon, Oʻshor, Sohibkor, Oybarak, Hazarbogʻ qishloq shevalarida kundalik turmush tarzi, kasb-kori, ish-faoliyati bilan bogʻliq soʻzlar faol qoʻllanadi:

Kaltak ~ tajāq

Sāxtik ~ āmāch

Tabar ~ bālta

Surxča ~ qizilča, qizāmiq, čėčak

mirāb, murāb ~ su:či, suvči

satil ~ baqir, paqir

takja ~ jastiq, jāstiq, dastiq

žoja ~ ariq, ariy.

xišāva~ čāpiq

damād ~ kijāv, kujāv.

Oʻzbek tilidagi bir qator tojik tilidan kirgan soʻzlar ikki tilda ham oʻz maʼnosida qoʻllanishini kuzatishimiz mumkin:

bālāxāna ~ yuqori uy, tepa uy, baland uy, ustki uy, uyning ikkinchi qavati; čārva (čahār–chor -toʻrt, pā -oyoq, toʻrt oyoqlilar) ~ chorva; – *aravakash, moʻysafid, mardikor, laganbardor, tekinoxor* kabi koʻplab soʻzlar tojik tilida ham oʻzbek tilida ham bir xilda qoʻllanadi.

Ikki tilda ham koʻp sohalarda umumiy birlik mavjudligi sabab ularning leksikasida ham mushtaraklik mavjud:

boshpana ~ (bosh-oʻzbekcha, pana-tojikcha)

xarsangtosh ~ (xarsang-tojikcha, tosh-oʻzbekcha)

shirinsoʻz ~ (shirin-tojikcha, soʻz-oʻzbekcha)

yalangbosh ~ (yalang-tojikcha, bosh-oʻzbekcha)

Oʻzbek va tojik tilidagi ayrim soʻzlar qoʻshilib yangi maʼno hosil qilganini koʻrishimiz mumkin. Masalan: *xarsangtosh* soʻzi – tojikcha “*xar-eshak, sang-tosh*” maʼnosida boʻlib, eshakday katta maʼnosida *xarsang* – katta tosh qoʻllangan. Tojik tilidagi “*xar*” soʻziga tojikcha *sang* va oʻzbek tilidagi *tosh* soʻzlari qoʻshilib *katta tosh* maʼnosini bergan. Bundan tashqari tojikcha siyoh soʻzi aslida *qora* maʼnosida boʻlib, hozirgi kunda otga koʻchgan. Oʻzbekcha *koʻk siyoh*- asl maʼnosi *koʻk qora*, koʻchgan maʼnosi “koʻk rang”. Bu soʻzni *dilimni siyoh qilding*, yaʼni koʻnglimni ogʻritding, xafa qilding maʼnosida qoʻllanishi ham mavjud. Bundan tashqari Denov qipchoq guruhi shevalarida tojik tilidan oʻzlashgan shunday soʻzlar uchraydiki, ularning asl tojikcha soʻz ekanligini, uning kelib chiqishini bilishmaydi. Ž-lovchi sheva vakillari qarluq guruh shevasida muloqot

qiluvchi aholini “tojiklar”¹⁹⁵ deb atashadi, bunga sabab qarluq lahjasida so‘zlashuvchi aholi qadimdan tojiklar bilan o‘zaro qo‘shnichilikda yashashidir. Qipchoq lahjasi vakillari nutqida ham tojik tili elementlari ko‘p uchraydi. Masalan: sochiqni olib kel ~ *dasta pāk (dastipak)ni apke*, oshning suyagiga ehtiyot bo‘l ~ *ašti ustixaniga extijat bol*, yulg‘un ko‘p bo‘lganmi ~ *žinil(žunil) möl bögämä*, yulg‘un ilondek chirmashgan ~ *e ukayare žunil mār bolib ketgane: aa*, ha ko‘p bo‘ldi ~ *hä möl bölli*, o‘zi rosa urush bo‘ldi ~ *özi rasā žaṇ böldi*.

Tojik tilining o‘zbek tili (shevalari)ga ta’siri bo‘lganidek, o‘z navbatida o‘zbek tilining ham tojik tiliga ta’siri katta. Masalan, o‘zbek va tojik tillarida undoshlarning artikulyatsion bazasining bir xil bo‘lishi uzoq vaqt bir-biriga ta’siri natijasidir. Tojik tiliga o‘zbek tilidan o‘zlashgan **q** tovushi bunga misol bo‘ladi. Bu tovush sof turkiy tovush bo‘lib, tojik tili mansub bo‘lgan hind-yevropa tillarida yo‘q¹⁹⁶. Tojik tilidagi sirg‘aluvchi **ž** ning hozirgi o‘zbek shevalaridagi qorishiq-portlovchi **ž** kabi talaffuz qilinishi ham bu o‘zbek tili(shevalar)ning ta’siri bo‘lishi mumkin¹⁹⁷. Bundan tashqari tojik tilidagi so‘zlarga urg‘u tushishi ham o‘zbek tilining ta’siri natijasi bo‘lib, hind-yevropa tillaridagi urg‘uning tabiatidan farq qiladi.

Tojik tilida o‘zbek tilining ta’sirida morfologik shakllar *-či, -ča* affikslari juda faol qo‘llanadi: *yolg‘onchi ~ duroy+či, andava ~ andava+či, dutorchi ~ dutār+či, o‘g‘ilcha ~ pisarča, qozoncha ~ deg+ča, cho‘michcha ~ ābgardān+ča*. O‘zbek tilidagi *-loq(lāq)* affiksi *-lāh* shaklida qo‘llanadi: *toshloq ~ saṇ-loh, po‘stloq ~ post+loh(x)*.

O‘zbek tilining tojik tiliga ta’siri fe‘l so‘z turkumida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bunda o‘zbek tilida ba’zi so‘zlar ko‘makchi fe‘l ma’nosida qo‘llanishi tojik tiliga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan:

Turmoq – istādan	Man dida istoda d(b)udam – Men ko‘rib turgan edim
O‘tirmoq –nišastan, šištan	Bečāra diroz kurtašrā xudaš dardeh karda šišta bud – Bechora kecha ko‘ylagini o‘zi yamab o‘tirgan edi
Aylanmoq, yurmoq – gaštan	Šavharam dar armiya sihat va salāmat kār karda gaštaast – Erim armiyada sog‘-salomat ishlab yuribdi

¹⁹⁵ Denov tuman O‘shor, Sohikkor, Oybarak qishloqlarida yashovchi aholi ž-lovchi sheva vakillarini “o‘zbeklar” deyishadi. Bunday atash Qashqadaryo, Buxoro viloyatida ham mavjudligi haqida sheva vakillari ma’lumot berdi.

¹⁹⁶ Раҳмонбердиев К. Ўзбек тили контактлари. – Тошкент: Фан, 1989. – Б. 43.

¹⁹⁷ Раҳмонбердиев К. Ўзбек тили контактлари. – Тошкент: Фан, 1989. – Б. 44.

Bormoq, ketmoq – raftan	Nurali alav barin dargirifta raft – Nurali olov singari lovillab ketti
Kelmoq – āmādan, āmadan	Sāl̄hāi sāl ādamhāi kambayalrā kār farmuda haq kāšanra xorda āmadi – Yillar davomida kambag‘allarga ish buyurib haqlarini yeb kelding
Qo‘ymoq – māndan	Vajrā binem az vačhi tu ham bava gap zada memānem – Uni ko‘raylik seni nomingdan ham gapirib qo‘yamiz
Olmoq – giriftan, giftan	Isted ki man inrā ba daftari xātiram nāvišta giram – To‘xtang men buni esdalik daftarimga yozib qo‘yay
O‘tmoq – guzaštan	Vāj rāhbārāni mrā tanqid kardaguzašt – U bizning rahbarlarimizni tanqid qilib o‘tdi
Tashlamoq, otmoq – partāft an	Namedānist ki. či kār karda hamān dāyerā ki Zamira ba rui o guzašta ast šusta partājad – Qanday qilib Zamira uning yuziga tushirgan dog‘ni yuvib tashlashni bilmas edi
Yubormoq -firistādan	Nadihed, barham dāda fristoned ān xatrā – Bermang yo‘q qilib yuboring o‘sha xatni

Yuqoridagi so‘zlarning ko‘makchi vazifasida kelishi tojik adabiy tilida ham uchraydi¹⁹⁸. Tojik tilida o‘zbek tilidagi ba’zi yuklamalar ham qo‘llanadi. Bular: *so‘roq yuklamasi -mi*: -Inhā savyātii ganda-mi?

-*či yuklamasi*: -mā ba qadri xālamā jak čiz xaridem bined-či, xaridamā durust ast jā ne;

- *tasdiq yuklamasi – ha*: Havā bisjār xunuk-mi? –Ha havā xunuk, šamāli izyirin...;

- ko‘rsatkich olmoshlari: ***ana, mana***;

- *undov yuklamasi -ma*: (Ma, inrā tu gir) ham shunday o‘zlashgan qo‘shimchalardan biri ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Denov tojiklari nutqida 2 xil sheva mavjud bo‘lib, so‘z qo‘llashda ham ikki xillik kuzatiladi. Masalan:

respān firston – ipni yubor	respān filtān – ipni yubor
Čilika havā te — chilikni ot	Čiliga qalāba te — chilikni ot
γirrāma nakun – g‘irromlik qilma	Qalloba nakun – g‘irromlik qilma
Mādgāva bandimi – sigirni bog‘ladingmi	Mādgāva bastimi – sigirni bog‘ladingmi

¹⁹⁸ Раҳмонбердиев К. Ўзбек тили контактлари. – Тошкент: Фан, 1989. – Б. 52.

Gāva āmadu barzagāv na āmad	Barza gān na āmad
Āv xorid	Ov nošid
Giret avqat xored(t)	Giret avqat nošid
Čalāba nošid	Čalāba xored
Xami kalān āmadem	Beklisāj āmadem

O‘shor qishloq shevasida tojikcha o‘zlashmalarning kundalik turmush jarayonida ishlatilishini kuzatishimiz mumkin:

- Maktabning pastidan keling – *Maktabni pājidan hov pājčadan keliņ;*
- Adog‘dan o‘lchang – *Pājčadan olčañ.*

O‘zaro aloqaga kirishgan tillarda so‘z o‘zlashtirish ikki tomonlama bo‘ladi. Tojik tilida o‘zbekcha leksik o‘zlashmalar juda ko‘p bo‘lib, turli sohalarni o‘z ichiga olgan. Bular: *av, avchi, ayron, ayg‘ir, aka, alov, alo(ola), alotumshuq, burchak, butalaq, buqa, bala, yonbosh, bo‘rdoqi, bo‘g‘cha, yo‘rg‘a, yog‘iy, kurk, keksa, ko‘chat, ozuqa, oybolta, oluq(sovg‘a), oqsoqol, og‘ayni, sarqut, sanchoq, soy, talqon, telpak, tikka, tortuq, tag‘o, to‘rachi, tumshuq, to‘qli, to‘sh, chakka, chatoq, chaqrim, chumcha(cho‘mich), cho‘l, cho‘ri, cho‘qqi* va boshqa ko‘plab so‘zlar o‘zlashganini ko‘rishimiz mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tilining tojik tiliga sezilarli darajada ta‘siri bor bo‘lib, bu ta‘sir tilning barcha o‘rinlarida ko‘rinadi. Sababi, o‘zbek va tojik xalqlarining ming yildan ortiq o‘zaro aloqada bo‘lib kelganligi hamda til kontakti ham juda kuchli bo‘lganligidir¹⁹⁹.

O‘zbek tili va tojik tilidagi o‘zlashgan so‘zlarning yana bir xarakterli xususiyati har ikki tilda sinonim, antonim, takroriy so‘zlar va frazeologik iboralarning son va sifat jihatdan rivojlanishiga sabab bo‘lyapti. Sinonimlarning hosil bo‘lishi haqida K.Yusupov quyidagicha ma‘lumot beradi.

a) umumxalq tilida asosan bir tasavvurni ifodalovchi turli so‘zlar ichida ma‘no jihatdan bir xillik, o‘xshashlik, yaqinlik tug‘ilishi natijasida: yaxshi – *yoqimli*, do‘st – *yor*, qadrdon – *o‘rtoq*.

b) ma‘lum ma‘noga ega bo‘lgan so‘zlar ustiga ayrim mahalliy dialektlardan shu so‘zlarga ma‘no jihatdan yaqin bo‘lgan so‘zlarning qo‘shilishidan: katta – *ulkan*, aka – *og‘a*, tovush – *sas*.

c) turli tillardan so‘z o‘zlashishi natijasida: manglay – *peshona*, kift – *yelka*, metod – *usul*.

¹⁹⁹ Раҳмонбердиев К. Ўзбек тили контактлари. – Тошкент: Фан, 1989. – Б. 55.

O‘zbek va tojik tilidagi so‘zlar parallel qo‘llanishi natijasida shevada ularning sinonimlari yuzaga kelganini kuzatishimiz mumkin.

manglay – peshona	o‘rtoq – jo‘ra, oshno (a)
ko‘k – osmon	yayov – piyoda
ko‘kat – sabza	oylik – maosh(mohuna)
quyosh – oftob	o‘rnak – namuna
buloq – chashma	murt – mo‘ylab(muylab)
yaproq – barg	kuch – quvvat
chuchuk – shirin	buyruq – farmon
oltin – tillo	uy – xona
chayla – chodir	g‘azab – qahr
hiyla – nayrang	sog‘ – salomat
o‘t – olov	sanoqsiz – behisob
marta – safar	jimlik – sukunat
bo‘sh – sust	tovush – ovoz
ataylab – jo‘rtta(ga)	o‘y – xayol
cho‘g‘ – otash	yolqin – alanga

Ikki tilning o‘zaro aloqasi natijasida ayrim so‘zlar shu darajada birikishga ega bo‘lganki natijada bu sinonimlar juft so‘zlarni hosil qilgan: *to‘y-tomosh*, *qahr-g‘azab*, *sog‘-salomat*, *o‘y-xayol*. Bu so‘zlar har ikki tilda ham qo‘llanishi bilan xarakterlidir.

O‘zbek va tojik tilidagi aralashuv ko‘proq o‘zbek tilida antonimlarning hosil bo‘lishiga zamin yaratgan bular: *ortiq – kam*, *o‘ng – chap*, *uzun – kalta*, *sog‘ – bemor*; o‘zbek shevalari bilan bir qatorda o‘zbek tilida ham tojik tilidagi ayrim antonimlarni to‘lig‘icha o‘zlashtirganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu antonimlar o‘zbek tilidagi antonimlar bilan parallel qo‘llanadi: *achchiq-chuchuk // shirin–bemaza*.

O‘zbek shevalarida qo‘llanadigan takroriy so‘zlar o‘zbek va tojik tillarining o‘zaro ta’siri natijasida hosil bo‘lgan, ular tarkibiga ko‘ra:

- grammatik belgisiz takroriy so‘zlar: *kam-kam*, *baland-baland*, *oz-oz*, *yuksak-yuksak*,

- grammatik belgisi bo‘lgan takroriy so‘zlar: *kamdan-kam*, *shirindan-shirin*, *shahardan-shaharga*, *so‘zma-so‘z*, *ketma-ket*, *sog‘-nosog‘*,

- fonetik o‘zgarish sodir bo‘lgan takroriy so‘zlar: *sal-pal*, *oz-moz kabi*.

3.3. Til korpusida Denov shevasi ma'lumotlar bazasini shakllantirish va qidiruv tizimiga joylashtirish masalalari

Dunyo tilshunosligi zamon bilan hamnafas rivojlanish bosqichida bo'lib, zamon bilan hisoblashmagan til egalari shu tilning kelajagini yo'qotib qo'yadi. Buni dunyo tilshunosligida qilinadigan tadqiqotlardan ham kuzatish mumkin. Har qanday tilning kelib chiqish asosi va uning milliyligini saqlab turgan lingvistik bazasi mavjud bo'ladi. Lingvistik bazalar esa bu har bir tilning o'z shevasi (shevalari) hisoblanib, sheva sofligi qanchalik yuqori saqlansa, tilning ham yashovchanligi o'sib boradi. Hozirgi axborot texnologiyalar rivojlangan dunyoda tillar xilma-xil bo'lishiga qaramay u doimiy kamayib bormoqda, chunki mahalliy nutq shakllari kichik til oilalari, rivojlanmagan davlatlar tili asosiy muloqot vositasi bo'lgan rivojlangan (davlatlar) tillar ta'sirida o'lib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan Amerika tilshunoslik maktabi (LSA) saytida tillarning yo'qolishi haqida quyidagicha jumlar keltiriladi, *"Tilni yosh bolalar o'rganishdan to'xtasa, uning (o'lim)kuni aniq sanaladi"*²⁰⁰. Demak, bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, har qanday tilni asrab qolish uchun til ma'lumotlarini bir joyga to'plash uni qayta ishlash tahlil qilish va uni keng omma foydalanishi uchun qulay tizimga tushirish kerak.

Til korpuslari har qanday tilning qulay sistemalashtirilgan, foydalanish uchun qulaylashtirilgan dasturlar to'plami hisoblanadi. Dunyo tilshunosligida zamonaviy yo'nalish sanalganda korpus lingvistikasi va uning turlari, korpus yaratish, undan foydalanish usullari alohida tilga olinadi. Korpus lingvistikasi – bu lingvistik hodisalar yoki lingvistik o'zgarishlar haqida ma'lumot olish uchun tabiiy, mashina-da o'qiladigan matnlarning tizimli to'plamlariga tayanadigan metodologiya, – deb ta'riflanadi. Tilshunoslikda korpus haqida turli xil ta'riflar birlashib quyidagicha sharhlanadi: til birliklarining xususiyatlarini aniqlash maqsadida qidiruv dasturiga bo'ysundirilgan matnlar majmui, tabiiy tildagi elektron saqlanadigan yozma yoki og'zaki kompyuterlashtirilgan qidiruv tizimiga dasturiy ta'minot asosida joylashtirilgan matnlar jamlanmasidir²⁰¹. Jahon tilshunosligida dastlabki korpus nemis olimi Kading nomi bilan bog'lanadi. Olim 1890-yillarning oxirida 11 mln nemis so'zlaridan iborat korpus yaratgan. Korpus nemis tilida harflar chastotasini aniqlash va harflar

²⁰⁰ <https://www.linguisticsociety.org/content/how-many-languages-are-there-world>

²⁰¹ Abdullayeva O. O'zbek tilining internet axborot matnlari korpusini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari: Filol. fan.bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent, 2022. – B. 14.

ketma-ketligini taqsimlash uchun ishlatilgan²⁰². Korpus lingvistikasining rivojlanishi manbalarda 3 davrga bo‘linadi: 1) Korpus lingvistikasining ilk davri – bu davr 1950-yilgacha bo‘lgan davr bo‘lib, bu davr kompyuter bo‘lmagan vaqtlarga to‘g‘ri keladi har qanday korpus qo‘lda ko‘p kuch va vaqt sarflab tayyorlangan; 2) Xomskiy davri – 1950-60 — yillar oralig‘i. Bu davr kichik bo‘lsa ham korpus rivojlanishi uchun Xomskiyning qarashlari va ta‘limoti yetakchi rol o‘ynagan; 3) uchinchi davr 1960-yildan hozirgacha bo‘lgan zamonaviy korpus lingvistikasi davridir. Korpus va korpus lingvistikasi nazariyalarining yaratilishi shu davrga to‘g‘ri keladi. Korpus so‘zining etimologiyasiga ham e‘tibor qaratishni lozim topdik. Korpus – lotin tilida “*tana*” degan so‘zdan kelib chiqqan bo‘lib, VI asrda “Corpus Juris Civilis” huquqiy matnlarini tavsiflash uchun ishlatilgan²⁰³. Oksford ingliz tili lug‘atida keltirilgan besh ta‘rifning biriga ko‘ra, korpus bu “*lingvistik tahlilga asoslangan yozma yoki og‘zaki materiallarning tanasi*”dir. Demak korpus faqatgina matnlar to‘plami emas, balki, lingvistik tahlil uchun foydalaniladigan ma‘lum bir til, dialekt, boshqa tilning vakili deb taxmin qilingan matnlar to‘plamidir²⁰⁴. Korpus lingvistikasi (CL) “tadqiqotlarni korpusdan olingan ma‘lumotlarga asoslaydigan tilshunoslikning bir tarmog‘i” deb ta‘riflanishi mumkin. Buni lingvistik intizom emas, balki ko‘plab fanlarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan uslubiy yondashuv deb qarash mumkin. Ushbu fanlararo bog‘liqlik tufayli u haqiqatdan ham hozirgi tilshunoslik tadqiqotlarida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. CL – lingvistik korpuslarni ishlab chiqish va tahlil qilishga asoslangan. Korpus – bu tilning haqiqiy matn namunalari (romanlar, pyesalar, ssenariylar, yangiliklar, insholar, radio va televideniye dasturlari stenogrammasi, suhbatlar yoki nutqlardan olingan) to‘plami. Ular odatda onlayn yoki elektron formatda paydo bo‘ladi, chunki ularning o‘lchamlari ko‘pincha katta bo‘ladi. Oldindan aniqlangan obyektiv mezonlar bo‘yicha tanlangan namunalar o‘rganilayotgan tilning ifodasini ta‘minlashga qaratilgan. Xulosa qilib aytganda, korpuslar tilshunoslikning

²⁰² Abdullayeva O. O‘zbek tilining internet axborot matnlari korpusini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari: Filol. fan.bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent, 2022. – B. 12; Qarang: Abdurahmonova N. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 285; McEnery A., Wilson A. Corpus Linguistics (1st ed.). – Edinburg: Edinburg University Press, 1996.

²⁰³ Abdullayeva O. O‘zbek tilining internet axborot matnlari korpusini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent, 2022. – B. 23.

²⁰⁴ Francis W.N., Johansson S. Problems of Assembling and Computerizing Large Corpora. // Computer Corpora in English language Research. – Bergen: Norwegian Computing Centre of the Humanities, 1982.

muhim vositasidir, chunki ular tilning turli tomonlarini yoki uning xilma-xilligini tadqiq qilish imkonini beradi.

Tadqiqotlarda matnlarni tanlashda qo'llaniladigan mezonlar korpusning reprezentativligini belgilaydi. Ko'pincha quyidagi tasnif amalga oshiriladi²⁰⁵: Umumiy korpus: ular tilning turli navlari, tuzilmalari va lug'at boyligining namunaviy va to'liq namunasi taqdim etadi, shuning uchun ular katta hajmga ega; korpusning bu turi rivojlanishning turli bosqichlarida tilning xususiyatlarini o'rganish imkonini beradi.

Ixtisoslashgan korpus: ularning ta'rifi atrofidagi qarama-qarshiliklarga qaramay, ular ko'pincha aniqroq maqsadni ko'zlaydi va umumiy korpuslarga qaraganda kichikroq hajmda bo'ladi; u kichik tilning vakili bo'lishni yoki umumiy til xulq-atvoriga ega bo'lgan ma'ruzachilar guruhi tomonidan tildan foydalanishni maqsad qiladi.

Ikki tilli yoki ko'p tilli korpus: uning ichida ikkita turni topish mumkin: parallel korpus: asl matnlar va ularning bir yoki bir nechta tillarga tarjimalarini o'z ichiga oladi; taqqoslanadigan korpus: bir nechta tillardagi o'xshash matnlarni o'z ichiga oladi, bu ularni taqqoslash imkonini beradi.

Korpusshunoslik rivojlanib borish jarayonida juda ko'p yutuqlarga erishdi. Hozirgi kungacha bo'lgan davrda elektron korpuslar quyidagi bosqichlarni bosib o'tgan²⁰⁶:

1. 1960-yillar: Brown korpusi AQSh, 1 mln so'z va 500ga yaqin namuna.

2. 1970-yillar: LOB – Lancaster – Oslo/Bergan korpusi, Buyuk Britaniya, Norvegiya 1 mln so'z.

3. Rus tilining mashina fondi, Upsala rus tilining korpusi (Shvetsiya), 1 mln so'z.

4. 1990-yillar: British National Corpus milliy korpus 100mln so'z (venger, italyan, xorvat, chesh, yapon tili).

5. 1990-yillar: Penn korpusi. Sintaktik razmetkaga asoslangan korpus, 4,5 mln so'z.

6. Ingliz tili banki Birmingham (Collins Cobuild) 600 mln so'z.

7. 2000-yillar: Amerika milliy korpusi, 100 mln so'z.

8. Zamonaviy Amerika ingliz tili korpusi, 400 mln so'z.

9. Rus tili milliy korpusi, 140 mln so'z.

10. Gigaword korpusi: arab, ingliz, xitoy tili 2 mlrd so'z.

11. Oxford English korpusi, 2 mlrd so'z.

12. Portugaliya va Galitsiyatillari uchun CRPC, NILC, CORGA.

²⁰⁵ <https://ila.uca.es/linguistica-de-corpus/?lang=en>

²⁰⁶ Abdurahmonova N. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 286.

13. Ispan tili uchun CREA.

14. Qozoq tili uchun Kazakh-KTB.

15. Tatar tilining “Tugan Tel” korpusi, 180 mln so‘z.

Turkiy tillar elektron korpuslari: Turk tilining milliy korpusi, 40 mln so‘z²⁰⁷; Qozoq tilining Almaty Corpus (NCKL) 40 mln so‘z²⁰⁸; Oltoy tilining korpusi; Boshqird tilining milliy korpusi²⁰⁹; Xakas tilining korpusi²¹⁰; Tatar tilining yozma matnlar korpusi²¹¹; Yoqut tilining korpusi²¹²; Sibir ozchilik tillarning raqamli korpusi²¹³. Bundan tashqari Turk tili bo‘yicha 423 mln so‘z, 491 tokendan iborat BOUN korpusi, 2 mln so‘zdan iborat METU, 50 mln so‘zdan iborat veb korpus 34 Mbdan iborat tillar doirasida yaratilgan turk tilli parallel korpuslari mavjud²¹⁴. O‘zbek tili milliy korpusi (2020-2022)²¹⁵, O‘zbek tili korpusi (2021)²¹⁶, O‘zbek tilining ta’limiy korpusi (2021-2022)²¹⁷. Tadqiqotlardan ko‘rinadiki ko‘plab turkiy tillar korpusi yaratilgan. Dunyo tilshunosligida korpusdan foydalanilgan asosiy tadqiqotlar deb Frensis²¹⁸ quyidagilarni ko‘rsatadi: leksikografik tadqiqotlar, dialektologik tadqiqotlar va til grammatikasi ustida olib borilgan tadqiqotlar.

Bugungi kunda yaratilgan til korpuslari yuzasidan qilingan tadqiqot ishlarini kuzatganimizda ularning tarkibida dialektologik tadqiqotlar ham o‘rin olganligini ko‘rishimiz mumkin. Birinchi navbatda dialektal korpuslar haqida to‘xtalsak. Dialektal korpuslar aynan bir til yuzasidan qilingan til korpusi va Milliy til korpuslari tarkibidagi dialektal korpus bo‘limlaridan iborat. MAROKO: Moldaviya va Ruminya dialektal korpusi²¹⁹, Arab tilining ko‘p tilli dialektal korpusi²²⁰, Nordik dialektal korpusi²²¹, Zamonaviy Katalon dialektal korpusi²²², Ispan tilining og‘zaki va ovoqli

²⁰⁷ <https://www.tnc.org.tr/tr/derlem-hakkinda/amac/>

²⁰⁸ http://web-corpora.net/KazakhCorpus/search/?interface_language=kz

²⁰⁹ <https://github.com/nevmenandr/bashkir-language-resources>

²¹⁰ <https://khakas.altai.ru/dictionary/>

²¹¹ <https://www.corpus.tatar/>

²¹² <http://adictsakha.nsu.ru/corpora/corp>

²¹³ <https://corpora.iea.ras.ru/corpora/index.php>

²¹⁴ Abdurahmonova N. O‘zbek tilini elektron korpusining kompyuter modellari. – Toshkent, 2021. – B. 21.

²¹⁵ <http://uzbekcorpora.uz/>

²¹⁶ <https://uzbekcorpus.uz/newIndex>

²¹⁷ <http://uzschoolcorpara.uz/#home>

²¹⁸ Abdurahmonova N. O‘zbek tilini elektron korpusining kompyuter modellari. – Toshkent: 2021. – B. 21.

²¹⁹ <https://aclanthology.org/P19-1068/>

²²⁰ <https://aclanthology.org/W14-3601/> qarang: <https://hal.science/hal-01261587>

²²¹ <http://www.tekstlab.uio.no/scandiasyn/>

²²² <https://www.ub.edu/ccub/variacion-dialectal-cod/>

korpusi (COSER)²²³, *Xelsinki Britaniya ingliz dialektlarining korpusi (HD)*²²⁴ *Bolgariya dialektal korpusi*²²⁵, *Portugaliya dialektal korpusi*²²⁶, *Mandarin Xitoy-materik shevasi (CALLFRIEND)*²²⁷, *Albaniya milliy korpusi*²²⁸, Arab dialekti parallel korpusi (**PADIC**)²²⁹, Rus milliy korpusi (dialektologiya bo‘limi)²³⁰, Tatar dialektal korpusi²³¹, Kuban dialekti madaniyatining elektron korpusi²³², Saratov dialektal korpusi²³³, Janubiy Gollandiya lahjalarining tahlil qilingan korpusi (GCND)²³⁴ va boshqalar. Yuqorida sanalgan dialektal korpuslar aholi yashash joylaridan to‘plangan dala ma’lumotlari, telefon so‘zlashuvlari, internet ma’lumotlari, xalq og‘zaki ijodi namunalari, tarixiy, diniy, badiiy asarlar, televideniye va radio eshittirish, intervyular va talabalarning ilmiy tadqiqot ishlaridagi ma’lumotlar asosida tuzilgan, transkripsiyalangan va izohli yozuvlaridan iborat lingvistik korpusdir. Dialektal korpuslar mundarijasida tilshunoslar va kompyuter dasturchilari bilan kelishilgan holda quyidagi sahifalar o‘rin olgan:

Kirish;

Baza tizimi;

Tahrir qoidalari;

Ma’lumotlar bazasi;

Boshqa korpuslarga yo‘nalma;

Tarix va fon;

Tadqiqotlar;

Video va audio yozuvlar;

Dialektologik korpuslarning maqsadi dialektologiya, sotsiolingvistika, nutq madaniyati, fonetika-fonologiya, leksikologiya, grammatikaga oid tadqiqotlar hamda mahalliy aholining urf-odatlarini, tarixi va boshqa ko‘plab sohalar uchun tadqiqotlar maydonini qulaylashtirish, kelajak avlodga qimmatli ma’lumotlarni yetkazish vazifasini bajarishdir.

²²³ <http://www.corpusrural.es/descripcion.php>

²²⁴ <https://varieng.helsinki.fi/CoRD/corpora/Dialects/>

²²⁵ <http://www.corpusbdr.info/?goto=introduction>

²²⁶ <https://www.corpusdoportugues.org/now/>

²²⁷ <https://catalog.ldc.upenn.edu/LDC96S55>

²²⁸ <http://albanian.web-corpora.net/>

²²⁹ <https://smart.loria.fr/corpora/>

²³⁰ <https://ruscorpora.ru/en/search?search=CgQyAggIMAE%3D>

²³¹ <https://dialekt.corpus.tatar/dialect/link.html>

²³² <https://ethnolex.ru/>

²³³ <http://sarteorlingv.narod.ru/projects.htm>

²³⁴ <https://www.ghentcdh.ugent.be/projects/corpus-southern-dutch-dialects-gcnd>

Dialektologik korpuslarni tuzish ahamiyati shundaki, dunyoda tan olingan tillardan tashqari bir necha 10 ming soʻzlovchiga ega boʻlsada iqtisodiy rivojlanishning pastligi sababli yoʻqolib borayotgan til va ularning shevasini saqlab qolish hamda tadqiq qilishdir. Dialektlarni aniqlash va tasniflashning turli usullari mavjud boʻlib, bugungi kunda dunyo aholisi 7000 ga yaqin tillarda soʻzlashayotgani taxmin qilinmoqda²³⁵. Ushbu tillarning har biri ijtimoiy guruh yoki boshqa omillarga qarab farq qilishi mumkin boʻlgan bir nechta dialekt (sheva)lar boʻlishi mumkin.

Dunyoda qancha dialekt borligini aniq aytish qiyin. Bu qiyinchilik qisman tilshunoslarning dialekt nimadan iborat ekanligi haqidagi kelishmovchiligidan kelib chiqadi – Baʼzi tilshunoslar tilning ikki shaklini turli dialekt deb bilishadi, boshqalari esa bunday fikrda emas. Shu oʻrinda aytish joizki, dunyodagi dialektlarning miqdori juda katta boʻlib ana shu taxmin qilingan 7000 tildan faqat bittasi boʻlgan ingliz tilida 160ga yaqin lahjalar borligi taxmin qilinadi²³⁶. Baʼzi maʼlumotlarga koʻra, dialektlarning umumiy soni 10 000 dan ortiq. Ammo shuni taʼkidlash kerakki, bu lahjalarning aksariyati rasman tan olinmagan yoki roʻyxatga olinmagan. Bunga misol sifatida Hindiston davlatini olishimiz mumkin. 2001-yildagi aholini hisoblash davrida Hindistonda 1 mlngacha soʻzlashuvchiga ega boʻlgan 30ta til, 10 000 nafargacha soʻzlashuvchiga ega boʻlgan 122ta til, 1599ta kam sonli soʻzlashuvchiga ega tillar borligi qayd qilinadi. 2011-yildagi hisob kitoblarda esa 121ta til borligi aniqlanadi va shu tillardan 22tasi Hindiston konstitutsiyasida til sifatida rasman tan olinadi²³⁷. Dialekt va lahjalarning miqdorini aniqlashning imkoni yoʻqligi birgina hind tili misolida ham koʻrishimiz mumkin. Turkiy tillarda mavjud lahja va dialektlar ham shular sirasiga kiradi, chunki aholi migratsiyasi, iqtisodiy va ijtimoiy omillar bu farqlarni oʻsishida hamda tillarning yoʻqolishiga sabab boʻladi. Korpus dialektologiyasining ikkinchi bir ahamiyati shu yoʻqolish arafasidagi til(sheva)larni saqlab qolishdan iboratdir.

Jahon tilshunosligida yaratilgan dialektal korpuslarning yuzaga kelishiga nazar tashlaydigan boʻlsak: Xelsink Britaniya ingliz dialekti korpusi (HD) Sharqiy Angliya, Janubiy-gʻarbiy Lankashir orollari aholisidan toʻplangan orfografik transkripsiyalangan audio yozuvlar toʻplamini uchratishimiz mumkin. Yozuvlar 1970-1980-yillardagi Finlyandiya aspirantlari tomonidan qilingan. Hajmi: 1.008.641 soʻzdan

²³⁵ <https://www.quora.com/How-many-languages-and-dialects-are-there>


²³⁶ <https://www.translateday.com/how-many-dialects-does-english-have/>

²³⁷ https://en.wikipedia.org/wiki/Languages_of_India;

qarang:https://en.wikipedia.org/wiki/Eighth_Schedule_to_the_Constitution_of_India

iborat jami 187ta fayl; Vaqt davrlari: 1970-1980-yillar (CAM, DEV, ELY, SOM, SUF), 1980-yillar (ESS, LAN). Birinchi bosqich 2006-yilda yakunlangan, tadqiqot uchun korpus materiallari birlashtirilgan. Ikkinchi bosqich davom etmoqda, korpus ma'lumotlar bazasini ilgari nashr etilmagan korpus ma'lumotlar bilan kengaytirish davom etmoqda²³⁸. Korpusning asosiy ma'lumotlar bazasi shevalardan yozib olingan audio yozuvlardir. Korpusning tuzilishi (1-rasm):

- Kirish;
- Asosiy tuzilma;
- Konventsionalarni tahrirlash;
- Ma'lumotlarni yig'ish;
- Kembrijshir korpusi;
- Devon korpusi;
- Essex va Lancashire korporatsiyasi;
- Eli(Ely) oroli korpusi;
- Somerset korpusi;
- Suffolk korpusi;
- Korpus haqida;
- Tadqiqot;
- Video va audio namunalari;



Tadqiqotda ma'lumot beruvchi shaxslar maktabda yaxshi o'qimagan, o'rta ma'lumot egasi, qishloqdan chetga chiqmagan shaxslar bo'lishi kerakligi mezon sifatida qabul qilingan. Shundagina ma'lumot beruvchi o'z qiymatini yo'qotmagan, adabiy til ta'siriga uchramagan manbani taqdim qila oladi, deb hisoblaydi korpus mualliflari.

²³⁸ <https://varieng.helsinki.fi/CoRD/corpora/Dialects/>

²³⁹ <https://varieng.helsinki.fi/CoRD/sitemap/index.html>

PADIC— parallel arab dialekti korpusi Magʻrib va Yaqin Sharq dialektlarining taxminan 6400 ta jumlasidan iborat. Har bir dialekt zamonaviy standart arab tili (MSA) bilan moslashtirilgan. PADIC Magʻribdan toʻrtta dialektni oʻz ichiga oladi; bular: Jazoir, Tunis, Marokash, Yaqin Sharq (Suriya va Falastindan). PADIC noldan boshlab SMaRT tadqiqoti aʼzolari boʻlgan Salima Xarrat, Karima Meftouh va K.Smayli va M.Abbos ishtirokida yaratilgan korpusdir. Korpus arab tilining turli lahjalaridan yigʻilgan ijtimoiy tarmoqdagi audio va videolar jamlanmasidan tuzilgan. Bundan tashqari arab milliy musiqasi hamda adabiy til elementlaridan ham foydalanilgan. Ushbu modellashtirish tarjima va nutqni aniqlash uchun ikki yoki undan ortiq tillar oʻrtasidagi assotsiatsiyalarni aniqlash, ajratib olish va taklif qilish uchun matematik usullardan foydalanishni oʻz ichiga oladi. Tillar kam manbali tillar (arab dialektlari), arab-fransuz va arab-ingliz tillari uchun bir tili, parallel yoki taqqoslanadigan korpuslar orqali oʻrganiladi. Dastur boshida kam sonli lahjalar ustida ish olib borilgan boʻlib, korpus asosi yaratilgandan keyin umumiy yechim va izohlarga ega 25ta arab tili (lahja) dan tashkil topgan korpus tuzilgan (2-rasm).



Rossiya milliy korpusi. Dialektal korpusda Rossiyaning turli mintaqalarida yashovchi xalqlarning til va sheva xususiyatlari bilan yozib olingan audio matnlar, xalq ogʻzaki ijodi namunalari turli davrga oid dialektal yozuvlar (erkin standartlashtirilgan orfografiyada taqdim etilgan) mavjud. Bu matnlarning morfologik, sintaktik va leksik xususiyatlari

²⁴⁰ <https://smart.loria.fr/corpora/>

saqlanib qolgan. Subkorpusda maxsus dialektal morfologik belgilar (standart tilda mavjud bo‘lmaganlar) uchun maxsus teglar qo‘llaniladi. Bundan tashqari sof dialektal leksemalar izohi bilan ham ta’minlangan (3-rasm)²⁴¹.

Dialektal korpuslarni tuzishda sheva vakillarining kelib chiqishi, ism sharifi,

yashash joyi tarixi, kasbi, ma’lumoti haqidagi ma’lumotlar bilan to’ldirilganligini

ko’rishimiz mumkin. Barcha yaratilgan dialektal korpuslarda shu tartib aks etgan.

Korpus lingvistikasining rivojlanishi o‘zbek tilshunosligida yangi yo‘nalishlardan bo‘lib, korpus va uning tuzish tamoyillari to‘g‘risida qator tadqiqotlar olib borilgan. Bunga misol sifatida O‘zbek tilining milliy korpusi, O‘zbek tili ta’limiy korpusi, O‘zbek tili korpusi, O‘zbek milliy shevalari korpusi²⁴² va ular tarkibidan o‘rin olgan mualliflik va parallel korpuslar shular sirasidandir. O‘zbek tilshunosligida korpusshunoslikni

²⁴¹ <https://ruscorpora.ru/en/corpus/dialect?search=CgQyAggIMAE=>

²⁴² <https://dialect.uz/>

o‘rganish va tadqiq qilish 2018-yildan e‘tiboran keng rivojlandi. Bu sohaning rivojlanishida S.Rizayev, S.Muhamedov, A.Po‘latov, S.Karimov²⁴³, B.Mengliyev²⁴⁴, L.Raupova²⁴⁵, Z.Xolmanova, S.Muhammedova, N.Abdurahmonova, Sh. Hamroyeva²⁴⁶, B.Elov²⁴⁷, M.Abjalova²⁴⁸, O.Abdullayeva²⁴⁹, O‘.Xoliyorov²⁵⁰, D.Ahmedova²⁵¹, D.Elova²⁵² va boshqa ko‘plab tilshunos va dasturchilarning xizmatlari salmoqli. Bizning izlanishimiz ham korpusshunoslik an‘anasini davom ettiradi. Til korpuslarida Surxondaryo viloyati Denov tuman shevasi ma‘lumotlar ba‘zasini shakllantirishda yuqorida sanalgan tadqiqotlar va tuzilgan korpus ma‘lumotlaridan foydalanishga harakat qildik. O‘z o‘rnida ta‘kidlashimiz kerakki, “O‘zbek milliy shevalar korpusi” bu o‘zbek shevalari korpusi uchun debocha vazifasini bajaradi. Tadqiqotchi M.Xolova Boysun tuman shevasini tadqiq qilib (<https://dialect.uz/>) dialektal korpusni tuzishga muvaffaq bo‘lgan. Tadqiqotchi dialektologik korpus tuzishni ikki bosqichda amalga oshirishni ko‘rsatadi: 1-bosqichda korpusning texnik va ma‘lumotlar bazasini shakllantirish, bunda dialektal korpusning pasporti, mavzuviy guruhlari, janr va matnlar bo‘yicha metarazmetkasini tuzish; 2-bosqichda to‘plangan ma‘lumotlar asosida fonetik va morfologik metarazmetkasini ishlab chiqish²⁵³. Tadqiqotchining “Onlayn shevalar bazasi”da 10ta maydon orqali qidiruv amalga oshirish imkoniyati mavjud bo‘lib, adabiy til, transliteratsiya, transkripsiya, turkum, dialekt izohi, dialekt qatnashgan gap tarkibi, sinonim, omonim, antonim, o‘zlashgan qatlam, rus va ingliz tilidagi tarjimalari kabilarni ichiga olgan 5 sahifadan iborat (4-rasm):

Bosh sahifa;

²⁴³ <http://uzbekcorpora.uz/>

²⁴⁴ <http://uzschoolcorpara.uz/>

²⁴⁵ <http://uzschoolcorpara.uz/>

²⁴⁶ <http://uzschoolcorpara.uz/>

²⁴⁷ <http://uzschoolcorpara.uz/>

²⁴⁸ https://www.researchgate.net/publication/372447469_Monografiya_PhD_Abjalova_Manzura

²⁴⁹ [file:///C:/Users/admin/Desktop/Abdullayeva%20O.%20Dissertatsiya_last%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/admin/Desktop/Abdullayeva%20O.%20Dissertatsiya_last%20(1).pdf)


²⁵⁰ Холиёров Ў. Ўзбек тили таълимий корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дис. автореферати: – Термиз, 2021.

²⁵¹ Ахмедова Д. Атов бирликларини ўзбек тили корпуслари учун лексик-семантик теглашнинг лингвистик асос ва моделлари: Филол.фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дис. автореф. – Бухоро, 2020.

²⁵² Элова Д. Ўзбек тили корпуси бирликларининг услубий тегларини яратиш тамойиллари ва лингвистик таъминоти. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дис. автореф. – Тошкент, 2022.

²⁵³ Холова М. Ўзбек миллий шевалари корпуси тадқиқи (Бойсун тумани “ж”ловчи шевалари мисолида). Монография, – Термиз: ТерДУ НММ, 2022.

Soʻzlar jadvali;
Loyiha haqida;
Transkripsiya;
Aloqa;



4-rasm

Shevalar korpusini yaratish bosqichida shevashunosning tadqiqot maydoni doirasida matnlarni fonetik, leksik, grammatik jihatdan razmetkalash bosqichi dastlabki vazifa hisoblanadi. Razmetkalash deganda matn va uning komponentlariga maxsus teglarni biriktirib chiqish nazarda tutiladi. Maxsus teglar ikki xil boʻladi: lingvistik teglar va ekstralingvistik (tashqi) teglar. Lingvistik teglar matn elementlarining leksik, grammatik va shunga oʻxshash boshqa xususiyatlarini tavsiflaydigan maʼlumotlardan iboratdir. Ekstralingvistik teglar esa muallif haqidagi va matn haqidagi maʼlumotlarni (muallif, nomlanishi, nashr yili va joyi, janr, tematika va hokazo) tavsiflaydi²⁵⁴. Yangi tuzilgan korpuslar uchun razmetkalash qoʻl mehnati asosida bajariladigan ish hisoblanadi. Razmetkalash uch yoʻnalishda olib boriladi: kuzatish, fonetik razmetkalash, shevaga oid (dialektal) matnlarni razmetkalash. Kuzatish bosqichida matn olinadigan shahar, qishloq, aholining etnik tarkibi, respondentning kelib chiqishi, kasbi, maʼlumoti (oʻrta, oliy) kabilar oʻrin olsa, fonetik razmetkalashda unli (old qator, orqa qatorlik, singarmonizm, urgʻu olish, olmaslik), undosh (portlovchi-sirgʻaluvchi, jarangli-jarangsiz) tovushlar doirasidagi oʻzgarishlar; dialektal matnlarni razmetkalashda²⁵⁵ sheva materiallarining leksik metarazmetkasi ham muhim hisoblanib har bir shevadagi soʻzlar

²⁵⁴ <http://compling.navoiy-uni.uz/index.php/conferences2/article/view/167/160>

²⁵⁵ Matnlarni razmetkalashda: nasriy matn, sheʼriy matn va aralash (sheʼriy-nasriy) matnlar koʻproq tadqiq qilingan boʻlib Dialektal korpusda tabiiy va ishonchliligini taʼminlash uchun dialog va monolog (audio) matnlarni tanlab oldik va shularni izohladik.

alohida teglanib adabiy til bilan bog‘lab chiqiladi, dastlabki dialektal korpuslarda har qanday tildagi korpuslarda bo‘lganidek har bir so‘z (variantlari) sinonimi, omonimi, antonimi, paronimlari alohida teglanadi. Shevalar o‘rtasidagi so‘zlarni leksik-semantik teglash murakkab jarayon hisoblanadi. Grammatik razmetkalash yagona standartlashtirilgan grammatik birliklar mavjudligi shevalararo bog‘liqliklar sabab ozmi ko‘pmi bir-birini tushunishga olib keladi va bu jarayon yuqoridagi uch bosqichdan yengilroq sanaladi. Bundan tashqari, avtomatik teglash (razmetkalash) ham mavjud bo‘lib bunda teglashni “tegger²⁵⁶ (tegllovchi dastur)” bajaradi. Yuqorida sanalgan korpuslarda qisman razmetkalash amalga oshirilganligi bizning ishimizda ham o‘z o‘rnida foydalanildi. Til korpuslarida sheva ma’lumotlar bazasi shakllantirildi. Bunda avval Denov shevalari haqidagi ma’lumotlar jamlanib tahlil qilindi. Denov tumanida o‘zbek shevalarining qipchoq, qarluq lahjasida so‘zlashuvchi aholi va tojik tilida so‘zlashuvchi aholi vakillari yashaydi. Denov tumanida joylashgan 98ta (MFY) aholi yashash joylarini kuzatib, yashaydigan odamlar bilan suhbatlashish chog‘ida yig‘ilgan audio matnlar tahlil qilindi. To‘plangan dialektologik materiallarni 2020-yilda yaratilgan “O‘zbek tili korpusi²⁵⁷”da joylashtirish metodologiyasi ishlab chiqildi hamda dialektologik materiallar korpusning dialektologik subkorpusiga joylashtirildi. *uzbekcorpus.uz* dasturi N.Abduraxmonovanning O‘zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari (Fil.f.d.DSc. 2021.) dissertatsiyasi doirasida ishlab chiqilgan. Korpusda o‘zbek tilida ilk bor *FST* (finite state transducer) – chekli avtomat transyuteri vositasida korpusni morfologik teglashning avtomatik usuli yordamida lemmatizatsiyalash va tokenizatsiyalash jarayonlarining lingvistik tahlil bosqichlari ishlab chiqilgan morfologik ma’lumotlar bazasi hamda morfotaktik qoidalar tizimi shakllantirilgan.

Korpusni sintaktik teglash va annotatsiyalashda universal tobelik nazariyasining UdPipe metodi orqali *CONLLU* format namunasi o‘zbek tilining sintaktik modellari aniqlangan.

Olib borilgan izlanishlarning amaliy ifodasi sifatida <http://uzbekcorpus.uz> sayti yaratilgan bo‘lib, o‘zbek tili korpus menejeri (qidiruv tizimi)ning lemma, token bo‘yicha hamda *n-gram* modeli asosida konkordanslarning qidiruv tizimi ishlab chiqilgan.

Tarjima qilish algoritmi va o‘zbek tili parallel korpusining tarjima xotirasini yaratishda *WordFast* texnologiyasidan foydalanilgan hamda

²⁵⁶ Abdullayeva O. O‘zbek tilining internet axborot matnlari korpusini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent, 2022. – B. 103.

²⁵⁷ <https://uzbekcorpus.uz/newIndex>

o‘zbek tilining ingliz va rus tillarida tarjima birliklari muqobillarining ma’lumotlar bazasi tuzilgan.

Korpusni grammatik teglash bosqichida *Protege* dasturi orqali ontologik modellashtirish usulining ilmiy asoslari belgilangan. Korpusda qidirilayotgan so‘zning imloviy xatolarini aniqlash va unga yaqin bo‘lgan so‘zlar koeffitsentini belgilashda qidiruv interfeysida ilova qilishda Djaro *Winkler* algoritmini qo‘llashning maqsadga muvofiq ekanligi belgilangan.


Subkorpusda Denov shevalari ma’lumotlar bazasining shakllantirilishi quyidagicha amalga oshirildi. Birinchi bosqichda diktafon, telefon so‘zlashuvlari so‘rovnomma o‘tkazish, anketa to‘ldirish usullari orqali to‘plangan dala ma’lumotlari (audio materiallar) transkripsiyada²⁵⁸ yozib chiqildi. To‘plangan materiallar asosida dialektologik lug‘at tuzildi. Lug‘atda o‘zbek adabiy tilda uchramaydigan, adabiy tilda talaffuzi bilan farqlanadigan so‘zlar alohida meta ma’lumotlari bilan joylashtirib chiqildi. Lug‘atdan o‘rin olgan har bir so‘z uchun maxsus kompyuter dasturlari o‘qishi uchun mo‘ljallangan yagona yunikot tizimiga ega bo‘lgan *UTF-8 (txt)* faylda matnlar tayyorlandi (5-rasm).

5-rasm.

t/r	Adabiy tilda	shevada(talaffuzi)	transkripsiya	lahjasi	Meta ma’lumot			Urug‘i	fayl (txt)
					yashash manzili	Yoshi va jinsi	ma’lumoti, kasbi		
1	berdim	berdim, bedim	berdim	qarluq	Denov tumani Cho‘ntosh mfy	50 yosh, ayol,	o‘rta, kaxozchi	kichik kaltataoy	1
2		yana	jānā	qarluq	Denov tumani Cho‘ntosh mfy	50 yosh, ayol,	o‘rta, kaxozchi	kichik kaltataoy	1
3		men	men	qarluq	Denov tumani Cho‘ntosh mfy	50 yosh, ayol,	o‘rta, kaxozchi	kichik kaltataoy	1
4		inson	insān,	qarluq	Denov tumani Cho‘ntosh mfy	50 yosh, ayol,	o‘rta, kaxozchi	kichik kaltataoy	1
5		odamni	ādānmi	qarluq	Denov tumani Cho‘ntosh mfy	50 yosh, ayol,	o‘rta, kaxozchi	kichik kaltataoy	1
6		o‘sha	ushā	qarluq	Denov tumani Cho‘ntosh mfy	50 yosh, ayol,	o‘rta, kaxozchi	kichik kaltataoy	1
7		paytla	pājtīdā	qarluq	Denov tumani Cho‘ntosh mfy	50 yosh, ayol,	o‘rta, kaxozchi	kichik kaltataoy	1
8		to‘jayinim	tō‘jājinim	qarluq	Denov tumani Cho‘ntosh mfy	50 yosh, ayol,	o‘rta, kaxozchi	kichik kaltataoy	1
9		nimaga	nīmāgā	qarluq	Denov tumani Cho‘ntosh mfy	50 yosh, ayol,	o‘rta, kaxozchi	kichik kaltataoy	1
10		bonb	bānb	qarluq	Denov tumani Cho‘ntosh mfy	50 yosh, ayol,	o‘rta, kaxozchi	kichik kaltataoy	1
11		keladi	kelādi	qarluq	Denov tumani Cho‘ntosh mfy	50 yosh, ayol,	o‘rta, kaxozchi	kichik kaltataoy	1

²⁵⁸ Lotin alifbosidag transkripsiyasidan foydalandik.

Matndagi soʻzlar meta maʼlumotlarini joylashtirishda tanlangan soʻzning transkripsiyasi, adabiy tildagi muqobili, respondentning yashash joyi (davlat, viloyat, tuman, qishloq), kasbi, yoshi, jinsi, lahjasi, urugʻi (urugʻning shaxobchasi, daha va toʻdasi) haqidagi maʼlumotlar biriktirildi. Jadvalda berilgan soʻzlar raqamlar ketma-ketlikda 1-raqamdagi soʻz, 1-raqamdagi *UTF-8 (txt)* faylga biriktirilgan boʻlib, qidiruv interfeysida yozilgan soʻzning adabiy tildagi muqobili, oldindan bazaga biriktirilgan transkripsiyada yozilgan soʻz qatnashgan matn qidiruv oynasida aks ettiriladi. Audio materiallarni transkripsiyada yozish, ularni ketma-ketlikda razmetkalash qoʻlda yozib chiqildi.




Denov shevasining sheva maʼlumotlarini til korpuslari qidiruv tizimida joylanishi va uni amalda qoʻllanish bosqichlarini ishlab chiqishda shu kungacha yaratilgan dunyo korpusshunoslik va oʻzbek tilshunoslari tomonidan yaratilgan til korpuslari metodologiyasiga asoslanildi.

Yaratilgan subkorpus interfeysining **Input** qismida soʻzning adabiy tildagi varianti masalan: *oʻgʻli* soʻzi kiritilganda qidiruv tizimida joylashtirilgan maʼlumotlar (**select**) lahja boʻlimiga buyruqni uzatadi va **transkripsiyada** berilgan sheva materiallaridan **nta (cheklanmagan)** qidiruv natijalarini mavjud boʻlgan matnlarni interfeys (**output**) ga chiqaradi. Olingan natija *oʻgʻli* soʻzining qipchoq va qarluq shevalaridagi barcha variantlarini soʻz shakllari bilan birgalikda aks ettiradi. Olingan natija haqida yuqorida taʼkidlaganimizdek meta maʼlumotlarni ham olishimiz mumkin.

Denov kichik dialektal zonasi shevalarining asosiy xususiyatlari, shevalarning bir biriga taʼsiri alohida oʻrganildi va baza lugʻatiga kiritildi. Subdialektal korpus tuzishda soʻzlarning transkripsiyasi va adabiy tildagi transliteratsiyasi alohida izohlar bilan berildi. Har bir soʻzning shevadagi varianti va oʻzbek adabiy tilidagi sinonim va omonimlari alohida izohlar orqali teglandi. Bundan tashqari korpus imkoniyatidan kelib chiqib maʼlumotlar bazasi doimiy ravishda toʻldirib borishga imkoniyat yaratildi.

Keyingi o‘rinlarda korpusga joylangan audio materiallar avtomatik ravishda razmetkalanish ham imkoniyati ishlab chiqildi.

7-rasm



8-

rasm

O‘zbek tilining ushbu elektron korpusi -

o‘zbek tilidagi 10 milliondan oshiq so‘zlarni qamrab olgan matnlarni o‘z ichiga oladi

Korpus bo‘yicha qidirish

 Parallel korpus	 Ko‘p tilli parallel korpus	 Mualliflik korpusi
 Ta’limiy korpus	 Gazeta korpusi	 Bolalar nutqi korpusi
 Audio korpus	 Multimedia korpusi	 Dialekt korpusi

Bob bo‘yicha xulosalar

1. O‘zbek areal lingvistikasida ekstensional taksonning bir tarkibiy qismi sifatida dialektal zona e‘tirof etilgan. Albatta, bunday dialektal zona

yirik shahar dialektining fokus nuqtasi vazifasini bajarishiga asoslanadi. Kuchsiz fokus nuqtasi faoliyatda boʻladigan zonada yana kichik dialektal zona boʻlishi mumkinligi aniq boʻlib qoladi. Bu vazifani Denov shevasi misolida belgilash tajriba qilindi.

2. Bu zonada qarluq shevalari yetakchilik qiladi. Shaharga atrofdan koʻchib kelgan qipchoqlar va tojiklar qarluq shevasiga moslashishgan.

3. Zonadagi qipchoq lahjasiga oid shevaga qarluq shevasining taʼsiri sezilarlidir. Tojik tilining ham kuchsiz taʼsiri bor.

4. Qipchoq shevasining ham qarluq shevalariga taʼsiri bor. Bu \bar{a} unlisining mavjudligi bilan belgilanadi.

5. Taʼkidlash joizki, har qanday kontaktlarga qaramay, qarluq, qipchoq shevalari va tojik tili oʻz xususiyatlarini saqlab qolgan.

6. Denov shevasi nisbatan murakkab arealni hosil qilganligi bilan xarakterlanadi va bu arealga xos xususiyatlarni korpusga joylashtirish oʻzbek shevalari korpusining mukammalligini taʼminlashga xizmat qiladi.

7. Denov shevalarini ham mavjud dialektal korpuslar sahifalari asosida joylashtirish mumkin.

8. Korpusni sintaktik teglash va annotatsiyalashda universal tobelik nazariyasi metodologiyasi asosida oʻzbek tilining sintaktik modellari aniqlanganligini hisobga olish zarur. Shuningdek, dialektal zona materiallari asosida subkorpus maʼlumotlar bazasi shakllantirilib, qidiruv oynasida natijalarni aks ettirilishi tajribalarda isbotlandi.

Umumiy xulosalar

1. O‘zbek shevalari tavsifiy jihatdan atroflicha o‘rganilganligi ma’lum. Endilikda esa u areal yondashuv asosida tadqiq qilishga muhtoj. Ushbu tadqiqot ana shu maqsadga xizmat qiladi.

2. Denov shevasi maxsus dialektologik tadqiqot obyekti bo‘lgan emas, lekin bu sheva to‘g‘risida ayrim maqolalar e‘lon qilingani. Bu ishda Denov shevasi fonetikasi va morfologik xususiyatlari tahlilga tortildi va uning eng muhim belgilari aniqlandi.

3. Denov shevasi o‘ziga xos arealni hosil qilgan va unda qarluq va qipchoq shevalari hamda tojiklar shevalari aloqa-aralashuv quroli sifatida asrlardan beri faoliyatda bo‘lib kelganligi o‘z tasdig‘ini topdi.

4. Denov arealidagi bu shevalar va tojik tili qadimdan o‘zaro ta’sirga uchragan bo‘lsa-da, bu ta’sir bu shevalar xususiyatlarini o‘zgartirib yubormagan, balki kuchsiz ta’sir unsurlari mavjud.

5. Qarluq va qipchoq shevalarining o‘zaro ta’siri qarluq shevalarida umumturkiy **a** unlisining so‘zlarda birinchi bo‘g‘inda paydo bo‘lib qolishi bilan va qarluq shevasiga xos bo‘lgan **ā** unlisining ham birinchi bo‘g‘inida turli ehtirosalar bo‘lganda paydo bo‘lib qolishi bilan izohlanadi.

6. Qarluq shevalari, asosan, 6 unlini saqlab qolgan, lekin 7-unli ham qipchoq shevalariga kontakt bo‘lgan o‘rinlarda birinchi bo‘g‘inda mavjud.

7. Qipchoq shevalarida esa 9 unli fonema o‘z o‘rniga ega, lekin qarluq shevalari bilan kontaktda bo‘lgan shevalarda 10-unli, ya’ni **ā** unlisi paydo bo‘ladi.

8. Sheva morfologiyasi boshqa qarluq shevalari bilan umumiylikka ega, lekin ba’zan o‘ziga xoslik ham seziladi, masalan, II shaxs egalik shaklidagi ko‘plikda *dādāñlār* shakli o‘rnida *dadāñälä* variantining qo‘llanishi shevaning o‘ziga xos xususiyatini ko‘rsatadi.

9. Korpusni sintaktik teglash va annotatsiyalashda universal tobelik nazariyasi metodologiyasi asosida o‘zbek tilining sintaktik modellari aniqlanganligini hisobga olish zarur. Shuningdek, dialektal zona materiallari asosida subkorpus ma’lumotlar bazasi shakllantirilib, qidiruv oynasida natijalarni aks ettirilishi tajribalarda isbotlandi. Korpusni grammatik teglash bosqichida ontologik modellashtirish usulining ilmiy asoslari isbotlangan. Korpusda qidirilayotgan so‘zning imloviy xatolarini aniqlash va unga yaqin bo‘lgan so‘zlar koeffitsentini belgilashda qidiruv interfeysida ilova qilishda yuqorida ta’kidlangan algoritmlarni qo‘llashning maqsadga muvofiq ekanligi ta’kidlandi.

10. Shevalar korpusini yaratish bosqichida shevashunosning tadqiqot maydoni doirasida matnlar fonetik, leksik, grammatik jihatdan razmetkalash ishi bajarildi va unda lingvistik teglar va ekstralingvistik (tashqi) teglar hisobga olindi.

11. Denov shevasi ma'lumotlarining til korpuslari qidiruv tizimida joylashtirilishi va uning amalda qo'llanish bosqichlarini ishlab chiqish shu kungacha yaratilgan dunyo korpusshunoslik va o'zbek tilshunoslari tomonidan yaratilgan til korpuslari metodologiyasiga asoslanishi maqsadga muvofiq deb topildi.

Ilova 1. Suhbatlar.

Cho‘ntosh

....berdim jänä berdim men insän, ädämni meni ushä päjtlä xožäjinim nimägä bārib kelädi. Šüngä bir kāstrulkä gošti ürip ketgän jāyi türipti goši jāy. Änävi trimāmni içidän ^kxāsätāvāyimni urib ketgän čäñi turipti kāsā tāvāq jāyda nimä qilishni bilmädim, chopānlägä tāxtim uni bosä män hä čopānlä qipti-dedim män. İkkinči märtä kelip nān-pān ālib ketgändä: kejin qanajdir uš-tort soätän kejin bāsä-bās kelli, ārqasi uzluksiz keljäpti, hämmä ädirgä čiyip ketäpti, ungä turip qišlāqtan bittä jārimtā soräsä **učipni-mi** bir bälā dedi. Kejin bosä bir čāyt xožäjinim kelli, äjti, — xudā bir äsrädijä säni, sänijäm terärist dep äpketsä nimä qila:rdiñ, -dedi. Män äjtim mäni äldimgä terärist kemägän mäni äldimgä čopān kelli dedim. Unāq qajerdän bilämän, bāri-bir rāxmi kelädidä bizläda, kejin uštāmi tortāmi ušlāp bāsip ketti. Män qajdän bilämän ošanaqa čiyin ädirlägä jurgänini – ošä jilli xāsijätti kujāvi täylärdä nimä qiv juruvdidä ...

... bällärim jāšidi, kopām jāš emäsidi.

... qarañ mänä keläpti qapqara ädäm mäsälän sāqällär osip ketkän, ustigä eski kijim ädäm ošä päjtlär kok žuldir čäpān kijärdi, šunāj čäpāni bār, kelip soräjäpti jaxši māmilä bilän sālām älik qoligä kelip soräyāpti jängäžän qoj bāqib juruvdik heč närsämiz joq qolimizgä deb – berdim pāmidār(1) bedim, tāmārqamgä hämmä närsäm bā:. Hämmä näsädän uzib-uzib bir belvāy närsäni birinči mättä be:dim. Ushä birinči mättä issiy nān piširuvdim kejingi märtäjäm berivärdim uš-tort sātälädän keyin sātä unbirlägä ālip ketgän bosä sātä torlägä bāstirib kelli, šunāj qib menäm bir tušdim.

... jolinizgä toyri, haqi hālāl minän juriñ jalyān gäpirmāñ, birāvdi äldämāñ, xudāni ozi toyri jolgä başqaradi.

... mänä šaxsan meni oylim mullo enni čontāšdi. Tort jillän beri tärmäšib jātibdidä enni, män kor bollim bulä tärmäškäni tärmäškän imām bogin dep, män qojmadim qoj keräkmäs dep. Mä:n ozimmi risqim ozimgä jetädi. Tortä bäläm bār uštā bäläm tortä bolli, qojmadim. Ālib bārädi mänä igirmä jildän beri bittä qantini āyzimğa sāmājmän, toppä toyri äjtämän.

Zijādullā mudir kičkinä qajnāyam bir sārkämi nimä sojdi äzizlärimizgä kejin bāvāni ālip ketti bāvājäm kettilä bir ozim qāganman uggä otirimman tāmārqaga išlājmän enni män munaqa, bulär šunāj qilli, xudā dejmän tävbä dejmän. Bir čiqāt bir māšin bāriv yurra toxtadi, juqāridan toxtädidä māšini arqasini äčtidä bir sālāfänni tuširdi. mänäm kārāvāti ustigä otiruvdim ästä-ästä bādim bārsän sālāfändän bir nimä tuširdi mänä šuncä dumi bār bilinib turipti, äjppā:γ šunāj jāy, källä jāy, ajāylä munän āb täšlägän. Xāla Zijādullā qani – dedi. Zijādullā jāy išgä, bāvā qani dedilä, män äjtim bāvājäm išgä,

kejin bir čiqāt xāla bizgä ruxsat bersāñiz, — ha dedim tändirri beräsiz, — dedi.

... nimä qilasiz dedim

... aa šu jaxnä qilamiz dedi, källäm šunāj nimä bolib qälli.

Zijādullā ošä vaxtigä selsāvgä birinči turärđi.

... kejin utin keräk dedi, bāvä trājtirčijdi utin vāñ[ko‘p] idi.

... alāvdi jāqdi, čoydi qilli, simgä illi, tändirgä illi, āyzini lājlādi, jāpti, mehmānxānaga čozilib jātti. Bu ārāgä män bāvägä ādām jub^vārdim, bāväjäm kemādilä. Kejin āšti, tändirdi ālligä prlävkä qilingän šu plävkäni ustigä kilānkä täshāb āšti. Šunāj pišgän goš hil-hil. Šunāj pišgänän kejin uštā lāli bedim. Ungä jārāšā pijāz, nārsā qarasi. Bir kättä lāligä sirli lāligä, bir lāli goš täšlādi. Xāla dedi mänä buni Zijādullā minän bāvä kesä jejdi, — dedi.

Kejin ābārib mi:mānxānāgä nān-pān täjlädim jejišib ičišib ketti, šu kejin gošgä bādim, xoš nimä qilišim keräk endi, pärvärdigār äjtādi jemä, šājtān äjtādi je, šunāj jelpib pišgän endi. Zijādullā keldiju ānä jediñizmi, — dedi, — jā dedim jā juräk urmādi, män jemādim jesām bolādimi dedim. Jā sizgä bomājdi sizgä mumkinmäs dedi. Kejinmän uç kun kelin qizlä minän kāsā tävāqni qatrān qilib tändirni āqartirib, män uç kun xizmāt qillim. Šunāj ārqagä kettim žāji kelsä xaltamdägi unimgä bārākä bomādi. Šunāj tävbä täzāru qib bojnimdi egib, nimä qilib män ozimgä keldim. Bir žājdän mänä šuncä nāžujā nārsā āyzimgä tijsā män ollim qudā män ollim, män joqmän. Xudā bersā hälolidän bersin. Bir bārsām Kočārvājdikidän, Islāmquldikidän bir nimä , bir pijälä čāj içmāsām bā birāvdi ujidän jemāsdim, toyrisini äjtāmändä. Qaçan bārsām Xursanqul jā bir qoj, jā bir sārkä (bāvä binän ikkāvimiz bārārdik) qojärđi.

(To‘rayeva Munavvara, ishchi,
82 yosh, Cho‘ntosh (kaltatoy)

Sohibkor

Mänä bu Sopi Āllājār bābāmiz šu kiši šunän otip, šunän här bir qišlāqqa nām qojgän. Xuparilärđi Xubbari degän xuddiki bir čirājli pärigä oxšāgän, Inä: kejin mänä bu ošārgä kegändän kejin bizzī bābājlā nān, čāj qojgän, nāni ošāri deb nām qojgän, sināgä ānguri sinā deb nām qo‘jib ketgänlä, kejin vaxšivārgä bārgänlādä ošaqa qāgänlä. Nijāz bāqi degän ekitā xalpälāri (bogän) bār ākän, u kiši xat jāzib berādilārki xalpälāri xatti ilānla pāššāsīgä ābārādi. Xalpāsīgä qarab äjtādiki ilānlā källāsini kotārib turādi qorqmā tub^{pk}ä (eng chuquriga) bir pāšāsī bār šu pāššāsini oldigä qāyāzdi qojāsānu kelāverāsän, sengä ilān birār daxl tegmājdi degän. Ošā kečāni ozigä mänä šunän kelib ilānsāj dejdiku qojbeš minän mārđi ārāsīgä mänä

bergä , änäšergä kelädi, butun ädämzät mälü häli ädämi minän jutip zähärtepä dejdi ahunbābāyifdān otgändä änä šergä toxtägän, toxtägändä zaxar tokändä birdän gāvurkängä ketgän. Vaxšivārgä hāzir:ām qolläri minän jäsägän mäçitläri bār. Mäçit qigändä bizdi bābājlä jārdāmgä bārädi.

... Nekin meni ātām Bājqābilvāj minän āšnā bogän, ozini pärzändidāj qarägän, bāriš kelišni joqātmäsä umri uzāq bolädi. Birinçi sāv(v)sārgä žāvçi qilib juvārgän musurmān qiliš uçun, dājrādän ubedgä sāv(v)sār dejdi.

